

HAMID
OLIMJON



Kayolimda
BO'LDING UZUN KUN

Hamid
Olimjon

**Xayolimda
bo'lding
uzun kun**




NGI ASR AVLOD
TOSHKENT
2019

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50')6

O – 49

Olimjon, Hamid

Xayolimda bo'lding uzun kun: she'rlar, balladalar va dostonlar. Hamid Olimjon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 288 b.

ISBN 978-9943-20-280-1

Mazkur kitobimiz XX asr o'zbek she'riyati darg'alari uchun tom ma'noda ustoz sanalgan, zabardast shoirlarimizga o'rni kelganda yo'l-yo'riq ko'rsatgan, o'zining hur fikri, bemisl tasvirlari, jonli timsollari bilan adabiyotimizda o'z o'rniiga, o'z so'ziga ega bo'lgan ijodkor asarlarining jamlanmasidir. Uning she'rlari katta yoshdagi adabiyot muhiblari qalbini nazm bilan sug'orsa, doston-u ertaklari kichik yoshdagi o'quvchilar ko'ngliga, shuuriga eng olijanob fazilatlar urug'ini qadaydi.

Hamid Olimjon she'rlarida nafaqat davr ruhi, balki er-tangi kun sabog'i, nurli kelajak umidi mujassam. Muto-laas barcha yoshdagi o'quvchilarni shoir qalbi bilan yaqinlashtiradi, ma'naviy va ruhiy suhbatga chorlaydi.

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50')6

ISBN 978-9943-20-280-1

© Hamid Olimjon, «Xayolimda bo'lding uzun kun». «Yangi asr avlodi», 2019-yil.

She'rlar

*Shodlik yo'lga boshladi meni,
Baxtiyorlik bo'ldi odatim,
Shoir bo'lib shodlik va baxtni
Kuylamaklik zo'r saodatim.*



O'ZBEKISTON

Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda.
Chappar urib gullagan bog'in,
O'par edim Vatan tuprog'in.
Odamlardan tinglab hikoya
O'sar edi shoirda g'oya.
Daryolardan kuylab o'tardim,
Ertaklarga quloq tutardim.
Hammasini tinglardim, ammo,
O'xshashini topmasdim aslo.

O'xhashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston –
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.
Chiroylidir go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin
Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofga yoyganda gilam.
Aslo yo'qdir bundayin ko'klam.
Tog'lardagi qip-qizil lola
Bo'lib go'yo yoqut piyola,
Buloglardan uzatadi suv
El ko'zidan qochadi uyqu.
Dalalarda boshianadi ish
Boshlanadi ijod va turmush.
Kundan-kunga o'sadi paxta,
Barg chiqadi har bir daraxtda,



Olmazorlar gulin to'kadi,
Meva bog'lab shoxin bukadi.
Shaharlarda ishga chiqib el
Odam bilan to'lar Tekstil.
Hammasining bir istagi bor,
Hammasi ham xursand, baxtiyor.
Bu o'lkada har narsa bordir,
Ko'rmanganlar doim xumordir.
Amu bilan Sirdan suv ichgan,
Zarafshonni loylatib kechgan,
Chavandozlar bordir bu elda.
Bahor chog'i pishqirgan selda
Arg'umoqlar qo'shig'i bordir.
Bu shundayin ajib diyordir.
Dalasida o'smas tikonlar,
Cho'llarida chopmas ilonlar;
Qush uchganda kuymas qanoti,
Odam o'tsa qurimas zoti;
Changov qolib yo'lovchl o'lmas,
Har burchakda boshkesar bo'lmas.
Kulbalarmi kelib bosmas qum,
Go'daklarmi yutmas och o'lim.
Odamga baxt va tole yordir –
Bu shundayin ajib diyordir.


Bunda bulbul kitob o'qiydi,
Bunda qurtlar ipak to'qiydi,
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol,
Bunda qorning taglarida qish,
Bahor uchun so'ylaydi olqish.
Bir o'lkaki husnga boydir,
Uning eng zo'r ko'zgusi oydir;
Bir parcha o't bo'llib bunda kun
Paxtasiga ishlaydi har kun.



Botirlari kanal qazadi,
Shoirlari g'azal yozadi,
Kuychilari o'qiydi yalla,
Juvonlari aytadi alla,
Pazandasi yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon –
Bu shundayin ajib diyordir.
Buning qiziq hikmati bordir:
Har go'shada suyangan tog'i;
Gurjistonda sevgan o'rtog'i
Unga husn va iftixordir;
Uzoq Sharqda qo'shini bordir,
Shuning uchun tinchdir ul ko'ngul.
Shuning uchun osoyishdir ul.
Shuning uchun somonda yotmas,
Shuning uchun sovuqda qotmas,
Yovlariga osmon tutundir,
Shuning uchun bag'ri butundir,
Shuning uchun yopinmagay xas,
Shuning uchun kiyinar atlas.

Shunday o'lka doim bor bo'lsin,
Shunday o'lka elga yor bo'lsin.
Omon bo'lsin og'aynilari,
Omon bo'lsin do'stlarning bari.
Doim bo'lsin davlati omon,
Shunday bo'lsin bu butun jahon.
Shaftoluzor bog'larni ko'rdim,
Gul ko'kargan tog'larni ko'rdim,
Mehr qo'yib o'pgan sari oq,
Oppoq bo'ldi bu, aziz tuproq.

Vodilarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi menda...



O'ZBEKISTON

1

Quyosh chiqar, to'r yoyar,
Oqar oltin tutunlar.
Ko'chalar qizar, kuyar,
Shunday boshlanar kunlar.

G'ijillar kichik eshik,
Chiqar kulib go'zal qiz,
Yomg'ir yuvgan yaproqdek,
Jonli, tirik va tetik.

Yayrab yashnab ketadi,
O'ynab nurli ko'zlari.
Maktabiga ketadi,
Porlab anor yuzlari.

Yo'ldoshlarin ko'radi,
So'rashadi, kuladi.
Muallima – yosh xotin,
Uni jondan sevadi.

2

Shahar... Har yumshoq sahar
Kuylar bilan uyg'onar.
Alamlilar bag'riga
Sevinch tikandek botar.



Shaloladek shag‘illab,
Shovqin-suron qaynaydi;
Mashlnalar o‘ynaydi,
Yonib, porlab, gurullab.

Bukun bayroqlar yana
Qizil karvon kutadi.
Ko‘chalarni to‘ldirib,
Po‘lat otlar o‘tadi.


Soqoliga oq tushgan
Dehqon ota minbarda:
Chopgan,
Hovliqqan,
Shoshgan...
So‘zlar bir zum
Bir parda:
– Biz, siz bilan birmamiz.
Mushtumzo‘rlar yo‘q bo‘lsin.
Biz ko‘plashib kelamiz,
Bu ularga o‘q bo‘lsin.

3

Zarafshon asir bukun,
Hovliqmaydi, toshmaydi.
Qirg‘oqlirdan oshmaydi,
Bo‘ynini egmish butun.

Har tomonda ishchilar
Toshlarni sindiradi.
Daryoni tindiradi,
Temir tan kurashchilar.

Duxoba qirg‘oqlarda,
Yangi dunyo yaralgan.



Igna – sarg‘ish iplar-la
Elektr zafar chalgan.

To‘g‘onlarda yozilgan:
«Qumliqlarga oqmaysan,
Burjuylarni boqmaysan»
Zarafshon nurga to‘lgan.

4

Marmar kabi salqin tun...
Ko‘zgudek tiniq, oydin.
Dala yayrab yotadi,
Yangramay kuy, chiqmay un.

Jo‘ra qo‘lda ketmoni,
Suv ochgali ketadi.
Oq oltinning gullari,
Cho‘llab uni kutadi.

Suvlar keladi ana,
Quturib mastdek, toshib,
Past marzalardan oshib,
Jo‘ra sevinar yana.

5

Tindi oyning nurlari,
Xo‘rozlar ovoz soldi.
Adolatoy uyg‘onib,
Barg kesgali yo‘l oldi.

Quchoq-quchoq barglarmi
To‘pladi katta bog‘dan.
Sevinchlar qaldirg‘ochdek,
Uchardi so‘l va sog‘dan.

Uyda ipak qurtlari,
 Bir hasharni kutgandek,
 Ochlik yilin o'tgandek,
 Pishillar, hovliqardi.

Adolatoy kelardi
 Polvon kabi dam tortmay.
 Novdalarga ko'milib
 Charchamay,
 Tolmay,
 Botmay.

6

Fabrika – ulug' bir qalb,
 Butun hislar birlashgan,
 Sezgi-hislar ularshgan,
 Hamma bir og'iz, bir lab.

Parralar aylanadi,
 Yorug', erkin dillardek,
 Pillalarining qillari,
 Bir-birga boyylanadi.

Qizil o'tlar yonadi,
 Har kun yangi uchlar-la,
 Uning baxti, zavqiga,
 Ter to'kkalar qonadi.

7

Ko'chalar olov va chang...
 Yaktagini yopinib,
 Yigit so'zlaydi kulib;
 – Qovun keladi, ketmang.



Asta-sekin jiladi,
Bir arava uzoqdan.
Cho'zillb qo'shiqlari,
Odam chiqar haryoqdan.

– Cho'llab qoldik, tashnamiz,
Tashlab keting bittani.
– Xo'p, berayin jon bilan,
Ol pichoqni, so'y, qani.

To'rdor qovun karsillab,
Qantday erib ketadi:
– Eshmat aka, albatta,
Istagiga yetadi.





ENG GULLAGAN YOSHLIK CHOG'IMDA

Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.
Shunda ko'rди ko'zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni.

Qushlar sayrar jonioqga payvast,
Men sevgining bo'yи bilan mast.
Kuni bilan dalada qoldim,
Lolazorlar ichra yo'qoldim.

Quchoq-quchoq gullar terganim
Va keltirib senga berganim
Kechagiday hamon esimda,
Har soniya, har on esimda.

Shundan beri tilimda oting,
Shundan beri dilimda oting.
Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.



* * *

Sevgi desam, faqat sen desam,
Sening bilan yashasa qalbim;
Sen desam-u, butun dunyoning
Sho'rishiga quloq solsam jim...
Quyun kabi aylanar boshim,
Qarayman-u, ko'zim tinadi.
Va jilvangdan ko'ngil ko'zgusi
Parcha-parcha bo'lib sinadi.
Shu qarashga bormi nihoya,
Bo'larmanmi maqsadga vosil?
Toparmanmi bir yangi g'oya,
Bo'larmikan bir murod hosil?
Topilarmi unda bir chora,
Agar meni qurshasa junun:
Bo'lib qolsa sirim oshkora,
Atasalar nomimni Majnun?

XAYOLIMDA BO'LDING UZUN KUN


Xayolimda bo'lding uzun kun,
Seni izlab qirg'oqqa bordim,
Och to'lqinlar pishqirgan tunda
Topib ber, deb oyga yalvordim.

Ishon bunda, seni doimo
Esga solur chiroyli tunlar,
Sho'x yulduzlar, salqin saharlar,
Esga solur baxtiyor kunlar.

Toleyimning oshinosi san,
Sen sevgimning ko'kargan bog'i,
Sening bilan birga iqbolim,
Ishonchimning sen vafo tog'i.

Meni qurshar salqin bir havo,
Suv ustidan tun quyiladi,
Shunda qancha-qancha gaplarni
Esga solib oy ham to'ladi.

Kecha jimjit, yolg'iz to'lqinlar
Pishqiradi bilmay tinimni,
Hiylagar oy, sehrgar dilbar,
Solib qo'yding yodimga kimni?..



HOL

Qaydan kelding, fikrimni bo'lding,
Nega etding meni parishon?
Nega buzzing munis holimni,
O'ylarimni nechun bemakon?
Ehtiroslar, hislar, yonishlar
Ol'kasini kezardi xayol,
Hokim edi mening ruhimda
Shunday latif ilhomiy bir hol.
Bir kichik tor, bir yoniq parda
Qancha gapni aytib berardi...
Onasidan o'rganganini
Chumchuq chuvlab qaytib berardi...
Tikkan edim qalb qulog'ini
Va fikrimga bergen edi jon,
Chivin uchsa kelardi malol,
Shunga edi sadoqat, imon.
Xalal berma, ozroq qo'nib tur,
Tamom qilay shu gul suratni,
Qo'ygil meni, yurakning qoni
Bilan tortay eng so'nggi xatni.



OZAR QIZI

Xazardan yumshoq bir yel esib,
Bir bahor xabari keltirdi,
Tingladim yo'llarni men to'sib,
Sevinchlar har yonni to'ldirdi.

U kunlar hayotning ko'kida
Bulutlar keng qanot yozgandi.
Yulduzlar ko'rolmay borliqni,
Bir voram yaproqdek ozgandi.

Anordan suv ichgan u yuzlar,
Yoshlikda uch-to'rt kun porlardi.
Javdirab kulganda yosh ko'zlar,
Chodralar: «kel, kel» deb chorlardi.

Qush kabi qafasga o'ralgan
Yosh dillar:
«Don ber» deb yig'lardi.
Zaharll xanjardek qadalgan
Alamlar bag'rini tig'lardi.

Xazardan yumshoq bir yel esib,
Bir bahor xabari keltirdi,
Tingladim yo'llarni men to'sib:
«Chodraning siynasi yirtildi!»


U, munis yosh ozar qizlari,
Oq bulut qo'ynida cho'mildi;
Porladi u anor yuzlari –
Qayg'uning ko'zları yumildi.



To'planib yulduzlar kezalar
Har kuni neft oqqan yo'llardan.
Va o'tli, bolg'ali qo'llardan
Bir ko'mak, bir imdod sezalar.

Bundan so'ng har minut tongida,
Fabrikka dengizlar oqadi.
Inqilob har dilning ongida...
Baxt qushi qanotin qoqadi.

Tingladim, yoqimli kuylarni,
Men o'pdim turmushning yuzidan.
Yo'lladam bir to'plam gullarni,
Ularga, yosh o'zbek qizidan.





O'LKA

Men dunyoga kelgan kundanoq
Vatanim deb seni, uyg'ondim,
Odam baxti birgina senda
Bo'luriga mukammal qondim.

Qulog'imga noming kirganda
Qumliq kabi tashna boqurman,
Sening jannat vodiylaringdan
Nahrlarday to'lib oqurman.

Bilsinlarkim, yo'ldoshim bo'lmas,
Ko'zda yoshi bilan kulganlar,
Tillari bor, o'zları hayot,
Lekin yurak-bag'ri o'lganlar.

Har aytganing buyuk jangnoma,
Qayga desang qaytmay keturman.
Ko'zlarimni yuınmasman aslo –
Daryo kabi uyg'oq o'turman.



BAHORGА YETGANDA

Tongda oppoq bulut xayolimda,
Qip-qizil loladan nishon taqdi.
Yoki dildan kulib hayot uzra,
Oltin ilhom sochib quyosh boqdi.

Ko'k mayin novdalarda qor – parlar,
Inja ruhim-la o'ynashib qoldi.
Inja ruhim-la o'ynashib gullar
Oqshom oydinda uqlashib qoldi.

Uchdi kapalaklar va adashdi,
Ma'sum yana gul shoxida, ma'sum,
Ma'sumcha... chamanlar sari oqdi,
Har maysada bir jonli tabassum.

Gul ko'lkasi gulxan kabi qizg'in,
Qizg'in... yana sayraydi dutorlar...
Sayraydi... tubanlarda bahorlar...
Injitmadi ko'nglimni-da bir kun.

Yumshoqqina ko'k parda yopingan
Tog'lar, ana... Rohatgina uxlар.
Cho'pon ila qo'y, – turna qatorlar
Kezmakda uning bag'rida tunlar.



O'RIK GULLAGANDA

Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Novdalarni bezab g'unchalar,
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo'lar takror,
Har bahor ham shunday o'tadi,
Qancha tirishsam ham u beor
Yillar memi aldab ketadi.

Mayll deyman va qilmayman g'ash,
Xayolimni gulga o'rayman;
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi deya so'rayman.

Yuzlarimni silab, siypalab,
Baxting bor deb esadi yellar,
Etgan kabi go'yo bir talab,
Baxting bor deb qushlar chiyillar.

Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so'ylar roz,
Men yurganda bog'larga to'lar
Faqat baxtni maqtagan ovoz:


«Mana senga olam-olam gul,
Etagingga siqqanicha ol,



Bunda tole har narsadan mo'l,
To o'lguncha shu o'lkada qol.

Umrida hech gul ko'rmay yig'lab
O'tganlarning haqi ham senda,
Har bahorni yig'lab qarshilab
Ketganlarning haqi ham senda...»

Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...





BAHOR

Husn qo'shib har kun husniga,
Tabiat chaqirar o'z quchog'iga;
Har kun kiyib yangi bir libos,
Chaqirar o'zining yoshlik chog'iga.

Tinmay esar har tomonga yel,
Qo'ymay sochar o'rikning gulin,
Daraxt shoxlarini silkitar,
Uyg'otishga boshiar uni tun.

Bulbul sayrar, chumchuq chlrqirar,
Xabar berar asli – zotidan,
Gulga qo'nib qattiq so'ylashar,
Qish paytining xotirotidan.

Tinim yo'q, har nafas sep yozar,
Bahor yechib o'z tugunchagin,
Tongi kurtak, oqshomi g'uncha
Sahar turib ochar chechagin.

Dala yuzin qoplar chechak – gul,
Kulib chiqar yorib yer tegin,
Zanggor ko'zlariga to'lar nur,
Shudring bilan yuvar kiprigin.


Yangidan jonlanar koinot,
Hayot boshlar kolxozi yerlari,
Kollektiv kuch bilan gurkirar
Adirlari, cho'li, qirlari.



Mehnat zavqi tutar o'lkani,
Sahar ketar cho'pon tog'iga,
Biri ariq qazir, yer haydar,
Biri gul o'tkazar bog'iga.

Har yaproqni ayab o'stirar,
Ishqqa to'lib chlqar nahorga,
Shoir boshlar yurak she'rini,
Sevgisini ochar bahorga.

Bag'ringga tort, quchoqla, bahor!
Jozibalar barchasi sening.
Ishga kirgan, gullagan chog'i,
Sen yoshligi buyuk o'lkaning.







* * *

Tinimsizdir yolg'iz shaboda,
Maysalarning sochi silkinar,
Mana, hozir chirqirab turgan
Parrandalar, qushlar ham tinar...

Hamma uxlар va faqat tunni
Mening o'zim qarshi olurman.
Qarshi olur va tongga qadar
Mening o'zim uyg'oq qolurman.

Qulog'imga sekin shivirlab
Tun uyquni o'rgatar menga,
Bo'lganmisan tunda sahroda?
Bo'lmasa kel, so'ylayin senga...





HUJUM GULIGA

Bu kunlar pok, ipak nurlar,
Nafis tanlar-la o'ynashdi.
Otar to'lqin, dengiz erkin,
Chechak lablar sevinch ochdi.

Ko'rinding chayqalib, o'ynab,
Oqib oppoq ko'piklar-la;
Ichib oltin shafaqlardan
Kezib yulduzli yo'llarda.

Tushunchang qo'lda sinmas soz,
Ko'kar, cho'llarda yaproq yoz.
Kularkan lolalar, gullar,
Ko'ngillardan sochilsim noz.

Bahor sen, g'uncha – gullar-la
Ochil, erkincha ko'krak ker!
Yozay ko'ksingga dillar-la
Chechaklardan to'qilgan she'r...





O'TARKAN

Yel uchar choqda maysalar dengizi
Egilar, raqs etar, kular kabidur.
Kecha kulganda nozli Volga yuzi,
Egilib, jilmayib, go'zal ko'rinur.

Katta ko'prik balanddi, suv cheksiz
Oynadan oq ko'pik ko'rib turamiz.
Vahmalar dilda yo'q, kulib turamiz,
To'lg'onar bir sevinch bilan dilimiz.

Kecha oydin, hayot kulib turadi,
Volga erkin, ipak ro'moli bilan
Buralib, erkabal xayoli bilan
Inja bir she'r bo'lib oqib turadi.





SIYOB

1

Ko'kdan
Har kun
Oltin olov to'kildi.
Jimjit har tun
G'ovg'a bilan so'kildi.
Mudragan,
Uxlagan
Har yer jonlandi.
Qish ketdi,
Qor bitdi,
Har novda
Oq, pushti
Chechaklar taqib,
Har ko'ngil
Unlarga zavq bilan boqib,
Bahmal ko'yylaklar-la
Ko'klam boshlandi.

2


Biz shod, quvnoq,
Siyob sari oqamiz,
Har tomonga
Sevinch bilan boqamiz.
Bir yonda:
Yoyilgan
Qo'ylar, qo'zilar,



Kezadi,
 O'tlarni ezadi,
 Boqqanda
 Unlarga
 Xayol cho'zilar...
 Bir yonda:
 Yotadi
 Vayrona mozor,
 Bag'rida
 Yuradi
 Bir gavda:
 Istaydi
 Kechmishdek vafoli bir yor.
 Yastanib yotadi
 Vayrona mozor.
 Biz bir to'lqin –
 Siyob sari oqamiz.
 Yosh dillarga
 Oltin chechak taqamiz.

3

Siyob,
 Go'yo,
 To'lg'an, kulgan yuzlardek,
 Ko'tarilar har nafas.
 O'ynar,
 Istamas qafas,
 To'lqinlar o'tishadi.
 Sezgir, ziyrak ko'zlardek,
 Baland-pastga tushadi.
 Ag'darilib,
 Kashta tikib,
 Tez-tez o'tib ketadi.
 Kim biladi,



Balki, kunda,
Balki tunda,
Kim qaylarga yetadi.
Qancha yo'lmi
Yengib, so'ngra
Kim, qaylarga singadi.
Kichik ko'prik...
Ustunlarga
Suвлar o'zni uradi.
Oppoqqina,
Qo'ng'iroqli,
Kumush chechak bo'ladi.
Ko'prik kichik...
Lekin tetik...
Og'irlikni sezmaydi.
Birni unga,
Birni bunga,
Har tarafga yo'llaydi.

Zanjir kabi,
Ulanishib,
Yigit-qizlar o'talar.
Epchillari,
Tez shoshilib,
Chopibgina ketalar.
Ba'zilari
Qo'rqa-qo'rqa,
So'ng sohilga yetalar.
Ko'lkalari,
Ba'zan kulib,
Ba'zan titrab
O'ynaydi.
Uzun sochlar,
Majnuntoldek,
Egilmakdan to'ymaydi...



Bukun sayil,
O'ynashalar
Yosh qizlar.
Yosh yigitlar
Go'yoki sel,
Ham toshalar,
Uzoq qochgan sukutlar.

Sayil,
Lekin,
Qurban-da yo'q,
Q'am – uzoq,
Yangi, o'tli
Yo'llar uchun
Qo'yalmaydi
Dil tuzoq.
Har dil – xursand,
Har yuz – kulgan,
Sajda qilmay tangriga.
Anglagan ul,
Bosh egmaydi
Uning xoin amriga.

Esadi yel,
Yuksaklarda
Hilpiraydi ro'mollar.
Egadi bel,
Tubanlarda
Suvga serob
Yosh tollar.

Hamma xursand
O'yin... kulgi... rohat...
Soz... musiqa... chaladi...
Har hisni-da



Qitiqlaydi,
Har dildan sir oladi.
Keng bir davra
O'rtasida,
Bir go'zal qiz o'ynaydi.
Ko'zni suzib,
Qoshni kerib,
Tinch turganni qo'ymaydi.
Mayda-mayda
Qadam tashlab,
Qo'shiqlar-la
Qaynaydi.

4

Bukun sayil,
Yosh yurakda
Qolmagandir
Qayg'u hech,
Ey, qaydasiz:
Uyg'un,
Ilhom,
Ketmaymizmi,
Bo'ldi kech!



NEVA XOTIRALARI

Sirli sen, chayqal, ey go'zal dilbar,
Sho'x va o'ynoq qiz albomi yanglig'.
Ko'kragingda hayot degan oshiq,
Ko'p asr sayragan va to'kkан zar.

Dilda nash'a, qo'limdagi nay-la,
Men-da sayray butun tilaklarni,
Jonlatay, so'zlatay varoqlarni,
Ey go'zal, o'ynama, sekin tingla!..

Kuylasa, o'ynasa mening sozim,
Oqsa ko'nglim-la o'ynagan rozim,
Erka qo'yningga iz chizib ketsin,
Sen-la to'lqinlanib, suzib ketsin.

Tingla, men bir qadar-da ta'sirli,
Oqishingla xayol bilan oqdim;
Yuzlaring xol, boqishlaring sirli,
Dilda yaproqni yelpitib boqdim.

Sen hayot shoiri, asrlarning
Sirlarin she'r lila yashatgansan,
Yerni titratguchl kurashlarning
O'tlarin ko'ngling ichra solgansan.

Bir zamonlar... quyosh-da kulmasdi,
G'amgin ellar... sevinch to'kilmasdi.
Lablaringda o'sardi yaproqlar,
Oh... ular, dil uchun egilmasdi.



Eredi yellar, hayot-da uyg'ondi,
Kuchli to'lqin sening quchog'mgda,
O'tli gullar ochlb yonog'ingda
Na'ra tortib, olov kabi yondi.

Har tomon qon, esardi bo'ronlar,
Shonli Avroradan emib nurlar;
Yana tovus kabi qanot yozding –
Oqdi qalbingda qip-qizil qonlar...

Bu tabiat-da bir chevar shoir,
Har nafas yuzlaringga kashta tikar.
Inja, sho'x yel esib-da, o'ynashadi
Tiksa ustingga-da quyosh chodir.

Xayr ey, sevdigim sho'x, o'ynoq qiz!
Lola bir jilmayish-la boqmoqdan,
Ketaman, sohilingda oqmoqdan.
Xayr, ey, oy go'zal va xoldor yuz...



BOLTIQ DENGIZI BO'YLARIDA

Naqadar keng, go'zal quchog'ing bor...
Sho'x qiliq to'lqining-la birgalashib
Keladur o'ynagim suzib, quvushib,
Sen-la shoirligim, hayotim bor.

Boladek har qayiqni erkalashing,
Mehribon, shod, aziz ona kabidir;
Shoir ilhom-la o'ynagan kabidir,
Hech sukutsiz, nashidalik turishing.

Kuchli to'lqinlaring-la mas'ud o'lur
Yel esarkan u, keng, go'zal quchog'ing,
Suv quyunlar uchar, tag'in to'kilur,
Bu sening baxtiyor, chechakli chog'ing.

Naqadar keng, go'zal quchog'ing bor...
Sho'x qiliq to'lqining-la birgalashib
Keładir o'ynagim suzib quvushib,
Sen-la shoirligim, hayotim bor!



BOLALIK


Dunyo ekan...
Chamanzorlar kechib,
Oshib tog'lardan,
Quyoshdan nur ichib,
Qum, o'tloqlardan
O'ynab... kulib...
Armon bilan
O'tar ekansan.

Bola edik,
Tanlar olov,
Qalb qaynoq,
Ko'zlar o'tkir,
Dillar sof,
Erkin-erkin o'ynardik...
Hayot bilan
Qaynar edi
Kuy, qishloq.
Bir yonda tog',
Bir yonda bog'...
Suv sochardi...
Gul ochardi...
Keng ko'chalar...
Uzun yo'llar...
Porlar edi
Sham chirog'...
Suv oqardi,
Qo'ynida
Ko'krak kerib,

Baliq kabi
 Sho'ng'ib yotardik...
 Qizlar o'tsa,
 Orqasidan
 Olma otardik.
 Nurli, oydin kechalar,
 Porlar edi ko'chalar,
 To'planardik,
 «Yashinmachoq» o'ynardik
 So'ng charchardik
 Chumchuq kabi
 Chirqillashni
 Tashlab biz,
 Rohat-rohat
 Qo'zi kabi uxlardik.

Kunlar o'tdi,
 Shahar bizni,
 Olov ko'zli,
 Temir tanli
 Ot bilan
 Ko'kragiga chaqirdi.
 Uzoq ketdik,
 Yo'lda tog'lar,
 Bir tegirmon toshidek,
 Chir aylanib qoldilar.
 U, kishnadi,
 Mag'rurlarcha baqirdi.

Yosh ko'ngillar,
 Poyoni yo'q hislarni,
 Yo'lga sepib,
 So'ng zavqlarga toldilar.
 Yillar uchib ketdilar.
 Ko'p bahorlar



Qanot yozib,
Tilakdarga yetdilar.
Biz shaharning kurash marshin
O'rgandik.

Faqat bazan yo'llarda
Telba suvlar oqalar,
Bizga qarab:
«Kel-kel» deylar,
Quyosh emib boqalar.

Yoshlik esga tushadi.
Ko'z oldimdan,
Bolaligim
Quvlashib o'tishadi.
Xayollarga tolaman...
Oh... unlarni eslab,
Eslab,
Bir nafas jim qolaman.
Lekin, yana
Shovqinlarga
Quloch yozib kiraman,
To'lqinlarda
O'ynab, qaynab
Chappor urib
Kulaman.



QISH

1

Oqshom... Borliq oq dengiz
 To'lqinsiz uxlар...
 Yulduz go'yo oltin qiz
 Jimlikni tinglar...


Past-past uylar, devorlar
 Oq ko'ylak kiygan.
 «Muz tog'i»dek u tomlar
 Tinchlikka cho'mgan.

Tamg'a kabi taniqli,
 Har yerda bir iz...
 Uzoqlarda jiladi
 Uch-to'rt xotin-qiz.

Oy ham zaif boqadi,
 Yuzi qavargan.
 Ma'yus, sekin oqadi,
 Go'yoki tolgan.

2

Quyosh hamon uxlaydi,
 Har yon bulutlar.
 Tarqalmagan oqshomgi
 Mayin sukulalar.



Uchli-kuchli uchadi
Bo'ron – shamollar,
Qor – un to'zib ketadi.
Titraydi tollar...

«Muz tog'»lardan chiqadi
Bir alla sozi, –
Yosh go'dakni yupatgan
Ona ovozi.

Olmazorlar ochganlar,
Ko'pik chechaklar.
Har novdada cho'zilgan
Oppoq ipaklar.

3

Muz siynasin tiladi,
U, zar ignalar,
Parcha-parcha sinadi,
Sadaf tugmalar.

Kirar issiq bir oqin,
Qorlar eritar...
Har yer buloq... yoz yaqin...
Suv oqib ketar.


Ko'k yuzini tutganda
Oltin pardalar,
Bahor bilan yayraylor
Go'dak novdalar.

Qirlar oltin suvlarni
To'ymay ichadi.
Ko'kda oppoq bulutlar
Tinmay ko'chadi.

Oq pardani tashlaydi
Yumshoq baxmallar.
So'ng o'smoqqa boshlaydi
Ko'k, yumshoq parlar.

Men yo'llarda ketarkan,
O'ynab qarayman.
Ilhomimning sochini
Asta tarayman.





HOY, YAXSHI QIZ!

Hoy, yaxshi qiz,
Yaqinroq kel,
Bir-ikki so'z so'zlayin,
Shu holingdan
Ta'sir emgan
Ko'nglimdan she'r kuylayin.
Ravshan, nurli
Ko'm-ko'k ko'zing
Hali ko'pni ko'rmagan.
Kulcha yuzing
Qarilardek,
Qat-qat bo'lib so'lмаган.

Tola-tola
U sochlaring
Quyosh bilan yuvilgan.
Pok siynadan
Sutlar emgan,
Hoy, oydinda
Tug'ilgan –


Na qayg'u-g'am,
Na ko'zda nam
Va na sitam
Sezmaysan.
Hayot bilan
Qaynab toshgan
Ko'ngilni hech
Buzmaysan.
Kipriklaring

Ipak kabi
Ko'tarilgan,
Pir-pir etib turadi.
Pastga tushgach,
Ko'zlaringga
Parda kabi bo'ladi.
Momiq qo'ling
Shimarilgan,
Yupqa ko'yak kiygansan.

Yosh ko'kraging
Ko'tarilgan,
Sen yashashni sevgansan.
U, sho'x, ziyrak
Ko'zlar bilan
Har tomonga qaraysan.
Shirin-chuchuk
So'zlar bilan
Qarashiarni taraysan.

Otang-onang
Seni jondan
Ba vijdondan
Sevadi.
Lekin, afsus...
Anglamasdan
Senga qadah beradi.

Faqat, sen ham talpinasan,
Shodliklarga to'lasan.
Go'yo, erkin
Bir qush bo'lib,
Shoxdan
Shoxga
Qo'nasan.
Ichma singlim,
U – bir zahar,



U – bir o'lim suvidir.
Bir ko'l bo'lgan
U, hayotning,
So'ng yupanish yo'lidir.

Agar ichsang,
Badanlaring
Olov bo'lib yonadi
Ko'kraklaring
Qisiladi,
Ko'zlarining yosh oladi.
So'ngra bir dam hushdan ketib
Jinni bo'lib qolasan.
Ehtimolki,
Sen abadiy
Kurashlardan tolasan.


Qichqir-hayqir!
Otang, onang,
Endi seni tinglasin.
Qadahlarni
Tez uloqtir,
Ular biroz inglasin.
Bo'lmasa qoch,
Zamon senga
Keng bag'rini ochgandir.
Unda yuzmg,
Bir oy kabi,
Bir kun kabi
To'ladi.

U yuzlarda
Sening baxting;
Istiqloling
Kuladi.



QISH KO'CHASIDAN


Yo'llardan zavq bilan kelaman,
Har yon – jim...
Sevinchim
Yonarkan ko'nglimda... yelaman...
... Jilaman...
O'ylarim tarqoqmas,
Ko'zlarim yerkarda tikilgan,
Diqqat-la to'naman,
Xayolim
Qarorsiz tez oqmas.
Oppoqki,
Shu qadar bu qorlar...
Boshlayman,
Tubandan – yuksakka intilib,
Avaylab odimlar tashlayman.
Hamma yoq shu qadar oppoqki...
G'achirlar yerlarda qorlari,
Har tili shu qadar chaxchaxki...
Boshlayman,
Avaylab odimlar tashlayman.
Daraxtlar shu qadar oppoqki,
Oq bulut ko'klardan enganday,
Novdalar, shu qadar oppoqki,
Bulutda cho'milib tinganday.
Qorlardan yo'l ochib kelaman,
Shu sovuq, jonlilik berganday.
Qonlarim
Sof havo emganday,
Oppoq qor ustida jilaman.
Yo'llardan, zavq bilan kelaman.



NIMA BIZGA AMERIKA!

Nima bizga,
Amerika?
Nima bizga,
Uning sur'ati.
Uning tezlikligi,
Kuchi,
Quvvati.
Uning shijoati,
Uning g'ayrati.
Mana biz
Shu qisqa muddat ichida
Shunday tezlik bilan
Yetdik-ki,
Shunday gigantlarga
Ketdik-ki,
Hatto,
O'ylay olmas
Uning fordлari;
Uning rahbarлari,
Uning lordлari.
Bulutlarga
Bosh chiqargan
Amerika
Mana!
Mana o'sha
Badmast gavda,
Qari tantana,
Bukun shunday:
Asabi
Buzilgan
Tomiri

Tolgan.
Go'shtlar
Erib tushgan,
Bir suyak qolgan.
Ildizi chirigan
Bir chinor kabi
Qattiq shamollarga
Bo'yin egadi.
Bulutlardan
Kulib boqqan
U mag'rur tana
Bir karra
Yerga tegadi.
Zavodda
Ish ko'rgan
Bechora ishchi,
Ertangi
Qora kun
Tushin
Ko'radi
Ertangi
Ishsizlik
Ashulasini
Oqshomgi uyqudan
Yodlab turadi.
Rangi so'lg'un uning,
Dilida - alam
Yuragini
Ezayotir
Juda og'ir
G'am.
Kecha
Korxonada
Bir shov-shuv bo'ldi.
Ishdan qaytar ekan
Charchab,




Bo'shashib,
Stanoklar
Go'yo
Boqib,
To'nib,
Termilib
– Erta kelma! –
Degan
Bir qarash qildi.
Ertaga,
Mashinalar to'xtaydi.
Ertaga,
Zo'r zavod
Yurmaydi.
Ertaga,
Qorni och,
Yalang'och
Ishchi,
Bir parcha
Non so'rab
Har yon chopadi.
Taqalsal
Bir joydan
Bir ovqat isi,
Ezilib,
Qo'zg'olgach
Orzu
Havasi,
Bolasi,
Xotini,
Qizi, singlisi, – och bari.
Ovqatmi
Kamlardan,
Qaydan topadi?
Kechasi
U shirin

Xayolga botib,
 Kuchini
 Kimlarga,
 Nimaga
 Sotib,
 Yurgan kunlariga
 Afsus qiladi.
 Balki, u
 Ertangi
 Zabastovkada
 Eng oldin
 Yiqilib
 O'qdan o'ladi.
 Balki, ertaga-da
 Bir parcha nonning
 Havas,
 Ishqi bilan kuladi.
 Mana men,
 Ertangi
 Yoriq kunimning
 Qaydan kelajagm
 Bilaman.
 Ertangi
 Baxtimning
 Ashulasini
 Men o'zim
 Qo'l bilan qilaman.
 Ertangi
 Ashula,
 Ertangi
 Doston,
 Mana shu po'latning
 Ohangi bo'lar,
 Sezgi,
 Shuurlarni
 Safarbar qilgan



Kuylarda
Temirning
Tovushi kular.
Mana bu
Mashina,
Mana bu
Quvvat,
Mana bu
Fabrikam,
Zavodim mening.
Aylanib,
Har kuni
Baxt keltiradi.
Har minut,
Har onda
Mening yuragim
Shu baxtning
Havasim
Emib turadi.
Mana men
Kuchlmning
Bolg'asi bilan,
O'z sinfim ishiga
Olov beraman.
Besh yillik
Kuyiga
Odimlar tashlab,
Minglab yo'doshchlarni
Yetaklab,
Boshlab
Yangi dunyo sari
Yuraman!
Nima bizga
Amerika,
Nima bizga
Uning sur'ati

Uning tezlikligi,
Kuchi,
Quvvati.
Mana biz,
O'zimiz
Safarga turib,
Undan o'tib ketamiz –
Yaratib
Zavodlar,
Mashinalarni.
Cho'yanni,
Po'latni
Izlarga solib,
Undan yo'llimizga
Madad,
Kuch olib,
Oliy tilaklarga
Yetamiz!
Sibir sahrolari,
Ural tog'lari,
Dnepr suvlari,
Neft buloqlari –
Bizning irodaga
Bo'yin egadi.
Bizning irodaming
Po'lat zarbasi,
Qo'l yetmas joylarga
Qattiq tegadi.
Mana men
Amerika sur'ati bilan
Stanok
Boshida
Poyga
Quraman.
To'rt
Minut




Ichida
Qilgan ishini,
Ikki minutlarga
Bo'laman.
Shunday sur'atlarni
Quvib yetdikki,
Shunday qadam boshiab
Chopib ketdikki,
Amerika
Xayol ham qilolmas uni.
Har ishim,
Yurishim,
Turmushim
Mening,
Belgisi
Ertangi
Porloq baxtimning!
Mana shu belgilar
Ostida turib,
Ertangi
Baxtimni
Men chaqiraman.
Po'lat reslarda
Safarga
Yurib,
Uning amalini,
Otim
Atab,
Albat kelishlikka
Majbur qilaman!

1932 – 1941

BAXTLAR VODIYSI


(Farg'ona she'rlaridan)

Ko'm-ko'k,
Ko'm-ko'k,
Ko'm-ko'k...
Ko'klam quyoshidan
Ko'kargan qirlar,
Po'lat yag'rinlarni
Ko'targan yerlar
Ko'm-ko'k.
Salqin saharlarda
Uyqidan turgan;
Buloq suvlariga
Yuzini yuvgan,
Marmar havolarning
Qo'yniga cho'mgan,
Zilol bo'shliqlarga
Keng quloch qo'ygan,
Mustaqillik
Ishqi bilan
Yongan dalalar
Ko'm-ko'k.
Ufqimizning hirslarini
O'ziga tortgan,
Yelkasiga tarix bilmas
G'alaba ortgan.
Ulug' yolda toliqmasdan
Tez ketayotgan
Baxmal qirlar,



Keng bo'shliqlar,
Paxtazor yerlar
Ko'm-ko'k...
Tong pallasi havas bilan
Dalaga oqqan,
Muzday sovuq shabbodalar
Tamiga yoqqan,
Ketmonlari
Kun tig'ida
Yarqirab boqqan;
G'o'zalari
O'sib,
Gullab,
Ko'saklar taqqan;
Bu – tog'larning etagiga
Yozilgan gilam;
Sog' o'pkasi
To'lib nafas
Olguchi bu dam;
Tovushlari kuyga to'lib
Pishqirgan daryo,
Hech g'uborsiz sezilguchl
Bu toza havo;
Butun borlig'i-la
Orzuga to'lgan,
Husnlari qip-qizarib
Yetilgan go'zal,
Tomirlari kuchga to'lgan
Bu yosh navqiron,
Yana yangi o'ljalarga
Otlangan
Karvon;
Zo'r safarga
Ruh berishga
Havoday darkor,

Yangi beshning notasini
 Olgan bastakor.
 Barcha yaproqlari
 Birday ko'kargan,
 Novdalari jonli,
 Bu noyob bahor,
 Qarashlari nurga to'lgan
 Bu ulug' vodiy
 Ko'm-ko'k!..
 Ey, Farg'ona!
 Ey, mehnatkash vodiysida
 Paxtakor – dehqon,
 Ey, o'lkamiz
 Tomiridan,
 Jo'shgan
 Toza qon,
 Salom senga!
 Ey, Qaynardan
 Chiqqan
 Qahramon!
 Salom senga,
 O'lkamizning ko'z qorasiday,
 Gard yuqtirmay,
 Gurkiratib
 Ko'kka ko'targan;
 Salom senga!
 Polosonli
 Haydar kapitan!
 Ko'm-ko'k...
 Ko'm-ko'k...
 Ko'm-ko'k...
 Mehnat-sharaf va shon bo'lgan
 Vodiyilar
 Ko'm-ko'k...
 G'o'za guli bilan



Qalblari o'sgan,
G'o'za yaprog'ila
Qalbi ko'kargan
Vodiylar
Ko'm-ko'k...
Ko'm-ko'k vodilarda
Po'lat izlardan,
Kechayotir qora poyezd
Uchib,
Qarsillab,
Elektrik tomiridan
Oqqan qonlardan
Butun o'lka
Shimirayotir
Chanqab,
Harsillab,
Butun o'lka ishlayyotir
Pishlnib,
Terlab...
Ey, Farg'ona!
Ey, bo'yniga
Qora to'rva
Osgan jonlardan,
Ey, har kuni,
Gadoylikka
Tortgan onlardan,
Ey, tanlarni
Shilib yotgan
Harom tanlardan
Bir yo'lesi ozod bo'lgan azamat o'lka!
Ey, haqqila
Bosh ko'tarib,
Yangi davrga,
Millionlarning keng bag'riga
Ulg'ayib kirgan,

Ey,
 Mushtumzo'r o'sgan yerga
 Elektrikdan,
 Traktordan,
 Kombayndan
 Qo'zg'alish bergen
 Bo'la,
 Yumshoq,
 Semiz,
 Serob
 Siynalarida
 Yangi davr yuraginnng
 O'ti ko'kargan,
 Yuraklari tetik urgan
 Oppoq,
 Momiq tan!
 Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k...
 Dillar
 Havas bilan to'ladi,
 Yuzlar
 Sevinch sepib kuladi.
 To'rt tomoni osmon bilan
 O'ralgan vodiy
 Kundan-kunga
 Husni ortgan oydek to'ladi.
 Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k...
 Yangi kunga chiqqan
 Vodiy oyoqlarida
 Och it kabi,
 Sudralguchi
 Davr o'ladi.
 Ey, Farg'ona!
 Mushkul kunlar bolasimi
 Tishida tishlab,
 Yuvib,



Tarab,
Sevib,
O'pib,
Quchlb,
Opichlab,
Ey, baxtlarni balog'atga
Yetkizgan ona!
Yozilib,
Yetilib,
To'lib yotadi –
Yoppasiga
Yangi kunga
Erishgan Quva!..
Nafaslari to'lib-to'lib
Quloch otadi –
Uyquni tark etib,
Kerishgan uva.
Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k...
Dunyolarni qoyil qilgan
... Uvalar
Ko'm-ko'k!..
Mardchasiga otni surgan
Quvalar
Ko'm-ko'k...
Bu g'olib shtorma tantanasldir.
Bu bizning
Safarning
Zafar sasidir.
Dunyo ostin-ustin bo'ldi,
Yangi dunyoning
Qarashlari o'tkir,
Hujumlari zo'r,
Yengilgan dunyoming bag'rini bosib,
Yulduzga intilgan
Bu davr mag'rur,

Ishonch ko'zi bilan
Olg'a boqadur.
Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k...
Yo'lda katta dovon bor hali,
Qizil sohillarni
Mahkam tutayin.
Shunda dengizlarda
Suzmas yot qayiq;
Baland cho'qqilarga
Ko'tarilganda
Toza nafaslarni
To'la olayik.
Ey, baxtli vodining mehnatkashlari!
Ey, o'lkani
Elektrik daryolariga
Yosh boladek cho'miltmoqchi
Bo'lgan fidokor!
Ey, bolaga toza ko'ylaklar
Kiygizuchi o'rtoq paxtakor!
Ko'm-ko'k vodiylarni
Ko'z qorasiday,
Asra!
Barglariga
Gard ham yuqtirmay!



O'ZBEKISTON XOTIRASI

(*Vera Inberdan iqtibos*)

Men ko'rdim eng go'zal bahor paytini,
Yaproqni ko'kartgan u, tonglaringni;
Menim boshlarimga tegib o'tdilar
Guldasta qo'llari butoqlaringning.

Bahor bog'laridan kuy aytib o'tgan,
Zilol suvlar hali esimda –
Chanqab borib serob bo'lganim –
Dalangga quyoshlar to'shalgan kunda.

Mendan so'ra: dono qurtlarning
Charchamasdan, sira tinmasdan
Go'zal kelinchakmi kiyintirgali
Ipak tikishini endi bilaman.
Sening xotirangni unutmas, aslo,
Menim yuraklarim, O'rta Osiyo!

Uzumzor jannatni men ko'rdim,
Bahor ertasida bog'bon der:
– «Qo'zgol!»
Qishning uyqusidan ko'z ochgan novda
Talpinar shomolda:
– «Mana, meni ol».

Sunbul sochli parqi ochilgan
Lola labli bir qizni ko'rdim,
Kecha grenzavod o'qishga qo'ygan;

Oldida mikroskop, uzun kiprigi
Qarashdan to'sardi ko'zning nurini.

Yaqin bordim,
Gap tashlab ko'rdim:
– «Salom, – dedim unga, – Moskvadan».
U ham javob berdi:
– «Sizga ham mendan»
Qaldirg'och qoshini yana chimirdi,
Suhbat ochar edi ilmdan –
Fandan.
Sening xotirangni unutmas aslo,
Menim yuraklarim, O'rta Osiyo!

Ikki o'ttadagi uzun masofa,
Mening ko'zlarimning nuri-la to'lgan
Ey, O'rta Osiyo,
Sening xaritang
Mening devorimga yopishtirilgan.

Kolxozchilar, shaharlklarning
Uzun qatorida
Quyosh,
Shovqin,
Shon!

Gullovchi vodiydan,
Bo'l bog'laringdan
O'ynab oqar ekan erka Zarafshon.
Choshgoh chog'i dalada bo'ldim,
Lovullaydi tepada quyosh,
Qum yonadir, cho'g' bo'ladir tosh;
Halqumlar quriydir,
Havo issiq, dim,
Chopiqdan bo'shagan kolxozchi bir zum,



Dam olib yotadi, ko'lagada jim.
Hamma narsa safarbar senda,
Har birisi o'z kuyin kuylab: –
Avtomobil,
Arava,
Tuya –
Paxta tashir o'lkami bo'ylab...

Quloching cho'zilgan Afg'onga qadar;
Unda tamom bo'lar bizning o'lkamiz,
Bir siqim tuprogi oltindan aziz.
Soqchi sergak turar chegaramizda;
Mehnat va shodlikning qo'shig'i –
Menim qo'shig'im ham tugalar shunda.

Seni unutolmas yuragim, aslo,
Ey, O'rta Qsiyo, O'rta Osiyo!!!

Yo'lga solar, tutar qo'limdan,
Boshimdadir sening xayoling
Yuraklarda yonar surating,
Go'zalliting, guling, jamoling.



DARYO KECHASI

Daryo go'zal... osmonda yułduz.
Oy suzmoqda adir ustidan.
Soya solgan ko'kdan oq bulut
Fazolarga o'z uyqusldan.

Kecha go'zal, daryo tinimsiz,
Ag'darmoqda soyning toshini,
Dalalarga cho'zib oyog'in,
Qorliqlarga o'rab boshini.

Tog'lar boshi qorga ko'milgan,
Qor ustida oppoq bir tumon...
Tumon xayoliga quyulgan,
Pag'a bulut, feruza osmon.

Tinmay oqar, daryo pishqirib,
Quyi ketar oyli tun bo'ylab;
Soy bo'yidan, daryo tunidan
Vodiylarga hikoya so'ylab.

Daryo to'lqin shamol qo'ynida,
Porillamoqdadir chirog'lar;
Yorishmoqda uning aksidan
Cho'qqilar, adirlar va tog'lar.

Kecha bo'ylab, daryo yoqalab,
O'tmoqdadir katta namoyish;
Kelmoqdadir baland qirlardan.
Yer qo'porgan portlashdan tovush.



Yer qo'porib baland baqirgan,
Qirdan toshar bir kuchning sasi;
Gidromantyor suvidan qochgan,
Shag'allarning so'ngsiz g'ovg'asi.

Soyda shamol... daryoda to'lqin...
Parom suzmoqdadir chayqalib;
O'tmoqdadir ishchi, uyg'oq tun,
Yer va ko'kka g'ovg'a, jar solib.

Tun tinchini buzgan zo'r daryo,
Tovlanmoqda inson qo'lida,
Qurilmoqda buyuk bir bino
Daryo o'tgan o'lka cho'lida.

Dovul qoqib o'tar uygoq tun,
Tayyor bo'lar tongda bosh to'g'on,
Cheksiz shodlik bilan yugurar
Sahrolarning yuragiga qon.

Pishqiruchi vahshiy daryoga
Ko'rsatilar tamom yangi yo'l.
Bosh injener zavq bilan qo'yar
Chirchiq tutgan bir qog'ozga qo'l.

Bo'yin egar daryo amrga,
Oqaboshilar yangi iz bilan,
Injenerlar, ishchi zarbdorlar
Mag'rur kular yongan ko'z bilan.

Tun ham o'tar mazmunga to'lib,
Unutilmas daryoga bu on.
Unutolmas buni hech qachon
Daryodan zo'r va mohir inson.

QIZ

1

Mardliklarga to'lgan o'lkaning
Dalasida, qishlog'ida yoz,
Ko'kda quyosh va bir lochin qiz
Chappor urib etmoqda parvoz.


Po'lat qushlar o'rab atrofin,
Uchmoqdadir bulutdan baland.
Uchmoqdadir qaldirg'ochdan tez.
Butun havo qo'shlig'iga band.

Qanotini qiz yoygan mag'rur,
Osmon osti so'ngsiz, tiniq, keng.
Arzandas, faxri, erkasi –
Ko'kda uchar yuragi elning.

El birgadir ko'kda qiz bilan,
Yuragini olgan qo'lliga,
Ardoqlagan bo'lib jonini,
Ko'zni tikkan qizning yo'lliga.

Yurak o'ynar qiniga sig'may,
Osmonda qiz va yonar quyosh,
El tikilar va sevinchidan
Javdiraydir ko'zlarida yosh.

So'yla quyosh! Nimalar bo'lgan?
Sen chiqqanda birinchi marta?



Bo'lganmikin yer uzra bir ko'z
Ko'rmak uchun seni osmonda.

Sen to'sharkan nuringni yerga,
Nima bo'lgan shu so'ngsiz olam?
Bo'lganmikin bayram va shodlik,
Bosmaganmi yer yuzini g'am?

Odam o'g'li ko'z ochar ekan
Seni ko'rib qadim osmonda,
Ne bo'lgandir, nelar kechirgan,
Qanday sezgi bo'lgandir jonda?

Ko'kda ko'rib o'tning sayrini,
Yorilmaganmikin yuraklar?!

O'z ustida olov nahrini...
Parcha-parcha butun tilaklar!..

Dunyo-dunyo vahm bo'lgandir
Sendan tushgan bir o't parchasi,
Sig'ingandir etib but, xudo,
Topingandir yurtning barchasi.

Unutgandir erkak va ayol,
Kelganini dunyoga qachon,
Sening bilan o'z jahonini,
Shu qadarlik ko'rib charog'on.

2

Parashyutda yonar alanga
Qizni quvgan quyosh o'tidan,
Qiz sayr etar ko'kda va ko'zlar
Chaqmoqdek yugurar ketidan.

Ko'zlar so'rар biri-biridan,
 Savol berur yumshоq tikilib,
 Bilmoq bo'lar qandaydir bir sir
 Ifo etar fikrini kulib.

«Bilasanmi, kim u, o'sha qiz,
 Osmondagi o'sha qaldирg'och?
 O'sha qo'rmas va o'sha lochin,
 O'sha dilbar, o'sha chilvir soch?

Osmon emas, yerda yurishdan,
 Etilgandi bir umr mahrum,
 Chirik turmush uni kishanlab,
 Tiriklayin etgandi marhum.


Harom edi qo'shiq, harom kuy,
 Unga sevgi, go'zallik harom,
 Bir chor devor va zax bosgan uy,
 Hamdard edi bitta pastak tom.

O'tar edi tor uyda kumi,
 Shu bo'larmi qiz uchun odat?
 Bir nomardmng sodiq cho'risi –
 Bo'lmoq emish unga saodat....

3

Eskilikni yengib chiqqan qiz
 Ko'kda qilar baxtli bir xanda,
 Afsonalar, dinlar, odatlar,
 Yerda yotar bo'lib sharmanda.

Parashyutda yonar alanga
 Qizni quvgan quyosh o'tidan,
 Qiz sayr etar ko'kda va ko'zlar
 Chaqmoqdek yugurar ketidan.



BAHRI

Sevintirar xo'p ajab bir hol,
Qanot qoqib uchib kelgan baxt:
Shoyi ko'ylik va g'ijim ro'mol
Yuboribdir unga poytaxt.

Bahri shoshar bosolmay qadam,
O'lchab bo'lmash uning sevinchin;
Tipirchilar yurak tinmayin
Sig'dirolmay shodlikning kuchin.

Qishloqda to'y, dutor, do'mbira,
Bazm tinmas saharga qadar;
Bahri qonmas o'yindan sira,
Xo'roz berar ertadan xabar.

Hamma xursand, hammada shodlik
Yetganiga shundayin damga,
Uzatar Bahrimi qishlog'i
Toshkentdag'i katta bayramga.

Uzatishar Bahrini hamma:
«Biz uchun ham qiling sayohat,
Shaharlarni kezing biz uchun,
Omon boring, qayting salomat!»

Tayyorlanar Bahri safarga
O'zin sezar qushdayin yengil;
Sandig'ini ochib bisotin
Titaboshlar barin birma-bir.

Markazda xo‘p maqtanmoqchidir:
 «Paxta terib sigir oldim» deb,
 Ko‘rsatmoqchi shol ro‘molini:
 «Hur mehnatga qoyil qoldim» deb.

Bahri anglar mehnatning sirin,
 Baxt qidirar halol mehnatdan.
 Oppoq paxta, kollektiv hayot,
 Qutultirar azob, g‘urbatdan.


Bahri yurar dalada doim,
 Har g‘o‘zani etib parvarish;
 Mardlik borar uning ko‘ngliga
 Erkin turmush va mahsuldor ish.

Quyosh chiqar har kun yarqirab,
 Bahri tutar uning qo‘lidan.
 Chiqar yulduz, chiqar to‘lib oy,
 Bari yurar Bahri yo‘lidan.

Tongda turar hammadan burun,
 Sevib ochar dalaga quchoq;
 Quchog‘iga to‘lgan oq oltin
 Xirmonidan o‘zi yasar tog‘.

Paxta terib o‘tar uzun kun,
 Oshib to‘lar uning plani;
 Ishi bo‘lar uning ovoza –
 Doston bo‘lar dong‘i va shoni.

Hamma olar undan namuna,
 Tug‘ar yangi sevgi, muhabbat:
 Erkak, ayol qilishar darrov
 Uni quvib yetishlikka ahd.



Xotin-xalaj tinglashar uni,
Bahri so'ylar qilgan ishidan,
Niyatldan, istiqbolidan,
So'zlab berar to'q turmushidan:

«Paxta berib olaman shoyi,
Paxta berib atlas va kimxob;
Paxta berib olaman baxmal,
Paxta berib boylik behisob.

Paxta ekib solaman oq uy,
Ko'krak ochib quyosh va nurga
Paxta berib to'y qilaman, to'y,
Qashshoqlikni irg'itdim go'rga.

Daladagi hur, halol mehnat –
Shudir baxtim, shudir iqbolim.
Shunga ishqim, mehrimni qo'ydim,
Shunga kelgan g'ijim ro'molim».

Sevintirar xo'p ajab bir hol,
Qanot qoqib uchib kelgan baxt:
Shoyi ko'ylak va g'ijim ro'mol
Yuboribdir unga poytaxt.

Bahri kiyar shoyi ko'ylakni,
Ro'molini o'rар sevinib;
Oynasiga qarar jilmayib,
Hayron bo'lar o'ziga to'nib.

Bahri shoshar bosolmay qadam,
Ol'chab bo'lmas uning sevinchin.
Yurak o'ynar ololmayin dam,
Sig'dirolmay shodlikning kuchin.



Bahri jo'nar tong bilan turib,
 Xursand bo'lib shu shirin damga,
 Bahrini uzatar qishlog'i
 Toshkentdagi katta bayramga.


DO'STIMGA

Ko'z tutadi dalada bahor,
 Buloqlar qaynasin qo'yningda,
 Kutmakdadir el turib nahor,
 Qarzi bordir sening bo'yningda.

Tong otadir o'lkada har kun,
 Har kun chiqar yarqirab oftob.
 Har sof sahar, har bir tiniq tun
 Sharaf ber, deb etadir xitob.

Tong boshlanar dalada, tog'da,
 O'lka solur yuragingga nur,
 Har hodisa, har bir oddiy kun
 Sharaf ber, deb etadir majbur.

Har bir kunda bir buyuk mazmun,
 Quyosh to'kar boshlaringga zar,
 Tojixohlar tongi boshlangan
 Farg'onadan Amuga qadar...



KUYCHINING XAYOLI

Fozil Yo'ldoshga

1

Bu xayol so'ngsizdir, osmon kabi keng,
Bu xayol tugamas hech hali-beri.
Uning boyliklari umrlarga teng,
Hamon belgisizdir boshlangan yeri.

U sira to'xtamas, toshar doimo,
Qilib bo'larmikin uni hech bayon?
Cho'llarda darbadar, tog'larda tanho,
Har kecha yangi sir bo'ladi ayon...

So'zsiz hikoyalar, eng buyuk sirlar,
Birdan tilga kelar daryoday toshib,
Yuzlab qabilalar, o'nlab asrlar
Uning osmonidan o'tar adashib...

2

«Oshiqning fahmidir qorong'u kecha»,
Quyosh uyqusiga to'yib turguncha,
Ko'zi yoshiqlarning bordir yo'ldoshi,
«Yig'lasam holimga yig'lar bir necha...»

Ayriliqqa tushib yig'lar ikki yor;
Birisi intizor va birisi xor,
Sabrlar tugadi, sindi kosasi,
«Q'am bilan sarg'aydi guldayin diydor».

Qirg'oqlarga urar daryo o'zini,
Osmon qurshamishdir tuproq yuzini.



Bahoriy dashtlarga, gul vodiylargal,
Oy Barchin tigmishdir qora ko'zini...

3

Bunda na uy bordir, na tom, na devor,
Dalada o'tadi qish, bahor va yoz,
Tog'larda yo'chini ajaldan saqlar
Ko'llardan qog'olab uchib chiqqan g'oz.

Inson o'rganmagan o'troq hayotga,
Uning-chun vatandir har gulshan gyudi;
Bugun qo'niq ekan shu bahor voha,
Ertaga bir yerga ko'chmakdir yodi.

Karvon yo'lga tushar yuklarni ortib,
Sukunat buzilar qo'ng'irog'idan,
Qullar uyur haydar surini tortib,
Elchiboy oshadi bulut tog'idan.

Dalani tutadi yilqilar, qo'ylar,
Baxmaldan yopilgan o'tovlar, uylar,
Qirq kecha, qirq kunduz tinmayim o'tar
Bovvachcha o'g'ilga atalgan to'ylar.

4

Oyoqlar ostida yastanar soylar,
Qoshiarda charx urib aylanar oylar.
Qullarga amr etar qamchi o'ynatib,
Ekinni bilmagan yilqichi boylar.

«Ot chopsa gumbirlar tog'ning darasi,
Urushda bilinar mardning sarasi»,
Oltoychilik yo'lda qolgan sho'r elning
Ko'rinarmi yulduzining qorasi?



Qora bulutdayin bosib kelar yov,
Alplar davra solar, otlari asov;
El chiqar, faryodi uchar ko'k sari,
Qullar isyon qilar qo'lida kosov...

5

Kuy ko'pdır alamlar butun bir olam,
Uni tashuchilar yashar sahroda,
Kuylarda qaqshaydi faqirlik va g'am,
Kuyning tinglovchisi haydaydi poda.

Kuy ko'pdır, qo'shiqlar shu osmonni
Berkita oladi bulutlar qadar,
Kuy ko'pdır, qo'shiqlar millioncha jonni
Qo'zg'ota oladi, muhtaram padar!

Kuy ko'pdır, har yurak saqlaydi armon,
Kuy aytib doimo qushilar chiyillar,
Kuy berar yurakka hordiq va darmon,
Kuy aytib uchadi bevatan yellar.

Kuy ko'pdır, isyonkor dod kechasida –
Benomus etildi kuychining qizi,
Kuy ko'pdır, kuychining peshonasida
Jazo otryadining tovonin izi.


Dorlarga osildi juvonning eri,
Qo'shiqlar etildi majruh va betob,
Sahroni qoplagan elning shoiri,
Qolib ketdi cho'lda bekitob.

**6**

Endi qo'shiq hurdir, yuraklar bedog',
Qaddini ko'tardi o'lka va odam,
Qo'shiqlar mo'l bo'lsin tetik va quvnoq.
Ota, zamonimiz g'azalxon bir dam.

Dalalar, sahrolar, cho'llar baxtiyor,
Kuy aytib yashaydi manzillar, ellar,
Tinmasdan kuy aytar suyukli diyor
Qo'shiqdan osmonlar, tog'lar gumbirlar.

Kuy aytar bulutlar ichidan inson,
Kuy kerak mardona, juvon hayotga.
Kuy aytar lochinlar o'lkasi – osmon,
Ota, qo'shiq aytgan yetar murodga!



OFELIYANING O'LIMI

1

Orzung bor kuylashga, lekin qalbingdan
Taqalar bir ma'yus va g'amgin sazo,
Qo'yningda bir quchoq oq va nafis gul,
Lekin, ruhing to'la motam va aza.

2

Foyda yo'qdir, go'zal, zolim falakdan
Qancha dod qilsang-u, qancha shikoyat,
Qancha yalvorsang-u qancha to'ksang yosh,
Baribir, alamga bo'lmas nihoyat.

Qancha ma'sum bo'lsang, qancha vafodor,
«Qorday oq bo'lsang-u muz qadar toza»,
Hech zamon kor etmas, shum falak badkor.
O'qilur sevgingga qora janoga.

Nega kerak edi, shu chiroy, shu o't,
Shu yoniq yulduzni ko'zga yashirmoq?
Nega lablaringdan husn oldi yoqut,
Nega siynang bo'ldi qor tog'iday oq?

Husn balosiga kim etdi duchor?
Holbuki busiz ham qanchalar alam,
Holbuki busiz ham qizning boshida,
So'ngsiz musibatlar, dunyo-dunyo g'am.

Holbuki busiz ham qiynalardi jon,
Busiz ham yetardi falokat, azob.
Faqat go'zal emas, hatto hunuk qiz
Ko'z ochib ko'rardi yolg'iz iztirob.

Orzung bor kuylashga, lekin qalbingdan
 Tarqalar bir ma'yus va g'amgin sazo,
 Qo'yningda bir quchoq oq va nafis gul,
 Lekin, ruhing to'lal motam va aza.

Shundayin latofat, shu oq ko'krakka,
 Nahot munosibdir shu g'amgin libos,
 Onang shuning uchun suyunganmidi?
 Nahotki, shu sifat go'zallikka xos?

Javob berib ko'rchi, nomard tabiat,
 Bunchalik go'zalni nechun yaratding?!
 O'zing gunohkorsan, osiysan behad,
 Nechun yaratding-u o'tlarga otding?

Hali sevishmoqdan shumidir ma'no?
 Faqat azob bordir qismatda, nahot?
 Nahotki, sevgiga shudir tamanno?
 Nahot, go'zal uchun faqat, faqat dod!..

3

Hamlet sevar edi, uning qalbini,
 Go'yoki ikki cho'g', ikkita otash
 Bo'lib yondirardi ko'zing tun-kuni,
 U ham qilmas edi bu otashga g'ash.

Hamlet yuragiga berardi hayot
 Sening u otashin, gulbarg lablaring,
 Jasur xayoliga bog'lardi qanot
 Bog'idan bir kezib o'tganing sening.

Faqat netmak kerak, bordir nachora,
 Sevguchi yurakni qurshasa balo?
 Butun olam ko'zga esa qorong'u,
 Balolarga Hamlet esa mubtalo?



Shubha otashida yonar tafakkur,
Dunyo bir g'amxona, «Doniyo zindon»
Yo'qdir yuraklarni yoritgali nur,
Zanjirdadir sevgi, qafasdadir jon.

Ishqiy tug'yonlarga qaynab yurakdan
Chiqalmas bir tovush, bir sazo, bir un,
Etmishdir yerdagi oddiy azoblar
Allaqachonlarkim, Hamletni Majnun.

Hosil bo'lmas murod, hech narsa nasib,
Qancha yig'lasang-u, qancha cheksang oh:
Sevguchi yigitni solmishdir yo'lga
Tunda ertak aytgan bir mudhish arvoh.

Jannat, farishtalar, toza malaklar,
Bir puldir eng ma'sum va eng pok o'pish,
Do'zax ichra Hamlet yonib alaklar,
Butun olam ko'rindi go'yo tush.

Ko'ngil gulshanini qopladi xazon,
Yo'qoldi shunchalik bebahoh sevgi.
Shu bo'ldi bokira, dunyo ko'rmagan
U yoqut lablarning qora taqdiri.

Sevgi ko'klarida uchuvchi lochin
Arshidan yiqildi va ko'hna dunyo –
Butun armonlarni kul qilgan otash
O'zi bo'lib qoldi sevgiga gado.



VIDO

(Bayrondan)

Judo bo'lmash edilar ular,
Badkirdorlar judo etdilar.
Ortiq, qalblar saqlaydi jafo,
Osmondadir haqiqat, vafo.

Shodlik bitdi ularga mangu,
Yoshlik xazon, yashashda og'u.
Ayri yashash degan o'y, xayol
Bo'ldi zahar, og'uli bir hol.

Sevguchilar qalbida firoq,
Kunlar o'tar o'ksiz hayotda,
Qayg'ularni, aslo aritmoq
Mumkin bo'lmash bu koinotda.

Ayriliqda va lekin hamon
Jarohatlar izi saqlanur,
Shunday, dovul urib ajratgan
Ikki qoya zulmatda yonur:

Sho'rliklarni so'ngsiz, beomon
Dengiz qahri ajratib yotar,
Qaldiroqlar urib titratar,
Lekin va na chaqmoq, na bo'ron,
Va na o'tda kuydirguchi yoz,
Na qishdag'i qahraton ayoz.



Bir zamonlar ikkita do'st – yor
Yuragida bo'lgan muhabbat.
Izlarini nobud, tor-u mor,
Halok eta olmamish albat.

Alvido yor! Agar shu balo
Qismatda bor bo'lsa – alvido!
Sen berahm bo'lsang ham, ammo
Men dushmanlik qilmasman – vido!

Quchog'ida shirin, osuda
Uyqu bilan to'lib yotganing,
Yor hislari, aslo ko'zingga
Badnom bo'lib uchramas saning!

Agar qalbim urishlarini
Jindak sezal olsayding – inon!
Shuncha yomon ko'rmakdan mani
Bo'lur eding o'zing pushaymon.

Yurt kulsa ham endi mayliga,
Zarba gali sandadir bu bor:
Men mubtalo bo'lgan baloda
Seni maqtar, menman sharmisor.

Mayli qaro, osiy bo'lay man,
Haq ham beray qarg'amoq uchun,
Ammo, meni quchib o'rgangan
Qollar bilan o'dirmoq nechun?

Sen ishonkim sevgi o'tini
Yolg'iz yillar so'ndira olur,
Achchig' g'azab ikki yurakni
Ajratolmas va ojiz qolur.

Shu sezgi senda ham saqlanur,
 Sevib yorimoq qismatdir menga,
 Bir o'y bilan yuragim yonur:
 Endi doim yotdir men senga.

O'liklarga alamlı faryod,
 Oh, naqadar mudhish bu taqqos?
 Ikkimiz ham hayotmiz, hayhot
 Kunlar o'tar bevalarga xos.

Shirin tili shod etgan chog'da
 Qizimizni erkalar ekan,
 Qizim, otang sendan uzoqda,
 Deya imo qilganingda san –

Payqaganda ma'suma buni,
 Uni o'pu shu onda bedod
 Sevging ichra jannat topganni
 Va xayrixoh bo'lganni et yod.

Agar qizda, tashlab ketganing
 Bir yer topsang padarga o'xshash,
 Uraboshlar yuraging saning
 Va qo'zg'olar manda ham shu g'ash.

Gunohimni bilarsan, balki?
 Majnun bo'lib suyganim, xolos.
 Armonlarim xazon va seni
 Suymak bilan kuyganim, xalos.

Borlig'imni titratding, ishon,
 Kiborlikni sevmas bu mag'rur
 Ruhim seni derdi va bu jon,
 Endi undan albat ajralur.



Hamma bitdi – so'zlardir abas,
Men aytganlar undan ham yomon,
Lekin qalbga biz hokim emas,
Unda orzu cheksizdir hamon.

Alvido yor! Sandan uzoqda,
Har bir mumis narsadan mahrum,
Qalbim azob degan tuzoqda,
Bundan ortiq bo'larmi o'lim?

PUSHKINDAN

(1830)

Tikilaman ko'rganda, darhol
Idrokimni yo'qotib va lol:
Yagona ko'z mening boshimda,
Oy yuzingiz yonar qoshimda,
Agar taqdir ko'rmasa malol,
Ega bo'lsa edim yuz-ko'zga,
Bari bilan qarardim sizga.



CHIMYON ESDALIKLARI

Tog‘da yurar ohu bir juvon,
Sochimni taraydi shabboda,
Menga bugun yaqindir osmon:
Bulutlardan teppamda poda.

Qashqatog‘ning yarqirar qori,
Yonbag‘irda xuddi chumoli, –
O‘rmalayman va borgan sari,
Ochiladi bu holning foli:

Bunda gulning eng asllari –
Baxmal gilam alvon poyandoz,
Tabiatning bor fasllari:
Bahor va yoz qarshimda peshvoz.

Qoyalarda asrlik doston,
Daralarda oppoq, mangu qor,
Cho‘qqilarda otash saraton
Yonbag‘irlar binafsha bahor.


Go‘zallikda tuganmas buloq,
Shamolda o‘ynaydi shalola,
Bahor yurar ko‘chib tog‘ma-tog‘,
Qo’llarida lola piyola.

Yo’llarimda zangori ko’llar,
Oyna kabi tlinq va bejon,
Men umrimda ko‘rmagan gullar,
Nom qo‘yishda ojizdir inson.



Bu go'zaldir, bu ajab bir hol,
Ham vahshiydir, hamda osuda,
Bo'lmasinmi shoir tili lol
Shamol uchib o'ynasa suvda?..

Bolaligim tutdi va bir bor,
Buloq uzra yotdim uzanib,
Va san'atga bormasdan ozor,
Hovuch-hovuch suv ichdim qonib.





HOLBUKI, TUN...

Shag‘irlaydi betinim daryo,
Shag‘irlaydi vahm to‘lgan jar,
Shag‘irlaydi qorong‘i dunyo,
Shag‘irlaydi vodiy, daralar.


Shag‘irlaydi... Bermaydi uyqu,
Xayollarim bo‘lar parishon,
Bir izlanish boshlanar menda,
Tushunchamga yana kirar jon.

Holbuki, tun – bunda odatda,
Butun borliq uxlardi sokin,
Butun yer osmonga o‘ranib,
Olar kabi kunduziday tin...

Soyga tushdim, ko‘kda chiqdi oy,
Nur yog‘ildi oq bulutlarga.
Nurga to‘ldi dara, to‘ldi soy,
Nur yog‘ildi qorong‘u jarga.


Ko‘zlarimda yonar uchqunlar,
Zilol suvgaga oy edi sirdosh,
Yaltirardi, doim tovlanar,
Oy nuriga cho‘milguchl tosh.

Ko‘zni tikdim, parquv bulutlar,
Ko‘char edi zilol va toza.
Lochin kabi samolyot uchar,
Uchar edi solib ovoza.



Tikilgandi ko‘zim qog‘ozga,
Qo‘llarimda yugurar qalam,
Qurshamishdi uni hayajon,
Bir intilish, bir orzu bu dam.

Shag‘irlardi osmon va havo,
Shag‘irlardi butun koinot,
Shag‘irlardi betinim daryo
Shag‘irlardi daryoda hayot...
Holbuki, tun...






JANUB KECHASIDA

Sen bo'lmasang shu och to'lqinlar
Ko'rinmasdi sira ko'zimga,
Sen bo'lmasang o'zimning ko'nglim
Kirmas edi aytgan so'zimga.

Sen bo'lmasang etmasdi xursand
Suv ustida suzib yurgan oy,
Hamisha sho'x, doimo baland,
Yułduzdagi jon yoqar chiroy.

Qarashlaring tinchimmi olib
Chertib ketdi qalhim torini,
Shundan keyin sezdim yurakda
Shuncha kuchlik o'tning borini.

Aytib berchi, shuncha sevganlar
Bo'lganmikin mencha baxtiyor;
Aytib berchi, qaysi qiz burun
Sevib bo'lgan umid bilan yor?



* * *

Kecha. Sahro. Uyqu va shovqin.
Kecha cho'kkан uzoq ufqqa.
Derazadan to'nib qarayman,
Ko'zim cho'mib qorong'iliqqa.

Derazadan to'nib qarayman:
Uyqu bosgan so'ngsiz sahroni,
Uyquda yer, uyquda osmon,
Ko'rinmaydir yulduz nishoni.

Boshlamishdir o'z hayotini
Sahroning ustiga cho'kib tun,
Jimjitdir o'ylanib yotganday,
Kunduzini etgandi yakun.

Sahro yotar so'ngsiz, tep-tekis,
Sahro yotar ajib tush ko'rib.
Undan o'tar tinmay poyezdlar,
O'tar otash yuragi urib.

Poyezd chopar, masofalarni
Qamrab bosar oyoq ostiga,
Dovonlardan, qirlardan oshar,
Tog'liqlarning tushar pastiga.

Poyezd o'tar tunni oralab,
Qushday uchar, uchar bexatar,
Poyezd o'tar qardosh xalqlarning
Do'stligidan berajak xabar...



QORA DENGIZ BO'YIDA


Yog'in ertasi

Bukun kun bo'ladi: tog' tepasida,
Yaproqlar yaltirab turipti,
Yulduz yo'nga chiqib saharda,
Kelayotgan kunni ko'ripti.

Bukun kun bo'ladi: xurmo barglarin
Silkitmoqda yengil shabboda,
Bukun kun bo'ladi, ravshan va bedog',
G'ubor yo'qdir zarra havoda.

Bukun kun bo'ladi: dengiz chayqalar,
To'lqinlarda ora yo'q tinim.
Suv bo'yida turib intizor,
Kun yo'liga tikilaman jim.

Kunga bo'lgan ishqim quyoshga –
Topinganlar ishqidan buyuk.
Kun bo'ladi: marmar va zilol,
Ko'rinishi poyoni yo'q ko'k.



MIZIMTA DARYOSI

Uzoq ketdim Mizimta bo'ylab,
Daryo mening hamrohim bo'ldi.
Uzoq ketdim va chanqoq qalbim
Daryo aytgan qo'shiqqa to'ldi.

Injudayin oqardi zilol,
Vodiylarning bu gul chiroyi,
Tiniqlikning mangu tlmsoli,
Daralarning bu go'zal oyi.

Bu feruza, erigan marmar,
Bu yaltiroq so'ngi yo'q simob,
Sinar edi ustida chil-chil,
Ko'kda turib yonuvchi oftob.

Toshqin edi, pok va muloyim,
Tinim bilmas, mangu zanggori,
Ravon, ma'sum, go'zal va doim
Bokiralik bo'l mishdir ori.

Ko'rinardi yuksak tog'larning
Bulutlarga rang bergen qori,
Oqar edi dara, soylarining
Qizlig'ini saqlagan yori...



SOG'INGANDA

Kabutardek yurak urinar,
Necha kundir sensiz yashadi.
Mana ko'rkim, endi har nafas
Vujudimda o't tutashadi.

Necha kundir yo'qoldi tinchim
Va uyquga etdim alvido,
Necha kunlar, necha soatlar
Xayolingga ayladim fido.

O'tar ekan tunlar va kunlar,
Ayriliqda axtarib visol,
Va tonglarda yakka ham o'ychan
Kezar ekan parishon va lol

Borlig'imni ismingni aytib
Chulg'ab olar bir go'zal xayol,
O'sha jilva va o'sha otash,
O'sha ko'zki, suzgun, xayolkash
O'sha imo, o'sha ishora
Etaboshlar yurakni pora.



HAR YURAKNING BIR BAHORI BOR

Muhabbat-ul u'zi eski narsa,
Lekin har bir yurak
Oni yong'orta...
Hodi Toqtosh
Har yurakning bir bahori bor,
Har bir qalbga
ishq bo'lar mehmon.
Har yurakda gullar muhabbat,
Bo'ston etar uni begumon.
Lekin Layli boshiga kelgan
Qora kunlar bizga yot bugun;
Bizga yotdir shirin baxtini
Poymol etgan u qop-qora tun.

1936

HULKARNING SHE'RI

Qizimga

Muhilt uzra qanotingni yoz,
Oq qushlarning o'lkasida yur.
Dasta-dasta gullar keltirsin,
Sho'x va quvnoq do'stlarga buyur.

Ufqlarda sayr etgin mudom,
Quyosh kelib suvgaga cho'kkanda...
Oy bulutlar orasidan shom
Etak-etak shu'la to'kkanda...

To'shab alvon-alvon gilamlar,
Sening bilan yashnasin bahor,
Sening bilan xush bo'lsin damlar,
Senga doim shodlik bo'lsin yor.

Seni ko'rsa ochilsin gullar,
Seni ko'rsa yonsin bulbullar,
Seni ko'rgan bari topsin jon,
Sen yurgan yer ko'rmasin hazon.



BUTUN OLAM BIR OPPOQ SIYNA

Xayrlashdi... O'zida yo'q shod,
Suv bo'yiga kelib o'tirdi,
Ko'kka ko'krak ko'tarib kushod
Oy qo'ynida o'zini ko'rди.

Ko'zi oydan daryoga qochdi,
So'ylamoqchi edi hikoya,
Suvga qarab labini ochdi
Va ko'rindi jilvagar soya...

Daryo xuddi zilol oyina,
Tasviri bir qiz bo'lgan edi:
Butun olam – bir oppoq siyna,
Ikki qora ko'z bo'lgan edi.

U jim bo'ldi, bir lahza betin,
Ixtiyorin qo'liga oldi,
So'ylamoqchi.... va undan oldin
Soya turib so'z boshlab qoldi.

Oyinaga tikib ko'zini,
Tanib qoldi go'zal o'zini,
O'zi edi suvda uringan,
O'zi edi oyda ko'ringan.

Uyaldi-yu hech gap aytmayin,
Uyga qarab sekim qo'zg'oldi.
Suv bo'yida, oydinda, mayin
Bitta shohi ro'molcha qoldi.



QOZOG‘ISTON

Qozog‘iston – ko‘p nasllarning
Armon bilan ko‘rmay ketgani,
Qozog‘iston – bu bobolarning
Gadoylikda xayol etgani.


Qozog‘iston – bu ma’mur vatan,
Bu ulug‘ xalq erkin olgan tin,
Bir olkaki, butun tog‘i kon,
Tuproqlari sap-sariq oltin.

Qozog‘iston – bu qatlamlari
Ma’dan bilan to‘lib o‘tgan yer,
Bu – Embaneft, bu – boylik faqat
Bu – xazina, Balxash va Redder...

Qozog‘iston – bu, oltin, kumush,
Bu baxt bilan to‘lib oqqan soy,
Qozog‘iston – gullagan turmush,
Bu dunyoni qoplagan bug‘doy.

Bu – saodat, bu – dehqonlarga
Mangu xatlab berilgan yerlar,
Bu tog‘larni, dala-dashtlarni
Joylab yotgan yilqi, uyurlar.

Qozog‘iston – bu qari Jambul
To‘qson yillab kechgan bir umr,
Qozog‘iston – bu Qarag‘anda –
Qazgan bilan, tunganmas ko‘mir.




Qozog'iston – bu kitobxon el
Bu yangi ong, bu savod, bu xat,
Qozog'iston – bu chaqmoq kabi
Yashnab chiqqan bir go'zal san'at.

Bu ezilgan, mazlum Sharq uchun
Saodatga, baxtga ishora,
Qozog'iston – bu Kuzanboyev,
Omongeldi, raqqosa Shora.

Bu erk olib yuksalgan elning
Gul bahori, hosildor yozi,
Qozog'iston – bu jannatga teng,
Bu – Kulashning ipak ovozi.

Qozog'iston – ko'plab nasllar
Armon bilan ko'rmay ketgani,
Qozog'iston – bu bobolarning
Gadoylikda xayol etgani.



BAXTIMIZ TARIXIGA

Qancha bo'stonlar vabo
 ayyomida bo'ldi xazon,
 Zo'r jahannam ichra yondi
 qancha nomus, qancha jon.
 Ne quyoshlar o'tanib tosh
 bag'ridan topdi o'lim,
 Necha daryolarni yutdi
 o't bo'lib yonguchi qum.
 Lekin iqboli chiqolmay
 bitdi taqdir shomidin,
 Qancha og'ular quyildi
 elga qaygu jomidin.

Benavo, tanho Fuzuliy
 zor birla ohida.
 O'rtamib qovrildi doim
 qayg'u otashgohida.
 Ham Navoly bir umr
 ayrilmadi Farhodidin,
 Barcha olamni o'tantirdi
 uning har dodidin.
 Ham qaro kunlar qaro
 tomug'ida yongan kitob,
 Qayg'u yo'ldoshing bo'lur
 deb doimo qildi xitob.

Axtarib o'tdi jahondin
 hech biri baxt topmadi,
 Baxt bahori hech birin
 ustiga baxmal yopmadi.



Kimki baxt axtarsa qayg'u
birla zor oldi haqin,
Kim yashash istarsa unlarga
o'lim kealdi yaqin.
Qancha orzu, qancha armonlar
kuyib bo'ldi ado,
Qancha erlar bir umirlik
g'am bilan o'tdi gado.

Oxiri man o'sgan el
yakson etib g'am tog'ini,
Barcha tilsimlarni ochdi,
topdi rohat bog'ini.
Bir vatankim, bunda yo'qdir
dard va hasratdan nishon,
Bir vatankim, yer va osmonida
odani topdi shon;
Bir vatankim, har gulistonida
mangudir bahor,
Bir vatankim, bunda elning
baxti mangu barqaror.

DARYO TINIQ, OSMON BEG'UBOR

Baxtim borki, har narsa go'zal
Ko'rinati mening ko'zimga,
Vodiylarga quyosh to'kkam hal,
Shuning uchun sarxat so'zimga.

Aybim yo'qdir, gul vodiylarda
Badbinlarni xushlay olmasam,
Ko'kka qarab turib saharda
Shod o'tarman deb ichsam qasam.

Oppoq qordir tog'larning toshi,
Daryo tiniq, osmon beg'ubor,
Shu yerdadir o'lkanning boshi,
Suv bo'yida mening uyim bor...

Bu o'lkada qalblarning toza
Va poklari kelib uchrashar,
Odam topgan baxtni ovoza
Qilib gullar, bulbullar yashar.



TUNNI IZLASH

O'n besh kunga to'lganida oy,
Ko'kka chiqib tunni axtardi,
Orqasidan baland osmonda
Olam-olam yulduzlar bordi.

Tundan hech bir asar chiqmadi,
To botguncha qilsa ham tintuv...
Dunyo yorug' edi va hatto
Yaltirardi soyda qora suv...

Topolmasdan oy tunni, oxir
O'zi botdi. Yulduzlar bir-bir
Uchib o'tdi va ortiq quyosh
Bilan endi yaltirardi yer...

* * *

Shu kunlarda qutb olindi,
Muzlar taslim bo'lib yalindi.
Moskvadan Amerikagacha
Taxti ravon bir yo'l solindi.

Ko'k yo'lidir, unda qanoti
Sinmas bo'lgan lochinlar uchar.
Lochinlari bilan o'lka ham
Yerni tashiab osmonga ko'char.

Qudrati zo'r el uchun osmon
Xuddi yerday osoyish bo'lur.
Bir necha yil mobaynida ko'k
Odam bilan albatta to'lur.



DUNYO GO'ZAL KO'RINUR SENGA

Keltiradi rashkimni doim,
Gulga qo'ngan asal arilar
Allaqanday tuyilar menga,
Yasharuvchi xushbaxt qarilar.

Agar, – deylar, – ko'ngil yosh esa
Oqsoch o'zi bir husn bo'lur,
Ko'krakkacha tushgan oqsoqol
Ko'zlaringga nurday ko'rinur.

Dunyo go'zal ko'rjinur senga,
O'zi qancha eski bo'lsa ham,
Yashararkan butun tabiat,
O'z egasi qo'yganda qadam.

DO'MBIRANING MAQTOVI

Abdulla shoirga

So'z boshlayin endi yaxshi-yomondin,
Ko'zlarimning nuri bo'lgan do'mbiram;
Sen qo'limda, kezib o'tdim jahondin,
Yuragimning jo'ri bo'lgan do'mbiram.

Sendan hech bir mumkin emassovushim,
Sen tog'larda kezgan choriq kovushim,
Sening bilan baland bo'ldi tovushim,
Bilagimning zo'ri bo'lgan do'mbiram.


Sen bor ekan bilinmas to'q va ochim,
Sen bo'lmasang, parvoz etmas qulochim,
Sensiz ekan doim yozig'dir sochim,
Qulligimda cho'ri bo'lgan do'mbiram.

Gulzorimda sen bulbulim Halima,
Sog'inganda yuragim qiyma-qiyma,
Sen bo'lmasang bag'rim bir qonli kema,
Yuragimning jo'ri bo'lgan do'mbiram.

Aylansa-da rangim sarig' somonga
Seni chaldim, xor bo'lmadim yomonga,
Qariganda yetdim yaxshi zamonga,
Yovlarimga bo'ri bo'lgan do'mbiram.

Sen bor ekan har ish kelar qo'lidan,
Sen bor ekan hayiqmasman o'lidan,
Ming o'rgulib tole topgan elimdan,
O'tirganda so'ri bo'lgan do'mbiram.

Sening bilan so'z bermadim man yovga,
Sening bilan birga bordim har ovga,



Sen dingg'illab olib boarding Maskovga,
Ko'zlarimning nuri bo'lgan do'mbiram.

Sen nur to'lа mening oyli tunimsan,
Sen omborda qoplab qo'ygan unimsan,
Sen mehnatda topgan yorug' kunimsan,
Dushmanimning go'ri bo'lgan do'mbiram.

* * *

Rozimasman bir yosh tomsa ko'zimdan.
Rozimasman sal rang ketsa yuzimdan,
Yo'l oshsam-u, sal yashashdan adashsam
Rozimasman unda tamom o'zimdan.

Bog'im bor-u gulzorimda gulim ko'p,
Har yoqda gulshoxlarda bulbulim ko'p.
Men ko'rмаган gulzor qolmas jahonda
Gulzorlarga baxtim bergen yo'lim ko'p.



BAXT TO'G'RISIDA

Har kimga bir «noni-nasiba» –
 Parrandalar o'z haqqin tilar,
 Ko'pni ko'rghan qari dunyoda
 Baxt axtarib ko'plar o'tdilar.

Ko'plar o'tdi, ko'pgina odam
 Taniy oldi do'zaxni, o'tni,
 Dunyo dedi, ko'zni ochdi-yu,
 Lekin ko'rdi faqat tobutni.


Shodlik istar edi barchasi,
 Lekin kelib quchardi motam,
 Xursandlikka zor diydalarda,
 «Shodlik men» deb kular edi g'am.

Baxt axtarar va qora taqdir
 Mazax bilan qilar haqorat,
 Dunyo-dunyo armon va orzu
 Gadoylikda bo'lardi g'orat.

Motam va zor, azob va qayg'u
 Gadoylikning ko'hna yo'ldoshi,
 Inson qalbi ustida yotar,
 Asrlarning muhtojlik toshi.

Baxt topilmas hech bir zamonda,
 El qul bo'lsa, bo'lsa yalong'och,
 Jannatlarni yaratgan odam,
 Natijada o'zi qolsa och.

Quvonch shulkim, tole yor bo'lib,
 Baxtni topgan elni ko'roldim;
 Asrlarning qayg'usin qarg'ab,
 Shodlik va baxt kuyini chaldim.



Elim yashar osoyish va shod,
Olkam o'zi yangi bir jahon;
O'zbekiston nomli bir jannat,
Bog'larida orom olar jon.

Baxt qaynaydi sof buloqlarda,
Damlarimiz o'tar beozor,
Shaharlarda, bog'lar, tog'larda,
Elni quchgan mangu bir bahor.

SAVOL

Kiyintirsam seni bahorga,
Yulduzlarni o'rasam qorga,
Olib kelib oldingga qo'ysam,
Ham yulduzni ham seni suysam;
To tonggacha so'ylasam ertak.

Chechak terib etak va etak,
Oyog'ingga keltirib to'ksam,
Seni maqtab agyorni so'ksani,
Shunda sening ko'nglimg to'lurmi?
Aytganlaring bajo bo'lurmi?..

XAYOLING-LA O'TADI TUNLAR

Bu bir uyqu, behuda bir tush,
Axir bu bir aldoqchi ro'yo.
Mumkinmidir sening sevganining
O'z ahididan qaytganmish go'yo?!

Shu rost esa o'tga tushsin jon,
Yomg'irdayin boshga tushsin g'am.
Yashaganim-bu dunyo yolg'on,
Qasam ichdim: emasman odam.

Nomard ketay, yurakda tug'yon
Shu to'lqindan zarra kam esa,
Nomard ketay, shu otash yurak
Sendan boshqa o'zgani desa.

Nomard ketay, bo'lsa yurak tinch
Va sevgiga bo'lsa nihoya.
Dushman bo'sin menga baxt, sevinch,
G'am buluti boshimga soya.

Har na bo'lay, aylasam jafo,
Sevinchimmi boy berib qo'ysam.
Har na bo'lay, etmasam vafo,
Sendan boshqa birovni sevsam.

Dardlarimga topmayin chora,
Va do'stga zor, dushmanlarga xor;
Mayli bo'lay tanho, ovora,
Mendan qochsin hamisha bahor.



To'lqm borda tinmaklik yo'qdir,
Qirg'oqlarga tegmakdir odat.
Bilurmisan, sevgan kishiga
Sodiq bo'lmoq o'zi saodat.

Kecha-kunduz yulduzlar notinch,
Dam olishni bilmas to'lqinlar...
Seni o'ylash o'zi bir sevinch,
Xayoling-la o'tadi tunlar...



SAMOLYOT

Bolalarga

Osmonlarni to'ldirib
Samolyot o'tib ketdi.
Uming kuchli ovozi
Olamni tutib ketdi.

Ey Vatanim qurgan qush,
To'xta, meni olib ket!
To'xta, bir xat berayin,
Qanotingga solib ket.

Osmonlarda meming ham
Bitta lochin akam bor.
Xatimni ber, o'qisin,
O'qisin takror-takror.

Vatanimiz yoviga
Omon berma, – deb yozdim.
Orden olmasdan turib,
Uyga kelma, – deb yozdim.

Osmonlarni to'ldirib,
Samolyot o'tib ketdi.
Uning kuchli ovozi,
Olammı tutib ketdi.



* * *

G‘uncha yangllig‘ burkanib
ko‘ngling ochilmaydir nega,
Ochilur fasli kelib, bo‘ying
sochilmaydir nega?

Kulgular, xandonlar, sho‘x-sho‘x
qo‘shiqlar qaydadir,
Muttasil bulbullaringga kulgu
kelmaydir nega?

Lolalar, bog‘lar, chamanlar asti
yetmasmi senga,
Bu sening oy yuzlaring shodlikni
bilmaydir nega?

O‘t kabi yongan bu ko‘zlardan
nechun yoshlар oqur,
Ham ko‘ngillar norozilikdan
chekilmaydir nega?

SHODLIKNI KUYLAGANIMNINIG SABABI

Shoirlarni ko'p o'qib chiqdim,
 Bilmaganim qoldi juda kam,
 O'qib chiqdim, chuvaldi fikrim,
 Ko'raverib hammasida g'am.

Fuzuliyni oldim qo'limga,
 Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi.
 Va Navoiy tushib yo'limga,
 Faryod bilan o'rnidan turdi.

Lermontovni tashlamadim hech,
 Axir qo'yib oldim Hofizni,
 Pushkin menga ko'rsatdi har kech,
 Yig'lab turgan bir cherkas qizni.

Shekspirdan so'radim savol,
 Javobini keltirdi Xayyom:
 «Chunki g'amga oshlnodir hol,
 Qayg'i bilan to'lig'dir ayyom».

O'yladim-u uzoq qoldim jim,
 So'ngra savol qildim o'zimdan,
 Daryo kabi toshib sevinchim,
 Yosh tirqirab keldi ko'zimdan.


Shodlik yo'lga boshladi meni,
 Baxtiyorlik bo'ldi odatim,
 Shoir bo'lib shodlik va baxtni
 Kuylamaklik zo'r saodatim.



Chunki elim qayg'uni bilmas,
Chunki yo'qdir vatanda motam,
Ozod xalqim boshiga kelmas,
Endi sira musibat va g'am.

Shuning uchun shodman bir umr,
Shuning uchun shodlik hamdamim,
Har kun ortar ko'zlarimda nur,
Shuning uchun yo'q aslo g'amim.

Men bilaman, dushmanim kimlar,
Sergak bo'lib boqdim yo'llimga.
Chunki xalqim barcha tilsimlar
Kalixini berdi qo'llimga.





VATAN

Bolalarga

Shodligim ko'kka sig'mas,
Bitmas baxtim bor manim.
Meni baxtiyor qilgan,
Shu yengilmas vatanim.

Dushmanga omon bermas,
Har bir askar otgan o'q.
Dunyoda menikiday
Katta va zo'r vatan yo'q.

Yovning o'qi, hech qachon
Askaridan o'tmaydi.
Nishon olsa osmonni
Samolyotga yetmaydi.

Shuning uchun qishloqlar
Kun kechirar erkin, tinch,
Shaharlarning qalbida
Kecha va kunduz sevinch.



LOLA

Bolalarga

Lola boqchaga chiqib
Kechga qadar gul terdi.
Etak-etak to'pladi,
Har kungidan mo'l terdi.

Sochiga gul bog'ladi,
Chakkasiga taqdi gul.
Yelkalaridan tashlab
Gulga ko'mildi butkul.

So'ngra uyga keldi-yu
Birpas yotib dam oldi,
Kiprigi yumuldi-da,
Gul kabi uxlab qoldi.



YANGI YIL ORZULARI

May to'la kosalar solar shovqin,
Yangi yil o'z quchog'iga tortar,
Bormikan shu qadarli quvnoq tun?
Yuragimda hamon havas ortar.

Tushmasa yuzga hech ajmdan iz,
Yana bir muddaoki, hal bo'lsa,
Baxtimiz borho yoyib ildiz,
Umrizmiz bir asr tugal bo'lsa.

Yashnasa bu chamanda dildorlar,
Sevgida sarg'ayishni bilmasdan,
Qayg'uni ko'rmasa go'zal yorlar,
O'n gulim bir guli ochilmasdan.

Bilmasa naslimiz nadir qarimoq,
Yetmaganku zamon ham ellikka;
Tushmasin hech birorta bo'ssin oq
Yengilish bilmagan yigitlikka.



* * *

Kel, ey soqiy! Piyolani to'ldir!
Yigit umrimga yangi yil kirdi.
Shodligim do'stlarimga ma'lumdir –
Yilga yil kirsa, elga el kirdi.

Qadriga yetmaganni bu onning,
Xalq ichinda yuzi qaro bo'lsin!
Ham safil, hamda u moxov bila teng,
Butun olamga mojaro bo'lsin!

Marhabo, yangi yil, omon kelding!
Yaxshi kunlar kutar yana oldda,
Ko'zimizga jahonni ko'rsat keng,
Ko'rayik harna bo'lsa iqbolda.

CHIRCHIQ BO'YLARIDA

Gulshan vodiylarda chaqnaydi ko'zim,
Fikrlar daryodek bosib qilar lol,
O'zining bag'ridan oqqan suvlarning
Orqasidan qarab qolganday Chotqol.


Chirchiq bo'ylarida kezaman hayron:
Ko'zimga Amu ham, Sir ham ko'rinar,
Tabiat sirini o'rgatar menga
Suvning o'yinida bir kimiyyogar.

Elning o'g'llari, mardlar qoshimda,
Men suhbat qilaman olimlar bilan;
Tabiatshunoslar, hikmatchi do'stlar,
Menga o'rgatadi ajoyib bir fan.

Birining qo'lida cho'llarga hayot,
Birining qo'lida daryo tovlanar;
Birining qo'lida semiradi yer,
Va har muz tomchida olovlar yonar.

Bu – Sharqning yulduzi – O'zbekistondir,
O'rta asrlarning Osiyosi yo'q.
Yangi daryolarni sevar o'lkasi,
Bag'ri shodimonlik, baxt bilan to'liq.

Serob dalasida paxta gurkirar,
Tog'larida oltin, bog'larida bol;
Butun qo'shnilarining ko'zlari unda,
Shunday bo'lmoqliqni qiladi xayol.



Qadim Sharqning yeri tashna qovjirar
Katta Farg'onanining suviga muhtoj,
«Madorim ketibdir, o'g'it ber!» deydi,
Chirchiq azotiga telmurib u och.

Navoiy o'tkazgan ariqlar qurg'ab,
Yangi Navoiydan kutmoqdadir suv,
Chirchiq bo'yalariday ko'karsam degan,
Giyohsiz cho'llarning ko'ksida orzu.

Hech ajab emaskim, Sharqning dehqoni,
Chirchiq qurbanlarni ko'rgusi kelsa,
Hech ajab emaskim, suvni ko'rganda,
Ko'z yoshi qon bo'lib yerga to'kilsa.

Men sharqlik shoirman, ko'zning yoshlari
Qo'shiq bo'lganini ko'rgan kunim bor,
Qo'shiq odamlarni jangga tashlagan,
Qo'shiq ko'ngillardan ketkizgan g'ubor.

Hech ajab emaski, Sharqning dehqoni,
Chirchiq qurbanlarni ko'rgusi kelsa;
Hech ajab emaskim, suvni ko'rganda,
Ko'z yoshi qon bo'lib yerga to'kilsa.

Negakim, dardlarga davodir bu suv,
Bu nurlar qiladi ko'zlarni ravshan,
Chirchiqlik shoirda bordir bir armon:
Butun Sharqni ozod ko'rolsam degan.

Chirchiq bo'yalarida yonar chirog'lar,
Qarshimda zo'r dunyo ochadi chiroy.
Qalbimdan oqmoqda bir daryo qo'shiq,
Qor bosgan tog'larning tepasida oy...

1941 – 1944

QO'LINGGA QURQL OL!

Hayot qaynab tong tumonida,
Ko'z ilg'amas el o'rmonida,
Zo'r o'lkaning qaynoq qonida
Hukm surar safarbar bir hol,
Qo'lingga qurol ol!

Ko'rsin desang jahonni ko'zim,
O'ssin desang bog'imda uzum,
Umid bilan o'stirgan qizim
Desang agar, bo'lmasin uvol,
Qo'lingga qurol ol!


Bo'lzin desang dunyo senga keng,
Qolsin desang qo'lingda erking,
Bo'lay desang sen odamga teng,
Bo'lmay desang yovlarga hammol,
Qo'lingga qurol ol!

Olay desang fashistdan qasos,
Qo'lingga ol qilich va olmos,
Yag'riningga vintovkani os!
Qolmay desang aytishganda lol,
Qo'lingga qurol ol!

Yursa agar tomirda qoning,
Aziz bo'lsa bir parcha noning,
Kerak bo'lsa nomus, vijdoning,
Bo'lsang yigit, bo'lsang hamki chol
Qo'lingga qurol ol!



Jon yurtingga bosib kelgan yov
Tog'larin da qilolmasdan ov,
Sen quvganda piyoda yayov
Qochsin desang go'yo qoramol,
Qo'lingga qurol ol!





MOSKVANI MEN BILAMAN!

Tun boshlanar... fashist degan yalmog'iz
 Va quturgan odamxo'rning ko'zi qon,
 Odamzodga o'lim ortib ustiga,
 Kalxatlarday uchaboshlar ko'k tomon.


Yovga qarshi qo'zg'oladi Moskva,
 Shahar kechgan tinchiiq, orom bahridan,
 Har yerda bor bir ulug'vor nishona
 Moskvaning g'azabidan, qahridan.

G'azab bilan qo'zg'oladi butun xalq,
 Tebranadi qari chollar, onalar,
 Yov tashlagan bombalarning izidan
 Chopishadi jasur, qo'rmas bolalar.

To'da-to'da qiruvchilar havoga
 Ko'tarilar «mehmonlarni» kutgani,
 G'azab bilan chayqaladi daryolar,
 Yovuzlarni o'z qa'riga yutgani.

Bulutlarning orasiga yashrinib
 Kelayotgan quzg'unlarni tutar nur;
 Jim-jit turgan maydonlar ham ochar o't,
 Uchib kelgan o'g'rilarni yutgar.

Ko'kdan yerga mukka ketgan dushmanga
 Qabr bo'lar har bir chuqur, har bir g'or,
 Zo'r kelganda qochmoq ham bir hunar deb,
 Qutulganlar ochaboshiar sharmisor.



Moskvani men bilaman... ter to'kib
Zo'r shaharni qurbanlarni ko'rganman;
Odam to'la ko'chalarni aylanib,
Jangchilarning qatorida yurganman.

Esimda bor do'stlar bilan birlikda
Moskvadan Minskiyga o'tganim,
Sovuq qishda oq finlarni yemirgan
Botirlarni vokzallarda kutganim.

Moskvani sen bllmaysan, qonxo'r yov,
Moskvada senga yolg'iz o'lim bor.
Chuqurlarda, g'orliqlarda chirisan,
Qabrga ham, tobutga ham bo'lib zor.

Moskvani qo'riqlaydi butun el,
Ko'kragimiz osmonida zo'r qalqon.
Shuni bilkim, jon uchun jon olamiz,
Shuni bilkim, to'kamiz qon uchun qon.

Lekin seni aslo tirik qo'yaymiz,
Lekin seni qo'yaymiz bu vatanga,
Uzoq-yaqin, ona-bola, yigit-chol –
Hammamiz ham kirishdik qonli jangga!



MENI KUTGIL

(K. Simyonovdan)

Memi kutgil va men qaytarman,
Faqat kutgil, juda intizor,
Kutgil, yomg'ir zeriktirganda,
Meni kutgil, yoqqanida qor,
Atrofingni harorat qoplab,
Yer-u ko'kni chang tutganda, kut.
Boshqalarni uzatgan do'stlar
Kechagina unutganda, kut.
Xat kelmasdan uzoq yerdan,
Yuragingni qllganida qon,
Kutgil, sen-la birga kutganlar
Zerikkandan chekkanda fig'on.

Meni kutgil va men qaytarman,
Bo'lsa hamki, ranging za'faron,
Yoring qaytmas, umidingni uz,
Deganlarga tilama omon.
Mayli, o'g'llm, singlim, validam,
Aza ochsim men yo'q tufayli.
Kutaberib sabri tugagan
Yor-u do'stlar, oshnolar, mayli,
Ayriliqqa berolmasdan tob,
Achchiq-achchiq ichsinlar sharob.
Ko'zlariningga to'lsa hamki, yosh
Faqat sen kut va ayla bardosh.
Meni kutgil va men qaytarman,
O'limlarni qoldirib dog'da.



Ishi o'ngdan kepti desinlar
Kutmaganlar meni u chog'da.
Yot tuyilar kutmaganlarga,
Bunday ajib toleying saning.
Kuta-kuta meni ofatdan
Omon saqlab qolaolganining.
Qanday omon qolganligimni,
Yolg'iz senga aytarman, sirdosh,
Kutaolding meni sen faqat,
Buyuk edi sendagi bardosh.





NIHOL

Sen o'tkazib ketgan nihol
O'sib bo'yingday bo'ldi.
Novdalari barg chiqardi,
Boshi gulga ko'mildi.

Bog'imizda gul ko'p juda,
Juda ham ko'p nihol bor.
Lekin uni yorim ekkan,
U eng aziz yodgor.

Qachon seni ko'rgim kelsa,
Tikilaman o'shangan,
Ko'p narsalar aytgan kabi
Qarab turadi manga,

Savolimni tushunganday,
Silkinadi u sekin,
Sog'inibsan bechora deb,
Entikib olaman tin.

«Zoriqtirmay kelsangchi hir
Intizor qilding buncha...»
Deb yaproqlar tebranadi
To charchab uxlaguncha.

Quyosh chiqib isitsa ham
Sendursan deb o'ylaydi.
Tunda oy kezib o'tsa ham
Sendursan deb o'ylaydi.



Agar shamol qo'zg'ub qolsa
Titrashadi, keldi, deb,
Yerga qadar egiladi,
Aytganlarim bo'ldi, deb.

Noyob yigit, bosib o't, deb,
To'kiladi yo'lingga.
Gul barglari uchishadi
Tushayin deb qo'lingga.

Yolg'izgina nihol emas,
Butun bog' izingga zor.
Intizordir senga tamom
Olmazor, oluchazor.

Nihol emas, bog' ham emas,
Men senga intizorman.
Ko'zlarimga surtmoq uchun
Jindak gardingga zorman.

Men gullardan, bog'lardan ham,
Sog'inganman ortiqroq.
Ertaroq kel, yurak-bag'rim,
Yovni yengib kel tezroq.



YAQINLIK

Yigit urushga ketdi,
Orqasida yor qoldi,
Yuragi o't ichida,
Ko'zlar xummor qoldi.

Bulbul ketdi, gul qoldi,
O'rtaga tushdi hijron,
Yigit ham sog'inadi,
Yer bag'ri loladek qon.

Kunlar o'tadi sekin,
Yigit ketadi uzoq...
Lekin yorga tuyilar,
Avvalgidan yaqinroq.

Yor faqat xat yozadi,
«Tushimda ko'raman» deb,
Yigit yozar: «Sen uchun
Jonni ham beraman» deb.

Yigit der: «Sen uchun ham
Yovga otar o'qim bor» –
Yer uning kelishiga,
Bog'ini qilar gulzor.

«Men jangda» – deydi yigit, –
«Sen mening yonimdasen».
Unga javob yozar yor:
«Sen mening jonimdasen».

Kaptarlar olib uchar,
Ikki tomon xatini,
Go'yo qo'shgandek bo'lib,
Ikki yor toqatini.



INTIZORLIK

(*Jangchiga*)

Yo'llaringga intizor
Ranglari za'faronlar,
Yovning asoratida
Xor bo'lgan bag'ri qonlar.

Yerda yotgan don buncha
Kutmaydi bahorni ham.
Hech kim bunchalik kutmas,
Eng suyukli yorni ham.

Ota-oná intizor
Sog'-omon kelishingga,
Intizor butun vatan,
Dushmanni yengishingga.

Sen yengmasang bir umr
Daryolarda oqar qon.
Senga va faqat senga
Intizor butun jahon.

SEVGI

Bir tutam gul tutib boqding ko‘zimga,
 Dedingkim: «Esdalik bo‘lsin buni ol...»
 O‘zimni yo‘qotdim, ne deding menga?
 Tutganim gulmidi va yokim xayol?


«Butun yoshligimiz jangdadir bukun,
 Jangda yechilmoqda sevgi qismati,
 Jangdadir yigitlar, jangdadir qizlar.
 Havoda uchadi mahbublar xati.

Agarda qaytmasam shu mendan yodgor»
 Deding-da ko‘rindi ko‘zlarindagi nam.
 «Agar sevar, bo‘lsang unutma zinhor...»
 Uzun kipriklarning ustida shabnam.

Menga ne kerakdir bu yolg‘iz qolish,
 Sensiz ololmasman aslo men nafas,
 O‘limdan og‘irdur sendan ajralish,
 Torgina qalbimga keng dunyo qafas.

Orqangdan qolmasdan jo‘nadim jangga,
 Qo‘zi ketgan kabi qo‘yning izidan,
 Go‘yo quyosh oyni kuzatganiday,
 O‘t bo‘lib orqangdan kezmakdamani man.

Sen otash ichida urasan javlon,
 Dushman qolmasin deb sevgan elimda.
 Men ham qasos olib to‘kmakdamani qon,
 Elim va yorimning nomi dilimda.



Men yovni qiraman jangda beomon.
Seni axtaraman bir nafas tinmay.
Bir qo'lda qilichim, bir qo'lda qurol,
Sevguchi qalbimda nola qilar nay.

Senga yuborganim otashin bo'sa,
Yengil shabbodadek uchar havoda,
Jang bo'lgan joylardan labingni izlar
Va ba'zan darbadar kezar samoda.

Balki uchrashmasmiz biz endi mangu,
Bo'samiz ham qolar balki sargardon,
Lekin sevishganlar qaytmas o'limdan,
Lekin mangu qolar ikki tomchi qon.

Dunyoda albatta bir o'lmoq borku!
Hech ajab emasdир o'lsak jang aro.
Yov bilan kurashda oqsa qonimiz,
Bo'lmay el oldida yuzimiz qaro.


O'limdan qo'rwmagan erlar qonidan
Juda tabarrukdir qizarsa tuproq.
O'sha qon do'stlarning yoritib yuzin,
Zafar yo'llarini qilsa oydinroq.


Jismimiz yo'qolur, o'chmas nomimiz,
G'alaba to'yida bo'larmiz biz ham.
Aziz do'stlar bilan uchrashib, xandon
Qadrdon ellarga qo'yarmiz qadam.

Go'zal Ukraina dalalarida
Yana avvalgiday tabiat gullar,
Buyuk Rusiyaning o'rmonlarida
Bizlarni yod etib sayrar bulbullar.

Bug'doy boshog'iday ko'kka intilib
Men shunda tuproqdan ko'tararman bosh.
Sening qonlaringdan o'sar qizil gul,
Yoqutga aylanar soylardagi tosh.

Dunyoni yoritar bizning sevgimiz,
Ikkimiz hech qachon o'lmasmiz aslo.
Yor-u do'stlarimiz, sevgan elimiz,
Bizdan rizo bo'lib topar tasallo.





G'ALABA QO'SHIG'I

Fashizm odamizod uchun qora dog' keldi,
Quyosh nuriga qarshi chang bilan to'zon keldi.
O'laksa ustidagi quzg'un bilan zog' keldi.
Yolg'iz mening vatanim baxt o'stirar bog' keldi.

Kunduzni tun deb o'ylab sarhadga keldi o'g'ri,
Ko'rshapalak oxiri otashga keldi to'g'ri.
Tushar doim esimga – o'zbek maqolidir bu:
Kim avval musht ko'tarsa, albatta, qo'tqoq keldi.

Gitlerning ichda qilgan qarg'ishini bilardik,
Yer tagida ilonning izg'ishini bilardik,
G'ofil deb o'ylamasin, har ishini bilardik;
O'rmonda bo'ri bilan sher olishar chog' keldi.

Dushmanning tepasida yozib po'lat qulochin,
Kalxat bilan olishgay osmonda zo'r lochin.
Tarixning hukmidir bu: biznikidir zafar chin,
Quturgan selga qarshi osmon bo'yi tog' keldi.

Hozir bo'lsin fashizm yer tagida chirishga,
Mana biz ko'kka uchdik, tepasidan qirishga,
Odamzod guvohimiz, qoyil qolsin bu ishga
Dushmanlarni yer birlan yakson qilar chog' keldi.



YIGIT


Ko'kda parvoz etsa lochin, yerga kirgay zog'lar,
Kishnagan ot o'tsa cho'ldan qo'zg'olur tuprog'lар,
Qonga to'lgay jangga botir kirsa so'l-u sog'lар,
Sol qilich yov boshiga, qirg'inga keldi chog'lар.

Bag'rimizni qildi qon, yovdan jahonni pok et,
El chekar dod-u fig'on, yovdan jahonni pok et,
Sher yurak ey qahramon, yovdan jahonni pok et,
Zog' agar qolsa tirik olam tanin tirnog'lар.

Yovni uchratgan zamon sen esidan ketguncha ur,
Ham jahannam komiga ul beomon yetguncha ur,
Yetti pushti bu jahondan mangulik ketguncha ur,
Qilmasang shunday agar, ketmas
ko'ngildan dog'lар.

Sen tomirlar ichra qon ham jonimizga jonsan,
Kelmasang ham uyimizga eng aziz mehmongan,
Ham vatanga, ham elingga, dohingga qurbongan,
Sen omon kelgan kuning yerga egilgay tog'lар.

Yovni yeng-u ertaroq kel, xo'p sog'indik o'zimiz,
Qalbimizda muntazirdir eng muqaddas so'zimiz,
Kecha-kunduz intizormiz, yo'llaringda ko'zimiz,
Senga zordir gul, chamanlar, bo'stonlar, bog'lар.



BO'L OMON!

Bor o'g'il, bor, jangga borgil,
Sen yigitlar boshi bo'l,
Ot qo'yib maydonga kirgil,
Mardlar yo'ldoshi bo'l.
Xalqning yovlarga otgan
Bosh yorar bir toshi bo'l,
Bor o'g'il, sen dohiymizning
Bir aziz qo'ldoshi bo'l, –
Qahramonim, arslonim,
Mehribonim bo'l omon!

O'z qo'llng birlan yaratgan
Bo'ston cho'l bo'lmasin,
Muhtasham oliv saroylar
Bir hovuch kul bo'lmasin.
Bu onangning ko'zda yoshi
Qaytadan ko'l bo'lmasin,
Yovni quvgil yurtimizdan
Xalqimiz qul bo'lmasin, –
Qahramonim, arslonim,
Mehribonim bo'l omon!

Yovga san o'tkir qilich sol,
Bag'rini qilg'il yaro,
Yerda ham osmonda quvlab
Boshiga sol mojaro.
Ol qasos, yerlarga yanchib
Qll uni motamsaro,
Yovni yenggan pahiavonning
Nomi ketsin xalq aro, –
Qahramonim, arslonim,
Mehribonim bo'l omon!



SHINEL

Rangging tuproqqa o'xshar,
Sen o'xshaysan kigizga,
Bormasdym seni kiyib,
Yorim bo'lajak qizga.


Marg'ilonda to'qilgan
Yo'l-yo'l shohl beqasam.
Ming marta yaxshi edi
Ichmaganimda qasam.

Lekin seni ustimga
Katta bir g'am kiygizdi,
Singlim, qarindoshlarim,
Otam, onam kiygizdi.

Seni kiygach yo'l oldim
Qonli jang bo'lgan yoqqa,
Tushdim yoshligim o'tgan
Daryolardan yiroqqa.

Kanal qazgan qo'llarga
Avtomat miltiq oldim,
Kirib yangi yo'llarga
O'zimni o'tga soldim.

Taqqanim belbog' emas,
Qattiq kamar belimda,
Yorim tikkan qiyiqcha
Qolaberdi yo'limda.



Kigiz kiyim, seni men
Yorimga alishtirdim,
Yo'limga qarab qolgan
Zorimga alishtirdim.

Toshga bosh qo'yganimda,
Yastiq kabi tuyilding,
Botqoqda yotgamimda
Go'yo to'shakdek bo'lding.

O'rganib qoldim senga,
Yoqib qolding tanimga,
Pushaymon bo'ldim hatto,
Kechikib kiyganimga.

Shuming-chun bir nafas ham,
Seni aslo yechmayman,
Doimiy yo'doshimsan,
Sendan aslo kechmayman.

Agar urushda o'lmay,
Uyimga qaytsam omon, –
Baribir, seni tashlab
Xo'rلامayman hech qachon.

Uyimning eng to'riga
Osaman qilib yodgor,
Shohi to'n kiyganda ham
Qarayman takror-takror.

Agar ulg'aysa o'g'lim,
Kiygizaman unga ham,
Tushmasin deb qaytadan.
Elimning boshiga g'am!

QAMAL QILINGAN SHAHAR TEPASIDAGI OY

Go'zal oy, senga bir gap
Demakka ko'p hayronman.
Bemahal to'lganingdan
Toza ham pushaymonman.

Burun seni ko'rganda
Ochilardi bahrimiz,
Endi ko'rinaqolsang
Qo'zg'oladi qahrimiz.

Chunki, biz shahrimizdan
Chirog'ni o'chirganmiz,
Uyimizni hatto yer
Ostiga ko'chirganmiz.

Bezovtadir elimiz,
Yurtimizga kirgan yov,
Shubha qilamiz, darhol,
Bemahal yursa birov.

Shahrimizni yoritib
Qilganda yovga oshkor,
Ko'zimizga go'yoki
Bo'lasan sirtmog'-u dor.

Kumushday nurlaringdan
To'kilar qora xatlar,
Shu zamon tepamizda
Uchaboshlar kalxatlar.



Yovvoyi yov quturib
Qilar uylarni vayron,
Olim yog'dirar tinmay,
Bag'rimizni qilib qon.

Shuning uchun hozircha
Bo'lмаганинг yaxshiroq.
Shahrimiz tepasida
To'lмаганинг yaxshiroq.

O'yin, kulgi bizda yo'q,
Yurakka dard yutganmiz,
Boshimizga g'am tushib
Shodlikni unutganmiz.

Bir nafas ham orom yo'q
Hattoki qurt-u qushda,
Qizlar erga chiqmaydi;
Erlar bo'lak tashvishda.

Bir chog'lar tepamizda
Sen bo'lganiningda paydo,
Bog'larga chiqar edik
Bo'lgali senga shaydo.

Yorimizning yuzini,
Biz senga o'xshatardik,
Sahargacha tikilib,
Suv bo'yida yotardik.

Sendan boshlar edilar
Qizlar ertak aytganda,
Qarar edilar senga
Yer uzoqdan qaytganda.



O'sha kunlarni qumsab,
Uxlamaymiz tunlari,
Shirin ertakka o'xshar
O'sha kunlarning bari.

O'sha kunlar keladi,
O'sha kunlar ko'p yaqin:
Ertagi tong ko'rinar
Bugungi tongdan yorqin.

Ana o'sha kungacha,
Tishingni qo'y tishingga,
Shunda yuz ming qie bilan
Xabar qilamiz senga.

Unda butun dunyoni
Nurga ko'msang mayliga,
Hatto kunduz kuni ham
Kezib yoursang mayliga.

Unda nuring tegmagan
Birorta in qolsa ham,
Qattiq janjal qilamiz
Yoqangdan tutib mahkam.



O'sha kunlarni qumsab,
Uxlamaymiz tunlari,
Shirin ertakka o'xshar
O'sha kunlarning bari.

O'sha kunlar keladi,
O'sha kunlar ko'p yaqin:
Ertagi tong ko'rinar
Bugungi tongdan yorqin.

Ana o'sha kungacha,
Tishingmi qo'y tishingga,
Shunda yuz ming qie bilan
Xabar qilamiz senga.

Unda butun dunyoni
Nurga ko'msang mayliga,
Hatto kunduz kuni ham
Kezib yursang mayliga.

Unda nuring tegmagan
Birorta in qolsa ham,
Qattiq janjal qilamiz
Yoqangdan tutib mahkam.




BO'LSAM

Na bo'lg'ay bir nafas men ham
yonog'ing uzra xol bo'sam,
Labing yaprog'idan tomgan ki
go'yo qatra bol bo'sam.
Butog'ingga qo'mib bulbul kabi
xomish qilib tunlar,
O'pib g'unchangni ochmoqliqqa
tong chog'i shamol bo'sam.
Bo'yingni tarqatib olamni qilsam
mast-u mustag'riq,
O'zimning san'atimga so'ng o'zim
hayratda lol bo'sam.
Sening birla qolib bu mast-u lol
olamda men yolg'iz,
O'zimmi ham topolmay, mayliga,
oxir xayol bo'sam.
Agar bog'ingda gul bo'lmoq
mening-chun noravo bo'lsa –
Ki, ming bor roziman qasringga
hattokim duvol bo'sam.
Boshim hech chiqmasa mayli
malomat birla bo'htondin,
Raqiblar rashkiga ko'krak keray,
mayli, kamol bo'sam.
Kezib sahro-yu vodiylar
yetishsam blr visolingga,
Fido jonimni qildim yo'lingga,
mayli, uvol bo'sam.

KUYGAY

So'zingning sharpasi tekkanda
olam bob-bob kuygay,
Dengizlar, daryolar, hattoki
ko'llarda hubob kuygay.
Kamondek qoshlaring
kipriklaringdin o'q otar doim,
Sening yoding bilan tinmay hama
noz-u itob kuygay.
Yonib ishqingda qalbim kulga
aylansa ajab ermas,
Ko'zing osmonga tushganda
lovullab oftob kuygay.
Olay toqatni qaydin, ko'zlaringga
hech qarolmayman,
Tushubdir uchquning bag'rimga
go'yoki kitob kuygay.



UCHRASHUV

Izingni o'padi sog'ingan yerlar,
Mehr-u vafo bilan qaraydi senga.
Yo'lingga chiqadi Barchin kelinlar,
Qadim dostonlarni solib esingga.

Sochlari oqargan, tugagan bardosh,
Yo'lingga chiqadi rangi za'faron.
Boshini silaysan ko'zlarining yosh,
Hali qurimasdan chakkangdagi qon.

Fashistning bag'rini teshgan nayzangni
Birma-bir surtarlar o'z ko'zlariga,
Oryol shahri uchun sen qilgan jangni
Yillarcha so'zlarlar yosh-u qariga.

Izingni o'padi sogingan yerlar,
Mehr-u vafo bilan qaraydi senga.
Yo'lingga chiqadi Barchin kelinlar,
Qadim dostonlarni solib esingga.

SEN TUG'ILGAN KUN

Bukun sening tug'ilgan kuning,
 Bukun uying to'ladi gulga.
 Nima qilay? Men uzoqdaman,
 Xayol bilan tushaman yo'nga.

O'n to'qqizga chiqasan bugun.
 Uzoqdaman. Yo'q menda toqat.
 Og'ir jangga ketayotib ham,
 Yolg'iz seni o'layman, faqat.

Senga tomon talpinib qalbim
 Bir qush bo'lib uchar havoga:
 Men ketidan qarayman hayron
 Ikki ko'zim to'nib samoga.

Eshikka chiq shu soat sen ham,
 Meni eslab osmonga bir boq:
 Yulduz to'la ko'kka bir qara,
 Havoga sol bir nafas quloq.

Yotog'ingga qo'na olmasdan
 Parvonadir bir qush boshingdan
 Charx uradi ko'kda u tanho,
 Nimalardir so'zlar qoshingda.

Qutlash uchun kelganlar, mayli,
 Orzularin aytib bo'lsinlar,
 Hamma senga tilak tilasin,
 Sharob ichib mast bo'lsin ular.

Shundan so'ngra sen qadah ushlab,
 Xummor ko'z-la boqqil samoga,
 Tingla, qushning ezgu orzusin,
 Quloq bergen, mayin navoga.



Qush deydiki: «Ey to'lishgan qiz,
Jangda yurgan yoringdan salom.
Sening uchun urushga ketgan
Nomusingdan, oringdan salom».

Qush deydiki: «Yoshing hech qachon
O'n to'qqizdan oshmasin aslo,
Yigit seni juda sog'ingan,
Yorim, – deydi, – shoshmasin aslo.

O'n to'qqizdan oshmay tur, go'zal,
Yigit sendan shuni so'raydi.
Yigit seni mehr, sadoqat
Va ishq guli bilan o'raydi.

U keladi, albat qoshingga,
Elga shodlik olib keladi,
Elga shodlik, omonlik va baxt
Olib, dovrug' solib keladi.

Seni tinmay eslaydi yoring,
U doimo sodiqdir senga,
O'n to'qqizdan oshmay kutib tur,
U loyiqdir muhabbatingga».

«Shoshilma» deb qush so'zlar yana,
Parvonadir qoshingga hamon:
«Qizga bundan yaxshi fasl yo'q,
O'n to'qqizdan oshma hech qachon!»

Yotog'ingga qaytasan sen mast,
Ko'rgan kabi go'yoki bir tush.
Mening qalbim bo'lib ko'rinar
Senga shuncha so'zlar aytgan qush.



UKRAINANI O'YLAGANDA

(Pavlo Tichinadan)

Derazamda qavat-qavat muz,
Osmonda oy suzadi sokin.
Og'ir, jimjit cho'kib yotar tun,
Uyqu kelmas. Vokzalda – yolg'iz.

Parovozlar soladi shovqin,
Uxlalmasdan qo'zg'oldim, nega?
Yo bombalar portlamoqchimi?
Snaryadlar dod solmoqchimi?

Muz qoplagan derazalarga
Oskolkalar yog'ilmoqchimi?
Hech narsa yo'q. Va sayyoralar
Orasida uchmoqda yer ham.

O, vatanim! Ichaman qasam,
Qamish qomat xonimlar qadar
Bejonmassan, mening validam,
Nelar kechdi onanинг holi?

Nelar bordir peshonasida?
Yo'q, yig'i yo'q o'g'il sasida,
Duo qilmas go'dak misoli,
Yonmoqdadir g'am nayzasida.

Ukraina, oh Ukraina!
Bu tunlarda sen o'zing bedor,



O'zing g'amli, sen o'zing bemor.
Qora tunda, chaqmoq o'tida
Yangrab yovga tikmoqdasan dor.

Butun fikrim – xayolim senda.
Ukraina! Ey erk quyoshi!
Oyog'ingda o'g'lingning boshi,
Jarohating azobi menda,
Boshimdadir qayg'uning toshi.

Axir nega chekmayin azob
Tuprog'ingda tug'ilgan bo'ssam,
Emgan bo'ssam sutingni men ham,
Nega bermay azobingga tob?

Bo'lgan bo'sang jonimga malham?
Men o'zimni tutib olganda,
Asta-sekin chiqarib ovoz,
Kuyching bo'lib chalganimda soz.

Ishqing birdan o'tga solganda,
Majnun bo'lib aytgan bo'sam roz?
Men o'ylayman Ukrainamni,
O'z uyim deb qilganim yo'q g'am.

Qayg'irtirmas kichkina kulbam,
Dneprni, butun xalqimni,
Avlodimni o'ylayman hardam,
Xafa bo'lma dodimga biroq.

Og'riganda onaning joni,
Chiqmaydimi bola fig'oni?
Sensiz unga o'lgan yaxshiroq
Va lozimdir to'ksilsa qoni.

Jim... sekinroq... meni xayollar
Olib ketdi senga, onajon.
Uxlalmayman... jimjit har tomon.
Faqat tinmay solmoqdadir jar
Parovozlar vokzalda hamon.

Qurol tashir ular betinim,
Tank, zambarak mening elimga,
Kuch ortdirib mening belimga.
Men ularni kuzataman jim,
Dalda berib g'amgin dilimga.

Sen yovlarning boshini uchir,
Ey jonajon dahshatli qurol,
Odamxo'rlar elidan o'ch ol,
Jahannamga jonini ko'chir.
Hammasinga qiyomat kun sol!


Go'daklarning nedur gunohi?
Ona, unga nima qilding san?
Siynasiga yulduz tilingan,
Bokira, pok qizlarning ohi
Unga oxir bichmasmi kafan?

Ana sho'rlik bir bola bejon,
Yap-yalang'och yotipti qorda.
Ona bilan otasi dorda.
Bu vahshiylik bo'lgan hukmron
Qay zamonda, qaysi diyorda?

Sen ham tutding yovning bo'g'zidan,
Jonini ol, bo'g'aber mahkam.
Go'rga kirsin qonxo'r, muttaham.
To tiz cho'kib yalinmas ekan,
Hech narsadan qaytmagil sen ham!



Ko'nglim shunda topar tasallo...
Osmonda oy suzadi sokin.
Og'ir, jimjit cho'kib yotar tun...
Ko'zlarimda uyqu yo'q aslo...
Parovozlar solmoqda shovqin.





SHARQQA KETGANDA

(«Evakuatsiya» seriyasidan)

Yong'inlar ichidan chlqardi odam,
Bomba tashlar edi fashist beso'roq.
Go'yoki bu dunyo bo'lmish jahannam,
Ko'zlarda otash-u boshlarda tuproq.


«Qo'shnilik rasmini buzarding doim,
Shuning-chun ko'nglimiz edi ko'p g'ashda.
Sening-la do'st bo'lib vafo ko'rdi kim
Yaxshidir o'lmoqlik sen-la kurashda».

Xotinlar, erkaklar g'amli, asabiy;
Chuvab chiqar edi otliq, piyoda.
Uyasi buzilgan chumoli kabi
Chuvab chiqar edi so'ngi yo'q poda.

«Sen bilan hattoki bir go'rda yotmoq
Ulug' jinoyatdir odamizodga.
Senda hech hayo yo'q. Sen bilan inoq
Bo'lmoqchi bo'lganlar qoldi uyatga».

Chuvab kelar edi och-u yarador,
Gilamdek to'shalar yo'llar uzra qon.
Kelar agronomlar, dehqonlar nochor
Qilib o'zi ekkan ekinni payhon.

Halqumlar qurigan, gangigan boshlar,
Bir qadam tuproq ham edi ko'p talash,
Chuvab kelar edi qarilar, yoshlar...
Odam va hayvonlar appa-aratash.



Tuproqqa belangan, diydalar nolon,
Yer-u osmonni ajratar arang,
Quyoshni berkitaolardi to'zon,
Hatto daryolardan chlqar edi chang.

Boshlarda sochlар ham og'ir sezilar,
Malol kelar edi bir qavat ko'yлak.
Og'ir sezilardi ko'zga kipriklar,
Xuddi yo'lни to'sgan qalin o'rmondak.

Birov bolasini yo'qotib shaydo,
Birov judo bo'lgan qarindoshlardan.
Yuzlarcha dengizlar bo'lardi paydo
Ota-onalardan oqqan yoshlardan.

Bola onasini topaolmasdan
Ko'rар odam to'la dunyoni xoliy,
Ona ham chirqirar edi tinmasdan
Inga ilon kirgan chumchuq misoli.

Chuvab kelar edi sonsiz-sanoqsiz,
Hech kim bilmas edi qayga borarin,
Ajabo, shunchalik bola, xotin-qiz,
Shuncha sarson bo'lib toparmi bir in?

Yo'l bosar edilar charchab toliqib,
Barchaning ko'zida jiqqa-jiqqa yosh.
Kunning qizig'ida osmonga chlqib
Ularning holiga yig'lardi quyosh.

Sharqdan G'arbga emas, G'arbdan Sharq tomon
Oqib kelar edi poyoni yo'q sel.
Sel emas, oqardi daryo-daryo qon,
Qon emas, qon bo'lgan necha-necha el.

Qadrdon dalalar deya «qayoqqa?»
Savol so'rар edi yosh-u qaridan;



Tuproq yopishardi yalang oyoqqa,
Ekinlar tutardi etaklaridan.

Oldindan qo'zg'olgan qudratli shamol,
Tinmay to'sar edi ularning yo'lin:
«Qayoqqa borasan, shu tuproqda qol!»
Deya tutar edi ularning qo'lin.

Tug'ishgan daryolar, oshno o'rmonlar
Yig'lab so'rар edi «ayting, qayoqqa?»
Javob aytishlikni bilmasdi ular –
«Ketamiz ko'z ko'rgan, bosh oqqan yoqqa!»

«Baribir biz endi qayga borsak ham,
Bir burchak topilar sekin o'lgani;
Va «tekin go'daklar ko'ziga bir dam
Fashist ko'rinmasa bizga bo'lgani».

«Mayli qaramasa hech kim ularga,
Zoriqtirsa hamki yarim parcha non.
Malol kelsa hamki uy egasiga
Birdan bosib kelgan shunchalik mehmon».

«Bo'lamiz har qanday xo'rliqqa rozi,
Har qanday ofatga beramiz bardosh.
Mos kelar har qanday tosh-u tarozi,
Va lekin fashistga egmaymiz hech bosh».

«Nahotki, yo'q bo'lib ketsa shuncha qon,
Fashist hokim bo'lsa bizlarga, nahot?
Hech qachon, hech qachon, hech qachon!
Quyoshni yengolmas qora zulmot!»

Balladalar

*Erkalanib yotadi
U Vatan tuprog'ida,
Yosh bola yotganiday
Onaning quchog'ida.*

JANGCHI TURSUN

Daryoning yoqasida
 Necha kundir borar jang.
 Bugun yana ne qilar?
 Tursunning boshi garang.

Zo'r janglarning shiddati
 Qildi uni gung va lol,
 Qo'rqib qoldi u, hatto,
 Qochmoqni qilar xayol.

Bugun uning rotasi
 Atakaga kiradi,
 Lekin jangchi Tursunga
 Jon shirin ko'rinadi.

«Olib ketsam bo'lmaydi,
 Qochganim yaxshi tezroq...»
 Jangchi Tursun qochishga
 Ulgurolmaydi biroq.

Pochtalyon onasidan
 Keltiradi unga xat.
 Rota hujumga tayyor,
 Buyruq kutadi faqat.

Xatni sekin ochadi,
 Uni titroq o'raydi.
 Onaning so'zlaridan
 Barg kabi qaltiraydi.



«O'g'lim, sendan xushxabar
Kelarmi, deb ko'z tutdim.
Lekin, ko'p joyni tashlab
Ketipti, deb eshitdim.

Shunda butun tanimni
Yondirib, qahrim keldi.
«To'xtagil!» deb hayqirdim,
Tilimga zahrim keldi.

Qayoqqa chekinasan?
Bormi keraksiz yering?
Ne uchun odam bo'lding
Kelmasang dushmanga teng?

Sening-chun butun elni
Og'ir uyat tutsinmi?
Seni ko'rganda quyosh
Yuzini berkitsimmi?

Ko'chadan o'tganingda,
Yerga qarasinmi el?
Ikki ko'zingga qarab
Tuproq to'zg'itsinmi yel?

Ko'zing tushganda Amu
Ilondek to'lg'onsinmi?
Zarafshon uyatingdan
Yantoq kabi yonsinmi?

Yigit bo'lib dunyoda
Shu uchun yurganmiding?
O'z yurtidan chekingan
Botirni ko'rganmiding?

Xalqing uchun to'kkali
Yo'qmi bir qoshiq qoning?
Vatanning tuprog'idan
Shirin ekanmi joning?

Vatandan boshdan-oyoq
Qochib o'tmoqchimisan?
O'z tug'ilgan yeringdan
Chiqib ketmoqchimisan?

So'ng qayoqqa borasan,
Qayerda topasan joy?
Sargardon qulni hatto,
Topa olmagay xudoy!

Yot ellarda xor-sarson
Gadoy bo'lmoqchimisan?
Qabr uchun kerak yerni
Qarzga olmoqchimisan?

O'g'lim, bu og'ir kunlar
Bir kun o'tib ketadi,
Lekin qo'rroqning sha'ni
Ming yillarga o'tadi.

Shuning uchun jangda mard
Bo'lganing yaxshi menga,
Qochib tirik qolgandan
Ol'ganing yaxshi menga.

Orqangga qarama hech,
Yovni burda-burda qil!
Agar o'q tekkanda ham
Oldimga qarab yiql!



O'rtoqlaring ustingdan,
Mayli, sakrab o'tsinlar.
Yov agar ajdar bo'lsa,
O'shani ham yutsinlar.

Yana bir do'stingga ayt,
Sening yoningda borsin.
Qon bo'lgan ko'ylagningni
Olib, menga yuborsin.

Men uni butun elga
Faxr etib ko'rsataman.
Shahar, qishloqlar bo'ylab
Uni kiyib o'taman.

Hamma desin: «Bu o'tgan
Bir botirning onasi.
Vatan uchun o'lipti
Uning yolg'iz bolasi...»

Rota jangga kiradi,
Tursun boshida zo'r yuk.
Dunyoda hech so'z bormi
Ona so'zidan buyuk?

Miltig'ini ko'tarib
Boradi Majnun kabi,
Ona so'zlarin aytib
Pichirlab turar labi.

Birdan boshlangan hujum,
Ona so'zini deydi.
Oyog'i ostida qum,
Ona so'zini deydi.

O'qlarning yig'isidan
Uchar ona faryodi,
Bomba portiashlaridan
Eshitiladi dodi.

Loylanib oqqan daryo
Onaning ko'z yoshiday.
Boshin egib daraxtlar
Turar g'amgin boshiday.


Ona og'ir va xafa
Ko'rinati Tursunga,
Ko'zini ocholmaydi
Boqa olmaydi kunga.

U nayza sanchishadi,
Sanchiydi olg'a tomon.
O'lim nima bilmaydi,
Ko'rinas ko'ziga jon.

Nemisning o'ligini
Bosib o'tib boradi.
Nayzaga qalpog'ini
Osib o'tib boradi.

Hamon chopib boradi,
Va lekin ko'kragi qon,
Og'riqni hech sezmaydi,
Sira qilmaydi fig'on.

Ming yerimdan teshsang ham
Endi qo'rqlayman, deydi.
Ichgan bilan qoningga
Aslo to'ymayman, deydi.



O't yongan ko'zlariga
Tikilgan kabi hamon
«To'xtama! – deydi ona, –
Chop, – deydi, – olg'a tomon!»

Og'aynilar, o'rtoqlar,
«Sanch!» deganga o'xshaydi,
«To'g'ringdagi fashistm'i
Yanch!» – deganga o'xshaydi.

Nayza sanchar mast kabi,
Nayzasi qip-qizil qon,
Qo'ldagi miltig'i qon
Va kiygan kiyimi qon.

U, yerga yiqiladi,
O'qday uchib borarkan.
Tog'day og'ir qulaydi,
Qush singari yengil tan.

Tanidan buloq kabi
Tinmay qon tirqiraydi.
Tirsagiga tiralib
U atrofga qaraydi.

Ancha uzoq ketipti,
Fashist ham bo'pti tamom
Ufuq ham qizaripti,
Quyila boshlapti shom.


Jangchi do'stlari endi
Daryodan o'tmoqdalar.
Barchasi to'planishib,
Ko'prikm'i tutmoqdalar.




U juda xursand bo'lib
Tuproqqa qo'yadi bosh.
Boshlari qip-qizil qon,
Qo'yo botuvchi quyosh.

O'ldimi, uxladimi?
Endi baribir unga.
Uyqusi o'lim kabi,
O'lim o'xshar uyquga.

Erkalanib yotadi
U Vatan tuprog'ida,
Yosh bola yotganiday
Onaning quchog'ida.





RAKSANANING KO'Z YOSHLARI

Kichkina bir tugunchak
Raksana qo'llarida,
Aylanadi quyunday
Shahrixon yo'llarida.

Kezar tinmay darbadar,
Hech kimga aytmas ahvol;
To shomdan tongga qadar
Davom etadi bu hol.

U tinmasdan qiyshiq, tor
Ko'chalarga kiradi.
Topgandek yana ozor
Cho'llarga yuguradi.

Qo'llda bir tugunchak,
Qattiq bosgan bag'rige.
So'ylagil, ey kelinchak,
Buncha chopasan nega?

Goh soyda, goh ko'chada,
Kezib nelar qilasan?
Bu zim-ziyo kechada
Nimalar qidirasan?

Lekin hech bir gap kirmas
Raksana qulog'iga.
Chopadi, olmas nafas,
Boqmas so'l-u sog'iga.



Qo'lida bir tugunchak,
Uni yashirmoqchimi?
Yo bir umr quyundak,
Darbadar yurmoqchimi?

Uni hech kim ko'rmaydi,
Hamma undan bexabar.
Baribir topolmaydi,
Izlaganda ham agar.


Qattiq uyquga qonib
Yotadi tun quchog'i;
Sora sachrab uyg'onib
Ketadi sahar chog'i.

Og'ir qisib nafasi
Chiqadi tashqariga:
Raksananing xonasi
Ochiq yotipti, nega?

Xonada yo'q o'zi ham.
Sora tamom bo'lar lol,
Hamma sir unga mubham
Keltiradi zo'r malol.

Ne voqea o'tipti?
Bu nima gap, bu ne hol?
Qayoqqa ham ketipti,
Bizning musofir mehmon?

Gangib qoldimi boshi?
Sho'rlik qoldi qayyoqda?
Yo'q-ku hech qarindoshi,
Yurti ham ko'p uzoqda!



Va yoki o'rtamizda
Yomon bir gap o'tdimi?
Yoki ayb ko'rib bizda,
Uyni tashlab ketdimi?..

...Yo sog'inib elini
Bo'ldimi yuragi qon?
Ajabo, qayga ketdi,
Bizning musofir mehmon?

Sora butun hovlini
Turg'izadi oyoqqa,
Hammasi Raksanani
Chiqishar izlamoqqa.

* * *

Nimanidir izlaydi
Raksana hamon tinmay,
Mayin-mayin bo'zlaydi,
Ko'nglida bir g'amgin nay.

Ariq, jarlardan oshib,
Qaraydi devollarga.
Yura-yura adashib,
Suyanadi tollarga.

U bilmaydi ne gaplar
Hovlida o'tganini,
U bilmaydi qo'shnilar
Uyg'onib ketganini.

Sora ko'tarib g'avg'o
Chiqqanini ham bilmas
Dunyoda o'zni tanho
Sezadi u shu nafas.

Qo'lidagi tugunchak
 Unga eng zo'r qadrdon.
 Dunyo, xazina, chechak –
 Bari bir pul shu zamon.

Suyanib bukiladi
 Dala og'ochlariga.
 Tong nuri to'kiladi
 Parishon sochlariga.

Turar hech narsa sezmay,
 Og'ir qarashlari ham.
 Tik turar g'am qushiday
 Ingichka qoshlari xam.


Kiprigini ho'l qilgan
 Shabnammi va yoki yosh?
 Juvonga nima bo'lgan?
 Kim ekan unga yo'dosh?

Ne alam bosgan umi?
 Ulfat bo'lgan qanday g'am?
 Bag'riga bosganini
 Ko'ra olmas quyosh ham.

* * *

Oh, Raksana, bag'ringga
 Nimadir ul bosganing?
 Ne mushkul ish boshingga
 Yana yog'ildi saning?

Bu yolg'iz – tanholikni
 Topding qaysi kitobdan?
 Yashlrasan nimani
 Hattoki oftobdan?



Seming uchun shu qadar
Aziz bo'lgan nima u?
Nega lablaring titrar?
Hamrohing qaysi qayg'u?

Nahot odamizoddan
Uni shuncha yashirsang?
Kechib butun hayotdan
Tunlarda yakka yursang?

Va sen uchun nahotki,
Bir sirdosh topilmadi?
So'ylagali dardingni
Bir yo'dosh topilmadi?

* * *

U, atrofda bir ovoz
Eshitganga o'xshaydi.
Qalb iplarini bir soz
Xo'p chertganga o'xshaydi.

Mast kabi qaraydi jim,
Notamish qishloqlarga.
Ketib xayoli bir zum
Ancha uzoq yoqlarga.

Yo'lda tikilar ekan
Ko'zi tamom tinadi,
Jondan ham ortiq sevgan
Elini sog'inadi.

U elmi eslaganda
Qisilar nafaslari.
Toraygan bo'lib yana
Qalbiming qafaslari.

Xonadoniga birdan
 Fashist bo'lganda ega,
 Partizanlikda qolgan
 Eri kelar yodiga.

O'tadi ko'z oлдидан
 Ko'кка чиққан тутунлар.
 Кичкина Vova bilan
 Qishloqdan чиққан тунлар.

Ey, onam ko'milgan yer,
 Nega buncha yiroqsen?
 Kul bo'sang ham baribir
 Men tug'ilgan tuproqsen.


Ey o'g'lim tug'ilgan el,
 Qanday qilay sog'insam?
 Yetarmidim men yengil
 Xayol qushiday bo'sam?

Lekin men yetolmayman,
 Boshimga tog' yiqilgan...
 Hech narsa deyolmayman
 Bu kecha... Vova... о'lган...

* * *

Oppoq tong tumanida
 Kimlardir izg'ishadi.
 Ko'п sirlar gumonida
 Baland-pastga tushadi.

Raksanani izlashar –
 Ular oldida Sora.
 Jonsarakcha so'zlashar
 Qilib ming xil ishora.



Qayerda ham qoldi, der
Bizning musofir mehmon?
Hammasi ham afsus yer,
Topolmasdan bir nishon.

Charchamay izlamoqdan,
Sora ichadi qasam,
«Taom o'tmas tomoqdan
Raksanani topmasam».

* * *

Raksana ko'zlarini
Tikadi tugunchakka.
Yosh yuvib yuzlarini,
Dodi chiqar falakka:

«Seni men qanday qilib
Tuproqqa topshiramen.
So'ngra tiriklay o'lib
Qanday qilib yuramen».

Soyning katta toshiga
Bosh urib suvlar kuylar.
Raksananing boshiga
Keładi ming xil o'ylar.

Uni bosar talvasa,
Yana ortadi zori:
«Bu yerda qayda bo'lsa
Kristiyan mozori».

Musulmonlar bolamni
Qo'yarmi o'z yeriga.
Yo taqdir, muncha meni
Uloqtirding sen nega?

Raksananing lablari
 Nimalardir pichirlar.
 U, mozorga kiradi,
 Ko'nglida qancha sirlar.

* * *

Qarshisiga mozordan
 Peshvoz chiqadi bir chol,
 Qoshlari ham oqargan,
 Ko'kragigacha soqol.


Qo'lida bir tugunchak,
 Raksana turar titrab,
 Tili utilgan andak,
 Aytolmaydi biron gap.

– Salom, – deydi, – jon qizim;
 Yerga egiladi chol.
 Bir narsa sezganday jim
 Va bermas hatto savol.

«Bolamni ol, otajon,
 Muqaddas mozoringga;
 Bilki, keldim, begumon,
 Panoh tutib men senga».

Chol yig'laydi, mildirab,
 Ko'zidan keladi yosh;
 Kipriklarida ko'lob,
 Tugalar sabr-u bardosh:

«Bilsang, mening ham o'g'lim
 Qoldi sening yeringda.
 Bor mening ham bir qabrim
 Sening sevgan elingda.



Bu urush ko'p xalqlarning
Ozorini ham qo'shdi,
Taqdirini qildi teng,
Mozorini ham qo'shdi».

Bolani ikki qo'llab
Ohlsta oladi chol.
Go'yoki chanqab, cho'llab
Xo'p o'padi bemalol.

«Bu tuproq endi senga
Ona qizim, yot emas.
Ukrainani ham menga
Hech kim begona demas».

Ko'z yoshi buloq-buloq
Chol nimadir o'qiydi.
«Yo omin, endi tezroq
Dushman yo'q bo'lsin», – deydi.

* * *

Bir to'da odam bilan
Bo'lib toza ovora.
Mozor boshliga birdan
Yetib keladi Sora.

Raksanani bu holda
Ko'rib qoladi hayron:
Zo'r izardob bor cholda,
Yig'lar musofir mehmon.

Sora o'zini bilmay
Raksanaga tashlaydi.
Hamma o'zin tutolmay,
Birdan yig'lay boshlaydi.



Yig'i-sig'ilarini
Eshitmaydi yosh go'dak.
Va yumib lablarini,
Yetadi go'yo chechak.

Chechak emas u aslo,
Ochilmagan bir g'uncha,
Uni uripti balo
Gul bo'lib ochilguncha.


Yotadi manglayi keng,
Jon yo'q kipriklarida,
Qimirlash yo'q bolaning
Momiq bilaklarida.

Yotadi u beozor,
Yozib qulochclarini.
Faqt shabboda zor-zor
Taraydi sochlarini.

Raksana qaraydi-da
Hasratlari oshadi.
Tong qushlari havoda
Uchishib yig'lashadi.

Vovani qo'yadilar
Ular qora tuproqqa,
So'ng yana boshlaydilar
Uvullab yig'lamoqqa.

Ularning boshlarida
Uchadi ko'p kabutar,
Raksana yoshlarida
Aks etadi bexatar.



O, Raksana, ey sanam,
Yutding zahar-zaqqumlar,
Osiyoda bo'ldi nam
Yoshlaringdan ko'p qumlar.

Ajab emas bezavol
Bu qumlarda gul unsa,
Manzil topsa bema'lol
Hayot qushlari qo'nsa.

* * *

Qorong'iliq yo'qolib,
Tong tamom yoyiladi.
Dunyo nur ichra qolib,
Quyosh bilan to'ladi.

Odamlar uylariga
Qaytishadilar shunda;
Va go'yoki hech narsa
O'tmaganday bu tunda.

1944

Dostonlar


*Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko'p ertak eshitgandim.
So'ylab berardi buvim.*



OYGUL BILAN BAXTIYOR

I

Bolalik kunlarimda,
 Uyqusiz tunlarimda,
 Ko'p ertak eshitgandim,
 So'ylab berardi buvim.
 Esimda o'sha damlar:
 O'zi uchar gilamlar,
 Tohir-Zuhra, Yoriltosh,
 Oyni uyaltirgan qosh.
 O't bog'lagan qanotlar,
 Beqanot uchgan otlar.
 Baxtiyor bilan Oygul,
 Qiz bo'lib ochilgan gul.
 So'ylaguvchi devorlar,
 Bola bo'p qolgan chollar...
 Buvimning har qissasi,
 Har bir qilgan hissasi,
 Fikrimni tortar edi,
 Havasim ortar edi.
 Timglar edim betinim,
 Uzun tunlar yotib jim.
 Seza olardim kuchin,
 Ko'pi yolg'on, ko'pi chin.
 Ammo Oygul-Baxtiyor
 Ertagini u takror,
 Qilar edi har kechin.




II

Jambil degan tomonda
Juda qadim zamonda
Qullar isyon qildilar.
Jangga kirib qo'shinlar
Urushib oy-u kunlar
Dunyoni qon qildilar.
Tinchlik tugab och elda
Mamlakat qoldi selda.
Dahshat ichra yonib xon
Har tomon qildi farmon.
To'xtamay dovul qoqdi
Maydonlarga o't yoqdi.
O'z holiga qilib or
Tikib qator-qator dor.
Ko'zlariga to'lib qon
Zambaraklar bo'shatdi.
Tani zaharga botdi.
Jambil eli ko'p zamon
To'polon bo'lib yotdi.
Bir g'azab ichra joni
Jambilning zolim xoni
Kechar elning qonida.
Qullarning isyonida
O'tardi oy-u kunlar
Qonga g'arq bo'lib tunlar.
Chayqar og'riq boshini
Ochlar to'kib yoshini
Olishardi kun-u tun.
Yalang'ochlar ham bugun
Berardi maydonda jon –
Talab qilib haq va non.
Aslo qo'rqlmay o'limdan

O'ch olardi zulmdan;
 Sira qilmay andisha
 Chopardi qo'lda tesha;
 Birovi ushlab kasov
 Savalardi kelsa yov.
 Boltasi bor birining –
 O'lim kelmas unga teng.
 Agar duch kelsa shu
 Ag'darardi bo'lsa tog'.
 Cho'ri bo'lgan otinlar
 Qul atalgan xotinlar;
 Kumushday oppoq soqol
 Ko'kragini bosgan chol
 Yosh go'daklar, juvonlar
 Navqiron pahlavonlar
 Jon olardi berib jon.
 Va qancha-qancha qurban
 Yotar edi qoq yerda
 Tanlari burda-burda.
 O'tib yuzlab-minglab yil.
 Munday tarixni Jambil
 Ko'rmagandi umrda...

III

Isyonchl keksa Darxon
 Qullarga boshliq edi.
 Qizi Oygul yutar qon
 Ko'zları yoshlik edi.
 Ota-bola ikkovlon
 Qullar uchun berib jon
 Xonni o'ldirmoq uchun
 Ko'tarib elning kuchin
 Kezardilar isyonda



Ming alam, ming fig'onda
Isyon bostirilgan kun
Darxonni qilib tutqun
Saroyga keltirdilar.
Yasov tortib qo'shinlar
Savlat bilan turdilar.
So'ng zolim xonga ular
Tanitdilar Darxonni:
«Shu boshlagan isyonni
Shudir Darxonning o'zi
Mana bu Oygul qizi...
Tikilardi zolim xon.
Tikilar edi Darxon.
Yondirguday jahonni
Qul qilg'uday har jonni
O't bor edi ko'zida
Zo'r talvasa yuzida
Va xon tashlab ko'z qirin
So'radi birin-birin:
«Qani so'ylagil Darxon
Ne foyda berdi isyon?
Kimlar o'ldi, kim omon?»
Darxon so'z boshlab dedi:
«Men va qizimdan boshqa
Ol'magan qul qolmadi
Kirib shunchalik yoshta
Ko'rmovdim shuncha qonni
Shuncha zor-u fig'onne.
El xon-u monin butkul
Sen o't yoqib etding kul.
Jambil edi bir bo'ston
Qilding uni go'riston
Senday qonxo'r zolimdan
Qolmasin deb birar zot

Bosh ko'tardik zulmdan
 Bo'lmoqchi edik ozod.
 Lekin bu gal bo'lmadı
 Ammo tilak o'lmadi:
 Bir kun sani yiqtarmiz
 Va qabrga tiqtarmiz».
 Xon qovog'ini uydi
 Bulutlar yomg'ir quydi
 Yalang'ochlab qilichni
 Qulning bo'yigmiga soldi.
 Boshi ketgan qush kabi
 Darxon tipirlab qoldi
 Yerlar qonga bo'yaldi.

IV

Imo qildi zolim xon
 Saroy bo'sh qoldi shu on.
 Qulning go'zal qiziga
 Yaqin keldi.
 Yuziga
 Olgudayin tikildi.
 Qizning oldida bu xirs
 Ko'rsatib yovvoyi hirs
 Yerga qadar bukildi,
 Ko'zida hiyla kului:
 «Cho'ri qiz, endi menga
 Xotin bo'larsan», dedi.
 «Hashamatli saroyda
 Otin bo'lursan», dedi.
 Qiz jivirlab badani –
 «Sevmayman, – dedi, – sani.
 Yo'q.
 Bo'lmasman o'ylama.



Bunday so'zni so'ylama.
Sen otamdan ayirding
Qanotimni qayirding.
Qo'zg'olon qilib o'lgan
Shuncha qullar nomidan
Nafratim bordir sanga.
O'zing o'ylab ko'r tanga:
Sen odam emas-ku san
Hayvondan ham past-ku san
Xotin bo'lmasman aslo.
Kelsa boshimga balo
Uni sendan ko'rарman.
Doim qarg'ab yurarman.
Taqdirim yor bo'lsa-yu
Fursat qulay kelsa-yu
Seni agar o'ldirsam
Taningga xanjar ursam,
Dunyoda eng baxtiyor
Odam bo'lardim nomdor».
Zolim xon xo'p tutaqdi
G'azab o'tida oqdi.
Quturib qahri keldi.
Ilonday zahri keldi
Jahliga chidolmayim
Hech so'z deya olmayin
Jallodlarni chaqirib
Yirtqichiarcha baqirib
Undan o'chini oldi
Qizni zindonga soldi
Bir yomon o'yga toldi.

V

Zolim xon saroyida
 Keksa bir qul bor edi.
 Kuni o'tar qayg'uda
 Har narsadan xor edi.
 Uni derdilar Tarlon.
 O'ldirilganda Darxon
 Toqati hech qolmadi
 Aslo chiday olmadi.
 U qaynagan qonini
 Faryod chekkan jonini
 Qo'ymoqqa topmadi joy.
 Xira bo'ldi ko'kda oy
 U go'yo bir buyuk tog' –
 Yuzida ming yillik dog'.
 Chunki zindon tagiga
 Tashlangan bizning Oygul.
 G'ash solar yuragiga
 Azoblar uni butkul.
 Bu zolim xon Oygulni
 O'ldirar deb albatta
 Qayg'usi edi katta.
 Axir u topdi yo'lni:
 Uyquga ketganda xon
 Oygulni qutqarmoqqa
 Qattiq qasd qilib Tarlon
 Yo'l soldi zindon yoqqa.

VI

Bordi-yu, arqon soldi
 U zim-ziyo chuqurdan
 Qabrday qo'rqinch yerdan



Oygulni tortib oldi.
Butun atrof qop-qora
Shunday mudhish tun aro
Oygul bilan qul Tarlon
Bo'ldilar yo'lga ravon.
Ikkovi ham jim edi.
Axiyri Tarlon dedi:
«Qizim, seni zolim xon
O'ldirajak beomon.
Men seni qutqarmoqqa
Olib keldim bu yoqqa.
Faqat ne ham qilardim.
Nima qila bilardim?
Men ham qulman qanotim
Senikiday qirqilgan.
Menga ham o'sha zolim
Qilar ishini qilgan.
Shuning uchun o'ch olib
Bu ishini buzaman.
Seni sandiqqa solib
Daryoga oqizaman.
Agar o'lmasang, birov
Suv bo'ylda qilib ov
Senga duch kelib qolur
Suvdan chiqarib olur.
Bir kuningni ko'rarsan.
O'ynab-kulib yurarsan!»
Azob ichra yonib jon
Qora kunda qul Tarlon
Qizga qayg'udosh keldi,
G'amiga yo'ldosh keldi.
Qoni qochib yuzidan
Qizning qora ko'zldan
Yomg'ir kabi yosh keldi.

Sekin tushdi sandiqqa
 Sandiq ham tiqqa-tiqqa
 Bulib Oygulni oldi –
 Xipcha beli buraldi.
 Tarlon yana non soldi
 Non demaki, jon soldi.
 Atrofga ko'z tashladi
 Sandiqni daryo tomon
 So'ngra sudray boshladi.
 Uyquda edi har yon
 Suvga tashladi uni.
 Oygul ham oqib ketdi
 Va qulning yuragini
 O't bo'lib yoqib ketdi.
 Bir chaqmoq chaqib ketdi.

VII

Uyqudan uyg'onib xon
 Oygulni so'ramadi.
 Zindonga tashlangan jon
 Ne bo'ldi ham demadi.
 Ichdan sevinib Tarlon
 Yurarkan u yon bu yon
 Hech narsadan bexabar
 Ko'zi ko'r, qulog'i kar
 Bo'lib ko'rinar edi,
 Tinmay urinar edi.
 Tinchlik edi saroyda
 Qiz bo'lsa katta soyda
 Suv yuzida betinim
 Oqib borar edi jim.
 Oygul shu holda uch oy
 Muttasil oqib bordi.




Qancha dara, qancha soy.
Uni kuzatib qoldi.
Lekin hech kim tutmadi.
Hech bir savdo o'tmadi.
Va faqat tugab noni
Picha qiyndi joni.
O'rtanib alamidan.
Shu holda ketib bordi.
Axiyri Jarjon degan
Bir yurtga yetib bordi.

VIII

Jarjonning dalasida
Daryoning yoqasida
Bir chol o'tin terardi
Doim shunday yurardi.
U bir kun juda hordi
Ozgina tin olgali
Biroz erkin qolgali
Daryo labiga bordi.
Va shu chog'da qari chol
Bir narsa ko'rib qoldi.
Hovliqib bo'ldi xushhol
Qaqqayib turib qoldi.
U yo'q edi o'zida:
Bir sandiq, suv yuzida
Lopillab kelar edi
To'lqinda yelar edi.
Olmayin ikki ko'zin
Yechina solib darhol
Sandiq ketidan o'zin
Daryoga tashladi chol.
Birpasda tutib oldi.



Qirg'oq sari chiqardi.
 Sandiqmi ochmoq uchun
 Sarf etdi butun kuchin.
 Sira ocha olmadi
 Toqati hech qolmadi.
 Eng so'ngra o'roq soldi
 Teshdi-yu hayron qoldi:
 Eski sandiq ichida
 Bir qiz ko'rinar edi.
 Unda qiynalib juda
 Hadeb urinar edi.
 Soddaning tili qotdi,
 U o'zini yo'qotdi.
 Og'ir bir o'yga botdi:
 «Ehtimolki, bu qiz bir
 Savdogarning qizidir.
 Ehtimolki, hir suqsur
 Bir parining o'zidir.
 Cho'kib balki kemasi
 Bu qiz ketgandir oqib
 Daryo bo'ylab uloqib,
 Ehtimol, bir onasi
 Qolgandir bag'rin yoqib.
 So'ylasang-chi, hoy odam,
 Nega hech olmaysan dam?»
 Deya chol qizga aytdi.
 Oyguldan javob qaytdi:
 «Agar sandiqni yorsang
 Omon-eson chiqarsang
 Sening qizing bo'lurman
 Juda ham boy qilurman».«
 Tashvishga solib bu hol
 Juda hayron qoldi chol
 Lekin hech ishonmadi.




Ko'ngli gapga qonmadi.
«El oldida ochay, – deb, –
Yomon bo'lsa qochay», – deb
Sandiqni ko'ngli sodda
Bozorga olib ketdi.
Kun bo'yi tergan hamma
O'tini qolib ketdi.

IX

Bozorda qari cholni
O'g'ri deya tutdilar.
Ura-sura sho'rlikni
Podsho sari eltdilar.
Podsho ham g'azab bilan
«Bu mima» deb so'radi
Soqchilar bir gap bilan
Atrofini o'radi.
Cholning tili tutildi
Qo'rqliki, o'pkasi to'ldi.
Sekin: «bilmayman» dedi,
Bo'zday oqargan edi.
So'ng podsho qilichini
Yalangochlab bir soldi.
Bechora cholning tani
Shu on bekalla qoldi.
Qo'shinlar pitirlashib
Sandiqni tez ochdilar
Jonli bir narsa ko'rib
Tura-tura qochdilar.
Sandiqdan bir jonivor
Qomatini ko'tardi
Chinordayin bo'yi bor
Odamga o'xshar edi...

X


Oygul turishl bilan
Saroy charaqlab ketdi
Hamma yoq bo'lib ravshan
Uylar yaraqlab ketdi.
Oy deganda yuzi bor
Kun deganda ko'zi bor
Bir go'zal qiz qarshida
Bebaho edi juda.
Qaldirgoch qoshiaridan
Tunib qarashiaridan
Hayot sochilar edi
Gullar ochilar edi.
Podshoning aqli shoshdi
O'q ichida tutashdi.
Har tomonga yugurdi,
Dam o'tirdi, dam turdi.
Bunday go'zal yulduzni
Bunchalik barno qizni
Aslo ko'rmagan edi
Ishrat surmagan edi.
U chandon yaqin kelib
Yeb qo'yguday tikilib:
«Sen menga tekkin» dedi.
Qiz undan jirkanardi
Ichi o'tda yonardi.
Podshodan qilardi or
O'zini sezardi xor.
Ishlatib u bir hiyla
Topib qulay vasila
Ketmakka qildi qaror:
«Mayli, tegayin senga
Buning uchun sen menga



Qirq kun muhiyat bergaysan,
Ozgina tin bergaysan.
Juda ham holdan ozdim
Sandiqda o'layozdim!»
Podsho sira ko'nmadi
Qiz degani unmadi.
Axiyri qiz uch kunga
Qo'y deb yolvordi unga.
Hamon bo'ljadi rozi:
«Barcha tosh-u tarozi
Bir kunga chiday olur
O'ynab g'amming tarqalur.
So'ngra to'yni qilurmiz
Er-u xotin bo'larmiz.
Qiz go'yo ko'ngan kabi
Podshoga indamadi.
Podsho ham qizga endi
Hech bir narsa demadi.
Qo'shilib qirq qizlarga
Oygul tashqari chiqdi
Ko'zi tinib bo'zlarga
Sho'rlikni qayg'u yiqli.
Ichidan yona-yona
Cho'milmoqni bahona
Qilib, Oygul qizlarni
Daryoga olib bordi.
Qirq qizlar birin-birin
Yechlna boshlar ekan.
Aytib bir-birin sirin
Pichinglar tashiar ekan.
Yuzi gul, sochi sunbul –
Bizning qayg'uli Oygul
Biroz o'ylab turdi-da,
Ko'zini chirt yumdi-da,



O'zini suvgaga otdi,
 Shu ondayoq u botdi.
 Oygulni Jayxun baliq
 Oldi-yu yutib ketdi.
 Tomog'idan qilchalik
 Op-oson o'tib ketdi.
 Qirq qizlar sarosima –
 Chuvillashib qoldilar:
 «Nima gap, nima, nima»
 Deya shovqin soldilar.
 Hammalari noiloj
 Ba'zilari yalang'och
 Saroyga yugurdilar
 Va podshoga bildirib
 Dirillashib turdilar.
 Podsho ham chapak urib
 Daryoga chopib bordi
 Zir yugurib axtardi.
 Lekin unda kimsa yo'q.
 Daryo ham silliq-silliq
 Har kungiday betinim
 Oqib borar edi jim.
 Podsho endi xo'p nolon
 Nima uchun bir kunga
 Muhlat berdim deb unga...
 Olgudayin pushaymon.
 Ichini it tirmadi.
 Ziyoda bo'lib dardi,
 Yer va ko'kni u yanib,
 O'z o'tiga o'rtanib,
 Yurib qizni axtardi.



XI


Go'zal yurt Susamhilda
Bir podachi bor edi,
U mashhur edi elda,
Nomi Baxtiyor edi,
Go'zal edi va chinor
Qomatiga edi zor.
Ko'kraklari butun bir
Oftobni yashirardi.
Tanlarida bir umr
O't lovillab turardi.
Qilichday o'tkir edi,
Rustam kabi zo'r edi,
Ammo elda xor edi,
Kambag'al nochor edi,
U doim boqib poda
Yurar edi sahroda.
Cho'llarda yashar edi,
Qirlardan oshar edi.
Qalbida ming turli dog',
Ko'z yoshi bulog'-bulog'
Suv yoqalab borarkan,
Har tomonga qararkan
Baliq ovlab daryoda
Yurganlarga yo'liqdi.
Shu choqda uning sodda
Ko'ngli biroz to'liqdi.
«Jinday non bormi?» dedi.
Baliqchi tanti edi:
«Yo'qdir berar nonimiz,
Lekin kuyar jonimiz.
– Mayli, shu safar to'rga
Chiqqanin ol o'zingga.




Uzun umring bor bo'lsin
 Bola, baxting yor bo'lsin».
 Rozi bo'ldi Baxtiyor.
 Va toleyinga shu bor
 Jayxun ilinib qoldi,
 Ulkan baliqni oldi.
 Ikki ho'kizga ortib
 Oldindan o'zi tortib
 Uyga tomon yo'l soldi.
 Hovliqib tolib keldi
 Uyiga olib keldi.

XII

– Ota, dedi u, darhol
 Hozir bo'ldi qari chol.
 Va ota-bola ikkov
 Baliqqa soldilar dov.
 Otasi pichoq oldi
 O'g'li oybolta soldi.
 Baliq qornin yorganda
 Pichoq belga borganda
 Chol birdan cho'chib qochdi.
 Baxtiyor g'azab sochdi.
 Baliq qornida shu on
 Tebranib u yon bu yon
 Oygul ko'zini ochdi
 Va Baxtiyorni ko'rni
 Boshiga qon yugurdi.
 Qora ko'zlari yonib
 Bir muhabbat uyg'onib.
 Qalbi jizillab qoldi
 Qizardi, begap qoldi.
 Tanasini qurshab o't



Qip-qizil, misli yoqut
Titraguvchi lab qoldi.
Hayronlikda ko'p zamon
Jim qoldilar uchovlon.
Oxirida qiz turib
Ularga ta'zim qildi
Cholga qarab egildi.
Ular yaqin keldilar
Kim ekanin bildilar.
Oygul: «Non bormi?» dedi
Podachi tanti edi:
«Nonimiz yo'qdir bilsang
Ozgina sabr qilsang
Baliqni pishirarmiz
Birgalashib yeyarmiz».
Oygul unga, xo'p, dedi.
Cholga gapi ko'p edi:
«Ota, qabul qilsangiz
O'g'lingizga tegayin.
Siz har narsa desangiz
Men bo'ynimni egayin».
Chol dovdirab hangu-mang
Javobiga qoldi tang:
«Qizim, bizda hech pul yo'q.
Mol-u dunyo butkul yo'q.
Qandayin to'y qilamiz?
Sepam nima bilamiz?»
«Men dunyo so'ramayman
Boy odamga bormayman.
Siz xohlasangiz agar
Boshingizga to'kay zar»...
Chol rozi bo'lgan kabi
Hech bir narsa demadi.
Baxtiyorning yuragi



Gupillab urar edi.
 Bu ajib uchrashuvdan
 Barcha xursand edilar.
 Jayxunni qaynoq suvdan
 Olib birga yedilar.

XIII

Kech ham kirdi. Dala, cho'1
 Tumanga botdi butkul
 Chol darrov cho'kib yotdi.
 Baxtiyor bilan Oygul
 Suhbatida tong otdi.
 Qullarning isyonidan.
 O'lganlarning qonidan
 Otasi solgan firoq
 Bag'rini yoqqanini.
 So'zlab chiqdi u uzoq
 Sandiqda oqqanini.
 So'zladi zolim xondan
 Ertak aytdi Jarjondan.
 Baliqqa yutilganin
 To'rlarga tutilganin
 Mol-u dunyoni demay
 Podsholarni xohlamay,
 Podachini deganin.
 Uzoq eldan kelganin
 So'zlab o'ltirdi Oygul
 Ochilib misoli gul
 Shodligidan Baxtiyor.
 Qarardi takror-takror.




XIV

Oygul daryoda baliq
Qornida yotganida.
Ikki katta halqalik
Gavhar topuvdi unda.
Qadrini bilgan edi.
Ehtiyot qilgan edi.
Tongda u yo'qlab cholni
Arz etdi ushbu holni.
Chol o'zini unutdi
Oygul gavharni tutdi:
«Mana buning birini
Bozorda sotib kelng
Bilib uning sirini
Oltinga botib kelng».
U bozorga jo'nadi.
Yursa yo'li unadi.
Chol ushlagancha gavhar
Bozorda yurar ekan
Xaridor so'rар ekan,
Bitta katta savdogar
Xabardor bo'lib qoldi
Cholga yopishib oldi,
Gavharga changal so'lди.
Bir sandiq oltin berib
Cholni jo'natib qoldi.
U ham tezgina erib
Susambilga yo'l oldi.
Lekin usta savdogar
Deyar edi har safar:
«Baxtim yor bo'lib agar
Yana bitta shunaqa
Topolsa edim halqa


Yetti iqlimning boji
 Boji bilan xiroji
 Qimmatiga sotardim.
 Bir umr yeb yotardim».
 Shuning uchun ko'p xijil
 Kezar edi elma-el.

XV

Yana kunlardan bir kun
 Oygul cholni chaqirdi
 Tag'in bir halqa berdi.
 Chol o'zida yo'q butun
 Bozor tomon yugurdi.
 Duch kelib u savdogar
 Yana so'radi gavhar.
 Chol «bor» dedi, U bu bor
 Edi jazman xaridor.
 Cholni qo'ymay holiga
 Olib chiqib hovliga.
 Ikki sandiq oltinni
 Naqd berib oldi uni.
 Oltinni otga ortib
 O'zi kuchanib tortib
 Susambilga boshladi
 Devday qadam tashladi.
 Oltinlarning barini
 To'plab yosh-u qarini
 Chaqirib go'zal Oygul
 Yashnab misoli bir gul
 Baxtiyori yonida
 Otash yonib qonida
 Kattakon kengash ochdi
 Lablaridan dur sochdi.




Susambil tarixidan
Ezilganlar holidan
Podsholarning zulmidan
Xo'jalarning molidan
So'zladi juda uzoq.
Oxiri dedi: «Biroq
Bu hol uzoqqa ketmas
Orzular beiz bitmas.
Susambilda biz yangi
Bir dunyo qurmoqchimiz.
Har kambag'al ko'makchl
Bo'lsin sodiq soqchimiz.
Bunday bir yurtni faqat
Ezilganlar qururlar.
So'ng ular qavat-qavat
Soz uylarda tururlar».
Bu so'z yosh-u qariga
Mos bo'lib tushdi juda.
Ertasi to'da-to'da
Guras-guras bo'lib el,
Kelaberdi bog'lab bel.
Xotinlar, yosh bolalar
Barcha amma-xolalar
Kelaberdilar ishga.
Oygul yangi turmushga
Boshlab, osh-u non berdi,
Jonsizlarga jon berdi.
Yetimlarga parvarish
Yesirlarga haq va ish,
Bolalarga saroylar –
Go'zal, ozoda joylar.
Har qadamda bir bo'ston
Har yerda bir guliston.
Ellar uchun chaman bog',



Har yerda qaynar buloq.
 Bino qildi kunma-kun
 Har kun bir go'zal yakun
 Jinday fursat ichida
 Kunning erta-kechida
 Har yondan yelaberib
 El chuvab kelaberib
 Million odam to'plandi,
 Borgan sari ko'plandi.
 Kambag'al va qullarning
 Jonidan sevgan yeri
 Susambil jannatga teng
 O'lka bo'ldi oxiri.
 Ozod edi bunda ish:
 Bu o'lkada har yemish
 Otashlarda pishardi.
 Tanlarga yaqin quyosh
 Bolalarga usti-bosh
 Gulzorda yotishardi.

XVI

Oy deganda yuzi bor
 Kun deganda ko'zi bor
 Go'zal, dono Oygulni –
 Bu barno bahor gulni
 El sevar edi jondan.
 Va butun xon-u monda
 Oygul himoyasida
 Baxtiyor soyasida
 Susambilda erkin, shod
 Yashar edi xaloyiq.
 Xayol qilishga loyiq.
 Uni butun odamzot




Xayol qilishga loyiq.
Oygul o'z o'lkasini
Saqlardi tinch, saranjom
Soqchilar sevib uni
Kerak bo'lsa berar jon.

XVII

Susambil soqchilar
Chegarada bir qari
Cholni tutib oldilar
Va shubhada qoldilar.
Qalandarga o'xshardi
Lekin yomon yurardi.
Xo'p qora edi ichi.
Qalandar kiyimida
Bo'lsa hamki qilichi
Ko'rinaridi yonida.
Uni mahkam tutdilar
Oygul sari eltdilar.
Oygul bilan Baxtiyor
Adolat aylab shior
Qildilar uni so'roq
Podsholardan yaxshiroq.
Ul ham sekin Jarjonda
Zo'r podsho ekanini
So'zlab berdi va qonda
Yetilib o'sganini.
So'ngra arzi-holini
Boshiadi savolini.
Chol ko'p narsa o'yladi:
Qo'lga tushdim tayin deb
Oygulni aldayin deb
Faqat yolg'on so'yladi.



U dediki: «Bir kunga
 Muhlat olgan yorimni
 Qo'ldan berdim va unga
 Qurbon qildim borimni.
 Yerga otdim torimni
 Tutaqtirib zorimni
 Misoli bir qalandar
 Izlab keldim darbadar.
 Sen meni demasmisan?
 Oygulim emasmisan?»
 Ko'zida hiyla kuldi
 Va yolg'ondan bukildi.
 Xaloyiq shu asnoda
 Yig'ilib to'da-to'da
 To'planib qolgan edi.
 Podsho ko'zi qon edi.
 Shunda chiroyli Oygul
 Yashnab misoli bir gul
 Undan bir so'roq qildi
 Tarashaday qoq qildi:
 «Necha xotiningiz bor?
 Rostini ayting, zinhor?»
 «Qirq xotin bordir menda» –
 Dedi beor, sharmanda.
 El qah-qahlab yubordi.
 Zolim podsho shu damda
 Fikrini qonga qordi.
 Qilichimi chlgardi
 Oygulga qarab bordi.
 Ammo xaloyiq shu dam
 Umi tutdilar bardam.
 O'tmasdan jindayin zum
 Og'ziga tiqdilar qum.



Zolim podsho shu zamon
Qabrga bo'ldi mehmon.

XVIII

Oygul ko'ngli beg'ubor
Hurlikni aylab shior.
Ham yo'ldoshi, ham yori
Yonida Baxtiyori
Yasharkan Susambilda
Qayg'u yo'q ekan dilda
Jambilni o'ylar edi.
Qul cholni so'ylar edi.
Qullarning qasosini
Olurman, deb ahd qilgan.
Xonlikning asosini
Buzurman deb jahd qilgan
Isyon quchog'idagi
Chog'larini eslardi.
Gunohsiz qalbidagi
Dog'larini eslardi.
Ziyoda bo'lib dardi
Ko'z oldidan o'tardi:
Och qullarning isyon'i
Jambilning qonxo'r xoni.
Otasingin qilichda
Tirqirab qolgan qoni.
Ko'kka chiqib fig'oni
O'tday tutashib ichda...
Eng so'ng Oygul, Baxtiyor
Qildilar shunday qaror:
«Jambilga o't ochamiz
Xonning qonin sochamiz».

XIX

Oygul turib erta tong
 Qo'shirlarga urdi bong.
 Soqchilarni uyg'otdi.
 Boshliqlarga so'z qotdi.
 Qurollarni oldirdi.
 Karnay-surnay chaldirdi.
 Bir nafasda qo'shirlar
 Saf tortib yig'ildilar.
 Qirq kunlikka osh va non,
 Otlarga beda va don,
 Qo'shirlarga kiyimlar,
 Dori-darmonlar, yemlar,
 Oldirib go'zal Oygul
 Yashnab misoli bir gul
 Baxtiyorni Susambil
 Yurtiga ko'tarib bosh
 Shu kun berdi yurtga osh.
 Qo'shin boshida o'zi
 Charaqlab qora ko'zi
 Mardlar singari Jambil
 Tomoniga boshiab yo'l
 To'p bo'shatib jo'nadi.
 Yo'lma-yo'l va ko'lma-ko'l
 Manzillarda tunadi
 Yana turib jo'nadi.
 Go'zal chaman bog'lardan
 Qush bo'lib uchib o'tdi.
 Osmon bo'yi tog'lardan
 Burgutday ko'chib o'tdi.
 Qancha qurg'oq cho'llarni
 Daryolarni, ko'llarni



O‘ta-o‘ta oxiri
Jambilga yaqin bordi.

XX

Jambil xoni rohatda
Ishratda, farog‘atda
Yashar ekan Jambilda
Ne bordir Susambilda
Sira ham bilmas edi.
Kecha-kunduz mast edi.
Oygulni band-u zindon
Qilgan chog‘idan buyon
Oygul bilan Baxtiyor
Xabar olmagan edi
Esga solmagan edi.
Qul qizini zindonda
Chirib ketgan deb o‘ylab
Va lekin har zamonda
Husnidan ertak so‘ylab
Maqtab go‘zal Oygulni
Qarg‘adi Darxon qulni.
Tarlom bo‘lsa Jambilda
Ming armon bilan dilda
Hamon qul yurar edi
Qattiq kun ko‘rar edi.
Oygulning ahvolidan
Susambilning holidan
Xabardor edi o‘sha.
Unga qayg‘u bilan zor
Yuz haqorat, ming ozor
Hamdam edi hamisha.
Susambilga qochmoqni



Xonga urush ochmoqni
 U xayol qilar edi
 El buni bilar edi
 Chorasiz yurar edi.
 Shu choq minglab qo'shini
 Bilan Oygul yo'l bosib
 Uxlamay kuni-tuni
 Har yerga yalov osib
 Kelar edi duvillab
 Bo'ron kabi guvillab.
 Daryolarning ustidan
 Uchib o'tganda oti
 Qushday sirg'anib suvdan
 Tizilardi qanoti.
 U to'xtamay yo'l bosdi
 Huv deganda cho'l bosdi.
 Bir oqib ketib keldi
 Jambilga yetib keldi.

XXI

Yashnab misoli bir gul
 Yer-ko'kni ovozasi
 Tutib kelganda Oygul
 Jambilning darvozasi
 Ochilmadi. Shunda ul
 Darg'azab qilich soldi
 Darhol qaytarib oldi:
 Quflar sharaq-sharaq
 O'ynab ochilib ketdi
 Zulfinlar xuddi tuproq
 Bo'lib sochillb ketdi.
 Otlarning tuyog'ida



Darvozalar bo'ldi kul
Har to'p qo'ygan chog'ida
Saroylar qulab butkul
Zo'r qo'shin kirib bordi.
Savalab urib bordi.
Jambilning xon, beklari
Quyon bo'lib qochdilar.
Chuqurlar, g'orlar sari
Quchog'ini ochdilar.
Soqchilar zolim xonni
Bu ajoyib hayvonni
Og'ilda ushladilar
O'luguay mushtladilar.
Rangi bo'lsa ham somon
Past kelmas edi hamon.
Butun el qah-qah soldi
Xon sharmanda uyaldi.
El turib shu choq: «Oygul!
Xonni o'ldir!» – dedilar –
«Butun yurt va barcha el
Sendan ushbuni tilar».
Oygul el talabini
Qilib o'ldirdi xonni
Bu ajoyib hayvonni.
Qilich solib bo'g'ziga
Qo'yib to'pning og'ziga
O'qqa qo'shib ko'chirdi,
Osmonlarga uchirdi
Va kul qilib tushurdi.
Endi eski qul Tarlon
Oygulga to'g'ri keldi.
Sevinganidan shu on
Oyog'iga yiqildi

Oygul ko'tarib oldi.
Tarlom ko'rishib qoldi.

XXII

Qul Tarlon shodligidan
To'xtolmadi yig'idan.
Barcha hayron edilar.
Ular kelib Oygulga:
«Bizlarni Susambilga
Olib ketgin,— dedilar.
Bu xonlardan kuydik ko'p
Beklardan o'tandik xo'p
Biz Jambilda turmaymiz
Bu yerlarda yurmaymiz.
Bizni qo'sh o'z elingga
El bo'lamiz biz senga...»
Oygulga alamini
Barcha chekkan g'amini
El aytib yig'lar edi.
Sel qaytib yig'lar edi.
Oygul nazar tashladi
Shunday bir so'z boshladi:
«Zolim xon quchdi o'lim
Endi sizga yo'q zulm
El, osoyish yasharsiz.
Va bekoyish yasharsiz.
Susambilni qo'yinglar,
Va Jambilni suyinglar,
Siznikidir tuprog'i.
Sizniki toj-u tog'i.
Xon bo'lmasa Jambilda
Qayg'u ham bo'lmas dilda.



Mana bu ota Tarlon
Hammangizga bosh bo'lur
Sizlar uchun berar jon
Har yerda yo'ldosh bo'lur».
Oyguldan jahon-jahon
El barcha rozi bo'ldi.
Qalbi shodlikka to'ldi.
Qirq kecha-yu qirq kunduz
Barcha erkak, xotin-qiz
O'ynab bayram etdilar.
Zolim xonni yo'qotib
Qayg'ularini otib
Murodiga yetdilar.
Shundan so'ng bizning Oygul
Yashnab misoli bir gul
O'z Baxtiyori sari
O'z sevgan yori sari
Susambilga yo'l oldi.
El karnay-surnay chalib
Zambaraklar bo'shatib
Uni uzatib qoldi.

ZAYNAB VA OMON

Kirish

So'ylab beray Zaynab va Omon,
Sevgisidan bir yangi doston,
Bir zo'r otash, bir zo'r alanga,
Ikki qalbga tutashgani rost.
Bir sevgikim jon berur tanga,
Ham Zaynab-u Omonlarga xos.
U sevgida yo'l boshlar vafo,
Ham vafoni yemirmas jafo;
Bunda aslo qora kun yo'qdir,
Bunda motamsaro kun yo'qdir.
Xazon qilmas Zaynabni zamon
Va otashda o'tanmas Omon,
Tushi emas, balki o'ngida,
Dildorini ko'rар begumon;
Bir qissakim, buning so'ngida
Sevishganlar topishgusidir,
Jonlar jonga yopishgusidir.

Birinchi bo'lim

I

Shod o'tadi Zaynab kunlari,
Ko'ngli bahor ko'kiday toza,
Ko'kda uchgan qushlarning bari



Shodligidan olar andoza.
U yashaydi besitam, be zor,
U bilmaydi qayg'uni, g'amni,
Qyoqlari ostiga bahor
To'shab qo'ygan alvon gilamni.
Butun dala baxmal poyandoz.
Lola ochib qarshilar tog'lar,
Gulga to'lib serishva, sernoz,
Uning ko'nglin xushiaydi bog'lar.
Har tomonda bahordan nishon,
Daralardan chopar Zarafshon.
Qaraydi qiz, bamisoli kun
Ko'zlarida butun bir olam.
Hayot to'la bahorga maftun,
Unga tamom begonadir g'am.

II

Zaynab o'sgan elning misli yo'q,
Zaynab o'sgan el baxtga to'liq.
Buni ko'rghan tez bo'lar banda,
Buni inson bir qur ko'rganda,
Yuragida hech armon qolmas,
Bunga jannat tenglasha olmas
Bunda qo'shiq aytgan ariqlar
Qarshisida parilar yig'lar.
Qushlarining nag'ma-navosi.
Vodiylarning marmar havosi,
Erta bahor ochilgan lola,
Qoyalardan uchgan shalola,
Binafshalar, rango-rang gullar,
Shisha kabi zangori ko'llar,
Hamishalik diltortar ko'klam

Va tabiat to‘qigan gilam;
 Qorga cho‘mgan haybatli tog‘lar,
 Sharqiragan davo buloqlar
 Hammasi bor, hammasi ma‘mur...
 Bunda yerga oydan tushgan nur,
 Salqin tunda o‘zi bir quyosh,
 Cho‘miladi, unga tog‘-u tosh.
 Novdalarda tug‘ilgan kurtak
 Har kun to‘qir yangi bir ertak.
 Bunda hamma, hamma narsa bor,
 Bunda sizga tole bo‘lar yor.
 Bunda orzu qozonadi ot,
 Bunda sevgi yozadi qanot,
 Qo‘zg‘atadi qiz havasini
 Chiroyiga rang beradi gul;
 Bunda qizga sevgi darsini
 O‘rgatadi eng avval bulbul.
 Zaynab shunda tug‘ilgan edi.
 Shunda to‘lib yetilgan edi.

III

Odam zoti dunyodaki bor,
 Uning bilan muhabbatdir yor;
 Uni bilmas yurak topilmas,
 Uni bilmas otlar chopilmas.
 Sevgi... lekin bunda asrlar
 Fojiasi soch yozib yig‘lar;
 Yig‘lar ishqni yemirgan zamon,
 Yig‘lar sevib o‘tga tushgan jon
 Sevgi qalbning birinchi mayli.
 Lekin zamon asira Layli
 Yostig‘ini butun qurutgan,



Kosa-kosa og'ular tutgan;
Majnunni u o'tkazgan yorsiz,
Farhodni ham etgan diyorsiz.
Bunda odamxo'r bo'lgan kunlar.
Erksizlikdan chiqqan yakunlar
Oyinada bo'lgan namoyon.
Jilva qilgan sevgisiz davron.
Zamon o'tgan, zamonlar o'tgan...
Odam yangi zamonga yetgan.
Hamon sevgi odamga yo'dosh,
Hamon sevgi qalbiarga sirdosh
Shudir bahor, ochilgan lola,
Shudir dilni qiynagan nola:
Shudir sabza, binafsha ko'klam,
Shudir qizning boshidagi g'am.
Shudir atir sochuvchi ra'no.
Shudir achchiq va shirin ma'no;
Shudir etgan qiz ko'ksini oq,
Va yigitning ko'kragini tog'.

IV

Zaynabning ham toza, osuda,
Dog' ko'rmagan ma'sum qalbida,
Sevgi yaproq yozib qolipti,
Va fikriga g'avg'o solipti.
Kokillari uning tol-tol,
Lablarida bitgan qora xol
Bir dunyoga arziguday bor,
Ko'zlar yonib axtarar bir yor,
Yor axtarib boqqanda qiyg'och,
Qoshi bo'lib xuddi qaldirg'och
Atrofida oylar charx urar,

Tegrasini yulduzlar o'rар.
 Pokizadir qizning tilagi,
 Oppoq qorday bo'lib ko'kragi
 Ko'tarilar hamon yuqori;
 Ul hozircha sevgining zori,
 Ozoridan xabarsiz va shod;
 Sevgidagi shodlik birla dod
 Unga hali tamom begona,
 Bilmas hali u yona-yona,
 Murodiga yetajagini.
 Mahkam ushlab yor etagini,
 Kетарман deb o'ylanar osон,
 Ish bitar deb o'ylar befig'on.
 Shuning uchun Zaynab nihoyat,
 Sevib qoldi birovni g'oyat;
 Ko'ngil qushi talpimib qoldi,
 Yuragida o't yonib qoldi.

V

O'rik gullar Zaynab bog'ida.
 Ko'p yigitlar bor qishlog'ida.
 Ko'p yigitga tushadi ko'zi,
 Lekin shunga hayronki o'zi,
 Ko'ngli faqat Omonni deydi;
 Shu yurakni, shu jonni deydi.
 Va holbuki boshqa yigitlar,
 Hech kam emas, u yaxshi bilar.
 Agar biri yoysa qulochin,
 Parvoz qilar ko'klarda lochin,
 Havodagi qushlarni tutar,
 Ot chopganda yashindan o'tar,
 G'oz singari qo'nar ko'llarga,




Suv oqizar sahro, cho'llarga,
Hammasi ham qilichdan o'tkir.
Hammasi ham Rustam kabi zo'r.
Nega sevdi Omonni, nechun.
Zaynab bilmas qalbining kuchin.
Nega etdi uni ixtiyor,
Bilolmaydi izohi dushvor.

VI

Va holbuki hozir tun-u kun,
O'shandayin xayoli butun.
Qayga borsa o'sha qoshida.
O'n to'qqizga kirgan yoshida,
Shabnam tekkan gul bargi kabi,
Uning qalbi dir-dir titradi.
Sevganini biladi, xolos.
Faqat nechun? Qaydadir asos,
Axir kimdir ko'ngil qo'ygani,
Qaysi barno shuncha sevgani,
Nimasi bor, nimasi yoqar,
Qaysi otash qalbini yoqar.
Bilmay turib sevganda shuncha,
Yo'l boshiadi qaysi tushuncha?
Hech birini o'ylab ko'rmaydi,
Hech biriga javob bermaydi.
Uning faqat bir asosi bor.
Shu asosga zo'rdir e'tibor:
El so'ylarkan doim yomonni,
Atamaydi hech bir Omonni.
Shuning uchun yashaydi bedod,
Shuning uchun nafas olib shod,
Bahor kabi to'lib boradi,
Har kun gulday bo'lib boradi.

VII

Yarim oqshom, chumchuqlar tingan,
 Hamma qora libos kiyangan,
 Soylarda tun, sahrolarda tun,
 Daralarda, vodiylarda tun.
 Yaproqlarda tun yotib uxlar,
 Soyliklarda tun qotib uxlar.
 Tun o'rmalar tog' boshlarida,
 Tun Zaynabning qarashlarida.
 Lekin, hali o'tirar uyg'oq,
 Oldidagi bir sahlfa oq –
 Qog'oz uzra tinmay tikilar,
 Ko'z nurlari unga to'kilar:
 «Seni, Omon, ko'rgandan beri,
 Ko'zlarimga uyqu kelmaydi.
 Senga mayl qo'ygandan beri,
 Hech narsaga ko'ngil to'lmaydi...»
 O'ylab-o'ylab to'xtab qoladi,
 Og'ir-og'ir nafas oladi.
 Yozganlarni o'qiydi takror,
 Yuragida uyg'onadi or.
 Va qog'ozni yirtib tashlaydi,
 Yana olib yozaboshlaydi:
 «Sevganimni qilmay oshkora,
 Omon o'zi so'z ochsa zora, –
 Xayollda yurar edim jim,
 Faqat kutmoq bo'lmishdi burchim,
 Va nihoyat sabr ila qaror
 Tugadi-yu boshladim iqror...»
 Boz o'qidi, ko'ngli to'ljadi,
 Yana aytganiday bo'ljadi.



«Yozolmadim» – dedi-da o'zi,
Ro'parada turgan qog'ozni
Parchaladi. U endi bu bor
Yozmaslikka ayladi qaror.

VIII

Bir silkinib o'rnidan turdi,
Nedir o'ylab ilgari yurdi,
Atrofi jim, hamma uyquda,
Ko'kdagi oy aks etar suvda;
Yolg'iz mayin, yengil shabboda
Vodiy ichra tanho tentirar.
Simob kabi tiniq havoda,
Shitirlashib yaproqlar titrar.
Qiz chor atrof sari qarardi.
Tim-tinlikda o'tandi, yondi,
Bir otashin intilish shu dam,
Yuragiga bo'mishdi hamdam.
U qaygadir ketmoqchi, faqat,
Bilolmaydi qayga ekanin,
U shod, lekin o'shal muhabbat
Parcha-parcha to'g'raydi tanin
Unitdi-yu, to'xtalib qoldi,
Chigal o'ylar ichra yo'qoldi.
Ham o'tirib qoldi faromush,
Qancha yulduz ko'zida botdi,
Ba o'rnidan qo'zg'alib xomush,
Sekin kelib joyiga yotdi.

**IX**

Sekin kelib yotdi-yu faqat,
Kiprigini yuma olmadi.
O'ylay-o'ylay toq bo'ldi toqat,
Endi sira yurak qolmadi.
Yoki birdan Omon ko'ziga,
Uyalmasdan qaray qolsami...
Hamma gapni uning yuziga
Shartta-shartta ayta qolsami?..
Yuzdan olib butun pardani,
Gapirsa-yu «javob ber» desa,
«Ayb qilmagin, tanladim sani,
Rozi bo'lsang birga yur» desa...
Nima bo'lur shu paytda holi,
Nima bo'lur sho'rlikning holi.
Terga pishib Zaynab olar tin,
To'q, bo'lmaydi, bu hali qiyin.
Hali bunga til borolmaydi.
Hali Zaynab o'zining dardin,
Dadil turib yora olmaydi.
Tunni butun uyg'oq kechirdi,
Fikrlari topmay nihoya,
Xayol uni ko'kka uchirdi.
Tong yoridi, tog'dagi soya
Vatanini soyga ko'chirdi.

X

«Sensan, Omon, uyqusiz tunlar,
Yuragimni olgan alanga,
Sen fikrimni chulg'ading kunlar,
Sen laxcha o't tashlading tanga.



Koshki seni ko'rmagay edim.
Tushmagaydi ko'zga otashing.
Yashar edim betashvish va jim,
Yuragimni yondirmas g'ashing.
Oqizarsan hali yoshimni,
O't ko'zlarining qo'ymas salomat,
Bulut kabi qurshar boshimni,
Hali qancha-qancha malomat.
Hali qancha-qancha hasratlar,
Yosh qalbimga bo'lurlar mehmon,
Hali qancha qayg'ular, dardlar,
Shiddat bilan so'zon qilur jon».

XI

Tong singidi oppoq oqarib,
Zaynab turib, dalaga borib,
Butun gapni unutgan bo'ldi,
Siqiq qalbi havoga to'ldi.
Yaratuvchi erkin, ozod ish,
Daladagi osuda turmush.
Ko'klam kabi ko'kargan jonlar,
Sho'x yigitlar, qizlar, juvonlar
Bo'ldi qizning dardiga chora,
Xurram bo'lib u bora-bora.
Otdi dilda bo'lgan g'uborin,
Va faromush ayladi zorin.
To kechgacha ishladi tinmay,
To kechgacha yurakdagi nay,
O'tga tushib qilmadi navo,
Dala bo'lib dardiga davo.
Yuragiga hech g'ash solmadi,
Oromiga otash solmadi.

Daladagi bu qaynoq hayot
 Havasiga bog'ladi qanot.
 Va shodlikning eshigin ochdi,
 Qayg'ulari uzoqqa qochdi.
 Har qadamda ortib sururi,
 Qancha yerni o'yinga soldi,
 Ishiadi-yu, ortdi g'ururi,
 Kech kirganin bilmayin qoldi.
 Quyosh botdi, bir to'da qizlar,
 G'am bilmagan kular yulduzlar,
 Ovoz qo'yib qo'shiq aytadi.
 Zaynab bilan xushchaqchaq Huri,
 Adol bilan yallachi Nuri,
 Asal bilan o'yinchi Sora,
 Surma bilan quvnoq Ruhsora,
 Sarvi bilan dutorchi Gulnor,
 Qunduz bilan Suqsur va Anor,
 Birga-birga qaytadi xandon,
 Birga chaq-chaq qiladi chandon.
 Tor ko'chaning boshiga kelib,
 Zaynab endi o'zga yo'l oldi.
 Har biriga chandon tikilib,
 Do'stlaridan zo'rg'a ajraldi.
 Chayqab qoldi u boshlarini,
 Yo'nga tikib qarashiarini,
 Ko'cha to'la odamni ko'rди.
 Ichkariga kirmayin turdi.
 Odamlarning hammasi tog'dan,
 Tog' bag'rida bo'lgan uloqdan
 Qaytgan kabi to'da va to'da,
 So'zlasharlar har bir to'g'rida.
 Go'yo bayram, go'yo yangi yil,
 Tarqaganday go'yoki sayil,



Kelardilar guras va guras,
Bari erkin olardi nafas.

XIV

Omon kimdir, bormi Vatani,
Kim ham qizga tanitar uni
Shod bo'lsa-da xotirotidan,
Xabarsizdir yorning zotidan.
U bo'lurmi sevgisiga teng,
Oshiyoni qayda bu qushning.
Zaynab fikrin chuvaltirgan shul
Fikri-yodi shu bilan mashg'ul.
Yomon otliq bo'lsa u agar,
Zaynab kirar yerbarga qadar».
Bo'lib qolsa siri oshkora,
Jarohatga topilmas chora.
So'ngra uni savdoyi derlar,
Bir tagsizning gadoyi derlar;
Unda yogar ta'na toshlari,
To yergacha uning boshlari –
Xam bo'lur-da, hech yura olmas,
El ichida obro'yi qolmas.
Va yoronlar bari beg'araz,
Bunday do'stdan qilurlar araz.
Shuning uchun jimlik saqlardi,
Shuning uchun ichida dardi,
Shuning uchun qiynalsa ham jon,
Sevgisini tutardi pinhon.

Ikkinchি bo'lim**I**

Ichkarida o'zga hol edi,
Zaynab uchun o'zga fol edi.
Bunda qizning erkin va toza
Nomusiga o'qib janoza,
Hurligini yer bilan yakson,
Bag'rin etib laxta-laxta qon.
Ko'zlaridan oqizib yoshin,
Poymol etib uning quyoshin,
Qora turmush solardi changal;
Qismatini etar edi hal.

II

Zahar to'kib qizning oshiga,
Bu bechora Zaynab boshiga
O'tmish solgan qora bir soya;
Bu – turmushdan ajib hikoya,
Bu – insonning hayvondan battar
Xo'r etilgan cholni eslatar...
Undan Zaynab xabarsiz hamon,
Uni aslo eslamas bu jon.
Bu savdoni kimning solganin,
Uning baxtin kimlar olganin,
Kimlar uni bu qadar ojiz,
Va huquqsiz bechora bir qiz
Etib, sho'rlik boshiga balo,
Solganini eslamas aslo...



III

Hali Zaynab chaqaloq kunlar,
Boshga tushdi chigal tugunlar:
Ona uyi odamga to'ldi,
U Sobirga nishona bo'ldi.
Uch-to'rt xotin go'dak Sobirni
Olib kelib ochdilar sirni,
Zaynab bilan Sobirni maqtab,
Va ikkovni bir-birga atab,
Dasturxonda sindirdilar non
Va fotiha ko'tarib shu on,
Tarqaldilar... Zaynab beshikda
Yig'lar edi och qolib juda.
Sobir esa hech gap anglamas,
Yurar edi o'yin bilan mast.
Ana shunda bu qora odat,
Qiz baxtiga urgan edi xat.

Yillar o'tdi, faqir xonadon
Muhtojlikka taslim etdi jon,
G'amxonada qashshoqlik kului
Va oila tutday to'kildi.
Zaynab qoldi bechora yakka,
Kimsa kelmas unga ko'makka.
Nada ota, na ona qoldi,
Na bir kulba, na xona qoldi;
Na bir panoh, na bir oshiyon,
Na bir g'amxo'r, na bir mehribon,
Na bir sirdosh, nada bir yo'ldosh,
Na bir o'rtoq, na bir qayg'udosh...
Hech kimsasi yo'q edi, yolg'iz
Tutqun bo'lib qolgan edi qiz.

Har dargohga borib sig'indi,
 Har eshikda novdaday sindi.
 Endigma ko'kargan nihol,
 Xazon urib bo'l mishdi behol.
 U nihoyat topdi bir panoh,
 Muruvvatli bir kichik dargoh
 O'z qanoti ostiga oldi,
 Taglariga issiq xas soldi.
 Anorxola oilasida
 U asrandi qiz bo'lib qoldi.
 Va shunga ham sevinib juda,
 O'tganlarni unutgan bo'ldi.
 Alamlarni quritgan bo'ldi.

VI

Qiz beradi taqdiriga tan,
 Anorxola kulbasi – vatan.
 Xufton yotib, azonda turar,
 Erta-yu kech eshik shipirar.
 Mashaqqatda o'tadi kuni,
 Holdan ketib sho'rlik qiz tuni
 Yarim karaxt, mudrar, yarim och;
 Usti-boshi yirtiq-yalang'och.
 Kun kechirar, ishlar tinmayin,
 Qayg'u to'la ovozi mayin,
 Qizning g'amgin holin anglatar,
 Qiz ichida og'ir dard yotar.

Oftob yiqdi qayg'u tog'ini,
 Oylar yoqdi tun chirog'ini.
 O'tdi kunlar, o'tdi zamonlar,
 O'tdi g'amga g'arq bo'lgan onlar.



Lekin ular esdan hech qachon,
Chiqarolmas va xotirga jon
Berur uning har sahifasi,
Eslaganda qizning siynasi
Chuqur bir oh bilan qo'zg'alur;
Og'ir-og'ir bir nafas olur.


Dovonlarni oshdi amallar,
Yashashdagi churuk tamallar.
Asosidan bir-bir buzuldi:
Vodiy bo'y lab **ferma** tuzildi.
Anorxola oilasi ham,
Ferma sari qo'ydilar qadam,
Va bo'y yetgan Zaynab ham ozod,
Erkin endi boshladi hayot.
Fermadagi mustaqil turmush
Va mahsuldor yaratuvchi ish
G'ussalarni ayladi barbod,
Faqat shunda u qozondi ot.
Shunda qadri-qiymati ortdi,
Shunda izzat-hurmati ortdi.
Atrofiga gullar sochildi,
Shunda uning baxti ochildi,
Faqat shunda sezdi begumon,
U o'zini haqiqiy inson.

Baxt jaranglar quvnoq sasida,
Na kulfati, na-da zori bor.
Anorxola oilasida
Endi uning e'tibori bor.
Endi uni kamsitmas hech kim,
Endi uni yetim deyar kim?
Zaynab o'sar oqil va dono,



So'zlarida mazmun va ma'no.
 O'sganida betashvish, beg'am.
 Buncha ziyrak bo'lmas edi ham
 Endi uning har narsasi bor,
 Endi unga hamma gap tayyor,
 Odamizot gulistonida,
 Saodatning baxt bo'stonida,
 Orzularga to'lig'dir ko'ngil.
 Vahimasiz osoyishta dil.
 O'ziga bir yo'ldoshni istar,
 Bir qadrdon sirdoshni istar.
 Zaynab Sobir kimligin bilmas,
 Zaynab hali o'z ishqida mast.
 Lekin Sobir uylda har kun,
 Shoshilinchcha to'y tayyorlanar.
 Ammo Zaynab ko'ksida har tun,
 Omonining yulduzi yonar.
 To'ydan faqat Anor xabardor,
 Uni Sobir onasi bardor,-
 Bardor etib yo'lga solmishdi.
 Ixtiyorin qo'lga olmishdir.

Tayyorlanar to'y, lekin Sobir
 Bu to'y uchun ajoyib bir sir,
 Chunki ona bog'ida u yo'q,
 U o'zining qishlog'ida yo'q.
 U, o'qirmish dorilfununda,
 Va onglarni qoplagan tunda
 Yulduz bo'lib uchar emish u;
 Yashin kabi ko'char emish u.
 Ona unga uy qilmoqchidir,
 Dabdabali to'y qilmoqchidir.
 Shuning uchun yo'lga ko'z tutar,



Kelishimi intizor kutar.
Zaynab endi o'z asrorini,
Armonini, istak, zorini
Opasiga etib oshkora,
Qilmoqchidir dardiga chora.
Faqat netib, qaysi yuz bilan,
Qaysi hayo, qaysi ko'z bilan,
Opasining yuziga qarar?
Tili so'zga qandayin borar?
Uyat o'ti yomib yuzida,
Bir iztirob ziyrak ko'zida.
Yolg'iz Huri sari talpinar,
Uni eslab yuragi tinar.

Chunki Huri Zaynabning butun
Asrорidan to'la xabardor,
Chunki uming bilan kun-u tun
Birga bo'lar. Har narsaki bor
Zaynab unga so'ylar, saqlamas,
Hech bir narsa yo'q Huri bilmas,
Hatto Omon bilan ham uni,
Tanushtirgan shu Huri edi.

XIV


Huri, Zaynab qosh qorayganda,
Kech qop-qora choyshab yoyganda
Ichkariga kelib kirdilar
Va Anorga salom berdilar.
Ko'rар ekan yuzi qizardi,
Opasiga yaqinroq bordi.
Anor esa chehrasi xandon,
Zaynab uchun berguday soya.

Atrofida parvona bo'lar
 Va ming karra undan o'rgular.
 Huri bo'lsa qilib tamosho,
 Aytajagin etardi insho.
 Lekin undan oldinroq Anor,
 So'z boshladi kulib beqaror.
 Iiliki qiz ham hang-u mang qoldi,
 Zaynabdagi sevinch yo'qoldi.

XV

«Ro'zi azal qiz xislatida
 Erga tegmoq odati bordir.
 Bu nasiba taqdir xatida
 Yozilgandir, oh bilan zordir.
 Bundan quruq qolgan peshona,
 Umri o'tar yona va yona,
 Qovushmoqlik qushlarda ham bor.
 Hamma izlar bir yo'dosh diydor.
 Bunga to'qqiz yoshlik Oyisha
 Muhammadga tekkani asos.
 Bunga berar o'ilm xotima,
 Bu payg'ambar qoldirgan meros...»

«Ko'zi tirik ekan otasin,
 Bir yaxshl niyati bor edi,
 Ya'ni Zaynab Sobirga bo'lsin –
 Degan vasiyati bor edi.
 Ne uchunki, u tug'ilganda
 Sobirga deb non sindirilgan,
 Nishon bo'lgan, yetib tolganda,
 Sobirjonga bo'lsin deyilgan».



Anor so'zlar va Zaynab qalbi
Tol bargiday dir-dir qaltirar.
Huri qo'yib jon qulog'ini,
Tinglar ekan labiari titrar.
«Endi, Zaynab bo'y yetib qoldi,
Yurtimizming mana eng oldi
Yigitlari unga xaridor,
Ko'p lochinlar chiroyiga zor.
Lekim Sobir hammadan go'zal.
Kecha qildik hamma gapni hal:
U shahardan kelish bilanoq,
To'y qilmoqqa ayladik qaror.
Ishlar bitdi, bitdi-yu biroq...»
«Biroq...» deya to'xtadi Anor,
Ikki qizga bir qarab oldi,
Atrofiga bir nazar soldi.
Qiz qalbida bo'g'ilardi jon.
Huri bo'lsa tamoman hayron.
Yana so'zmi boshladi Anor:
«...Biroq bunda bir andisha bor,
Chiqarmaslik-chun yomon ot,
Saqlash uchun nomus va uyat.
To to'y bo'lib o'tgunigacha,
Kelin bo'lib ketgumigacha,
Boshi ochiq chiqmas tashqari.
Shuni istar barcha yosh, qari».«
Zaynab tamom, tamom lol edi,
So'z qotishga u behol edi,
Tirnar edi qalbini azob,
Go'yo xasta, go'yoki betob,
U ichidan og'ir to'lg'anar.
G'azab bilan zohiri yonar.
Va Anorga qaramas aslo,

Og'ir dardga bo'lib mubtalo
 Tun singari bo'g'iq va sokin
 O'tiradi, sirdoshi lokin
 Oppa-ochiq tutashar edi,
 Daryo kabi u toshar edi:
 «Kechir opa, aytgan andishang
 Qizni qullik tomon qaytarur.
 Andisha deb sen urgan teshang
 Uni qora qoniga qorur.
 Agarda qiz bo'y yetgan esa,
 Bir oldidan o'tmas bo'lurmi?
 Va uyiga sovchilar kelsa,
 Roziligin kutmas bo'lurmi?
 Balkida bir degani bordir,
 Balki unga tegmoqlik ordir,
 Balki etib bir ahd-u paymon
 Vafosiga garov qo'yib jon
 Arz etgani kelgandir senga.
 Tez shoshilgan, yelgandir senga.
 Endi bunga ne chora bo'lur?
 Endi Zaynab bechora o'lur...»

Opasida g'azab otashi,
 Va Zaynabda andisha g'ashi.
 Yelkasida tog'day og'ir g'am;
 Anor ko'zi ichra jahannam
 Olovlarini tinmay lovillar,
 Va taftiga yuraklar cho'llar.
 Huri yoqib so'z gulxanini,
 O'rtar edi Anor tanini,
 Yana Anor o'tday tutaqib,
 So'z boshladi Huriga boqib:
 «Nima deysan, bunga Sobirdan



Ortiq yigit er bo'larmikin?
Butun yurtni axtarsa undan
Afzali hech topilarmikin?
Nimaga bu andisha bekor?
Nega unga tegmoq bo'ldi or?
Axir yurtda qancha go'zallar
Kelishini zoriqib kutar.
U bu yurtda eng zo'r bilimdon,
Paxta ilmin o'qipti chandon.
Yurtda barcha paxta ekkanlar
Xirmoniga chervon quyilar.
Axir yana bir andisha bor:
U Sobirga fotiha bo'lgan,
Vasiyatda uni ota zor,
Sobirjonga bo'ssin deb o'lgan.
Poymol qilib bo'lurmi bum?
Qaysi nomard istagay shuni?»

XXI

Yerda ekan ko'zining nuri.
Zaynab hamon jim, faqat Huri
Davom etar savol-javobda,
Jaranglaydi chalg'isi tobda:
«To'g'ri opa, senga ham qiyin,
Birovga so'z bergandan keyin
Uddasidan chiqmoq yaxshidir.
Andishamning sababi budir,
Zaynabning ham tanlagani bor.
Opa, faqat qizishma zinhor!
U Omonni sevib qolipti,
Sevib qolib, va'da olipti.
Opa, bu ish qizning haqqidir,


Andishamning sababi budir.
 Bunda yo'qdir hech qanday gunoh
 Zo'rlik bilan tegib, so'ngra oh
 Tortganning hech foydasi bo'lmas,
 Qiz ham odam, u bir mol emas,
 So'zda turmoq qiz uchun ham farz,
 Odamiylik qiz uchun ham qarz.
 Poymol qilib bo'lurmi buni?
 Qaysi nomard istagay shuni?»

XXII

G'azabida olam-olam o't,
 Tushunchasi qop-qora bulut –
 Kabi borgan sari quyular;
 Anor go'yo sochini yular
 Kabi bo'lib minar jahlga.
 Hamma gapni sovirib yelga,
 Yorgudayin Zaynab boshimi,
 Ota boshlar ta'na toshini:
 «Orttirganing birgina shumi?
 Ey sharmanda, benomus, bebosh.
 Baxt deganining shumidi, hali?
 Ishlayman deb topibsan o'ynash».

XXIII

Zaynab shunda qalbiga birdan
 Yashin urgan kabi sapchidi,
 Va boshini ko'tarib yerdan:
 «Jonim opa, to'xtagil! – dedi –
 Yalinaman, buncha tutashma,
 Yalinaman, bu qadar toshma.



Qilma opa, qalbimni pora,
To'xta, biroz anglasang zora.
Opa, uvol ko'zdagi yoshim,
Uvol g'amda xam bo'lsa boshim.
Opa, meni ozgina qizg'on,
Ko'karganda kul bo'lmasin jon,
Niyatingga yetkur, qulq sol.
Alamlaring ketkur, qulq sol».

XXIV

«Benomus qiz, ayt to'g'risini,
Baxti qora! El nomusini
Orsizlarcha poymol etganda,
Zarracha es bormidi sanda?
Qaysi shayton yo'lga boshiadi?
Qay haromi o'tga tashladi?
Yo'ldan urdi qaysi bir makkor?
Ochig'ini so'ylagil, beor.
Senga buni kimlar o'rgatdi,
Quchogingda qay iblis yotdi?
«O'n besh yoshda ekan kuyovga
Berganlari hamon esimda.
Qurban bo'ldim qaysi bir yovga,
Hamda mening toleyim kimda?—
Bilmas edim, bilmasdim aslo,
Lekin shukr, urmadi balo;
Chimildiqda ko'rdim erimni,
Menga yo'ldosh qildilar kimni?
So'ramadim, bo'ljadi ishim,
Hech kim bilan yo'qdir koyishlm.
Qolib ketdik butun umrga
Va shukrkim, kirmadik go'rga.

Shunday o'tdi yetti pushtimiz,
 Shunday o'tdi barcha xotin-qiz.
 Shunday o'tdi urug' va avlod
 Va hech biri qichqirmadi dod.
 Bizda odat mana shu edi,
 Va saodat mana shu edi.
 Sen sharmanda, endi bemalol,
 Hammasini qilibsan poymol».

Zaynab turar, qora ko'zidan
 Javdiragan yoshi tirqirar,
 Qoni qochib oppoq yuzidan
 Talvasada ko'kragi urar.
 Huri jimdirlar. Zaynab bepoyon,
 Alamini qilgali bayon –
 Bir chimrandi, silkindi boshi.
 So'z boshladi ko'zida yoshi.

«To'g'ri opa, butun baxtsizlik,
 Xo'rliklarning boisi shudir,
 Xotin-qizga xos bo'lgan qullik
 Shu odatda etmishdir zuhur.
 Butun qizlar, butun juvonlar
 Chilmildiqda erni ko'rdilar.
 Kuya-kuya kul bo'ldi jonlar,
 Cho'ri bo'lib yig'lab yurdilar.
 Cho'ri eding, qul eding baring,
 Rohat ko'rdi qaysi biringiz?
 Odam emas, ayiq bilan teng,
 Yovuz edi topgan eringiz.
 Har nomardga cho'kar edi tiz,
 Erksiz edi sizning hammangiz.
 Hammangizning taqdiringiz qul,



Hammangizning ollohingiz pul.
Hammangizning bulutda oyi,
Hammangiz ham bahor gadoyi.
Kechdim, opa, shunday odatdan,
Tamom kechdim bu saodatdan.

XXVII

«Sen o'zingni baxtli dedingmi?
Opa, sen ham odam edingmi?
Chimildiqda erni ko'rganda,
Tutqunlikka bo'lganda banda,
Qancha ojiz, qanchalik haqir,
Qanchalik xo'r, qanchalik faqir,
Bo'lganiningni bilganmiding hech?
Chimildiqda bahoringga kech
Tushgamidan xabardormiding?
Yashashingda insonlikka teng
Biror xislat, so'yla, bormidi?
Baxt deganining qayg'u zormidi?
Ko'zingni ko'r, qulog'ingni kar
Qilib har kun ichganda zahar,
Tole shu deb yurarmi beg'am.
Shukr qilarmiding shunga ham?

XXVIII

Shuning uchun qaytdim baridan
Va uyalib yosh-u qaridan.
Yurishimdan foyda topmadim,
Erk qidirdim, baxt shunda dedim.
Shuning uchun eski odatlar
O'lkasini ayladim poymol,

Va sen degan oq saodatlar
Qora dedim va topdim kamol.

XXIX

«Man o'zimni inson bilganda,
Gulga to'lib bahor kelganda
Yuragimda havas uyg'ondi,
Bir ajib o't bag'rimda yondi;
Va sevgiga topshirib dilni,
Bir yigitga berdim ko'ngilni
Uni har kun ko'rarkan tongda
Bir g'ulg'ula qo'pardi ongda.
Hech narsani ko'rmasdi ko'zim,
Epaqaga kelmasdi so'zim,
Ishlar edim o'zimni bilmay.
Va betinim ko'nglimdag'i nay
Aytar edi uning otini,
Kuyar edi shunda botinim.

XXX

«Opa, o'sha sevganim – Omon,
Opa, o'sha o'rtaguvchi jon.
Buni etib senga oshkora,
Yetishgali qilarkan chora.
Iqror bo'lkim, gunohim yo'qdir
Ochiq yurib topgan kishimdan.
Va beyazin qilgan ishimdan
Pushaymonim va ohim yo'qlir.



XXX

«Nima qilay, uzoq gapirdim,
Tushunchangni har tomon burdim,
G'araz shulkim, qaytmay yo'llimdan,
Kelganini qildim qo'llimdan.
Qancha yaxshi, barno bo'lsa ham.
Qancha olim, dono bo'lsa ham.
Sobir uchun meni qiynama,
Memi o'tga tashlama yana.
Menga yolg'iz Omonimni qo'y.
Menga o'sha yomonimni qo'y.
U, kam emas hech bir odamdan.
Men ul bilan uzoqman g'amdan.
Insof kelsin, opa, o'zingga
Tutqun bo'lib o'sgan qo'zingga
Rozilik ber, odam bo'l sen ham,
Saodat top va bo'limagin kam».«
Yuragini bo'shatdi oxir,
Dardlarini yumshatdi oxir.
Zaynab artib ko'zda yoshini,
Va ko'tarib egik boshimi
Opasiga «javob ber» dedi.
Anor hamon otashda edi:
«Bo'lmaydimi Sobir, tez gapir! —»
«Opa, bo'lmas, jonim, gapim bir! —»
«Yo meni de, yoki Omonni!»
«Netay, tikdim yo'lida jonne!»
«U pastkashning zoti kim ekan?»
«Opa, urma qalbimga tikan.
Uni men ham bilolganim yo'q,
Bu yumushni qilołganim yo'q.
Lekin ishonch bilan to'liqman.



Shu ishonchim bilan ulug‘man».
Anor aslo chiday olmadi,
Qolgan gapga qulqoq olmadi.
O‘zi birdan shovillab ketdi,
O‘t singari lovillab ketdi:

«Ko‘rinmagin, yo‘qol, ko‘zimga,
Yo‘qol, xotin bo‘lsang ham kimga,
Endi mening nomimni aytma,
Rasvolikdan orqangga qaytma.
Dargohimdan chiqib ket, darhol,
Endi seni ko‘rmaklik malol.
Qolganingda toza sharmanda,
Bo‘lganimgda ko‘chaga banda,
Shunda meni esga olursan,
Xizmatimni esga solursan.
Endi rasvo bo‘lguningcha, xayr,
Va benavo bo‘lguningcha, xayr».

XXXIV

«Xayr, opa, kelsang o‘zingga,
Rozi bo‘lgin bergen tuzingga.
Buncha qarg‘ish yomon emasmi?
Yurgan yo‘lim balandmi-pastmi –
Opa, endi o‘zim bilurman.
Bilganimni o‘zim qilurman.
Eshicingda asrandi bo‘lgan
Qora kunlar xotirda qolur.
Opa, sening miyangga to‘lgan
Bulut balki bir kun tarqalur.
So‘ngra o‘zing pushmon bo‘lursan,
So‘ng qayg‘uda mutloq o‘lursan.



Etolmadim tuzingni halol,
Choram yo'qdir, jon opa, xushqol...»

XXXV

Zaynab yana ko'zida yoshi,
Ham tutashib ichi va tashi
G'azab bilan o'rnidan turdi,
Tikkasiga ichkari yurdi.
Yig'ishtirib bor bisotini.
Bo'g'ozida tiqilib tini,
Huri sari qildi ishora,
Zaynab uchun shu bo'ldi chora.
Huri ikav uydan chiqdilar,
Anor bo'lsa ko'chaga ular
Chiqqanicha qarg'ishlab qoldi...
Butun elga yoyildi bu sir,
Va ertasi qishloqqa Sobir,
Keldi degan xabar tarqaldi.

Uchinchi bo'lim

I

Borliq uzra tushganda oqshom
Zaynab qo'ydi dalaga qadam.
Bir-bir bosib, ilgari yeldi,
Soy bo'yiga yaqinlab keldi.
Butun atrof, og'ir sukutda,
Yolg'iz Zaynab yuragi o'tda.
Bir guvohn suyalar shiddnrar.
Bir I uvo•l ko'kda om yurar.
Bir guvohi yulduzlar qator .
Turar qizning diydoriga zor.




Sekin-sekin iz tashiab Omon,
 Yaqin keldi suygani tomon
 Va ko'rdikim ajoyib bir hol.
 Zaynab turar qayg'uli va lol,
 Ko'zlarida yoshi bor edi
 Va egilgan boshi bor edi.

II

«Omon, menga o'zingni anglat,
 Ochiq gapir, so'zingni anglat.
 Aybi chiqdi qilgan ishimning,
 Ko'ngil berib suygan kishimning
 Kimligini bilmay uyaldim.
 Uyat emas qonga bo'yaldim.
 Bu ofatdan meni et xalos,
 Malomatdan meni et xalos.
 O'zing kimsan, bormi vataning?
 Qaysi eldan, zoting kim saning?
 Sezgilaring agar bo'lsa rost.
 So'zla biroz o'z sevgingga xos».

III

Omon uzoq o'ylarga ketdi,
 Dasht-u sahro, ko'ylarga ketdi.
 Eski qayg'u, ko'hna hikoya,
 Xotiriga tashladi soya.
 Omon uzoq-uzoq qoldi jim.
 Bo'g'iq-bo'g'iq nafas oldi jim.
 Oxir boqib qizning yuziga,
 Jon olg'uchi qora ko'ziga,
 O'tmishini ayladi bayon,
 Kim ekanin ayladi ayon:




«Senga endi nelar aytayin,
Qaydan boshlab, qaydan qaytayin;
Kimni yo'qlab, kimni eslasam,
Kimni qo'yib, kimlardan desam,
Kimning aystsam senga otini.
Bayon qilsam kimning zotini.
Kechir, Zaynab, ojizdir Omon.
Bu so'rog'ing jon o'rtar yomon.
Bu so'rog'ing jonne qaqshatar,
Bu so'rog'da qayg'u, zor yotar.
Bu so'rog'da olam va olam
Omon uchun hasrat bilan g'am.
Kechir, Zaynab, so'zlalmas tilim,
Kechir, Zaynab, chidalmas dilim,
Bu hikoya to'kar yoshimni,
Ham kuydirar ich-u toshimni.
«Kel bo'lmasa, qulq sol sen qiz,
Bizning' qadim, keksa dunyomiz
Ona mehri bilan to'liqdir,
Ona mehri bilan ulug'dir.
Har go'dakning bir onasi bor.
Har onaning o'z bolasi bor.
Ona uni bolam deb izlar,
Bola uni onam deb bo'zlar.
Ajal kelib bo'qqan chog'ida,
Ona hatto balo tog'ida
Izlar ekan o'z ovorasin.
It yo'qotgach jigarporasin
Chok etarmish o'z yoqasini.
Hatto qushlar o'z chaqasini
Issiq qanot ostiga olur,
Asrar uni, jonga jon solur.
Hatto qo'ng'iz o'z bolasini

Oppog‘im, deb bo‘lar ekan shod.
 Oppog‘im, deb qilar ekan yod.
 Har bechora va har bir gado,
 Farzand uchun qilgay jon fido.
 Va hattokim ilon ham chayon
 Jon porasin sevar begumon.


VI

«Gul ochilar bahor chog‘ida,
 Va to‘lishar ona bog‘ida,
 Ona sevmas farzand topilmas,
 Farzand yo‘qdir onani sevmas.
 Farzand guldir, ona bir bo‘ston,
 Shuning bilan jahon guliston.
 Yolg‘iz bir men onasiz o‘tdim,
 Yolg‘iz bir men zaqqumlar yutdim.
 Yolg‘iz bir men ona allasin
 Tinglagali bo‘ldim intizor.
 Yolg‘iz bir men onaning sasin
 Eshitolmay yig‘lab o‘tdim zor.
 Onaliklar saodatiga
 Bir oshkora suq bilan boqdim,
 Va tupurdim taqdir xatiga,
 Peshonamni o‘tlarga tutdim.
 Ona nomin eshitganimda,
 Xo‘rsinardim, o‘pkam to‘lardi.
 Mening kuchsiz, ojiz tanimda
 Bir qaltirash paydo bo‘lardi.

«Rosa tuqqiz ekanda yoshim,
 Bir baloga duch keldi boshim.
 Oqsoch kampir bir sirni ochdi,




Sirni ohib qonimni sochdi:
«Bolam, aytsam rostini senga,
Hech bir kimsang yo'q...» dedi menga.
Shohid topib yosh-u qaridan,
Zarafshonning qирg'oqlaridan
Topganini qildi hikoya:
«Na hamshira va na bir doya,
Na bir oshno, na bir qarindosh
Na bir sirdosh va na bir yo'ldosh.
Bu dunyoda bo'l mamish senga» –
Deya g'amgin yuzlandi menga.
Oqsoch xotin yig'lab zor-zor,
Bo'lganini ayladi izhor:
«Seni boqdim Xudo yo'liga,
Topshiraman yana qo'liga,
Bo'lsa agar o'zi mehribon,
Panohida saqlagay omon.
Bolam, endi yurt tinchib qoldi,
El-u xalq ham erkin tin oldi.
Agar yurtni yurib izlasang,
Balki chiqar otang va onang.
Kim biladi, balki hayotdir,
Va ehtimol hayotga yotdir.
Kim biladi, balki Zarafshon
Senga o'zi berar bir nishon.
Duo qildim, baxting yor bo'ssin,
Manglayingda taxting bor bo'ssin».«
Deya oqsoch qo'lini ochdi,
Yuzlaridan issiq qon qochdi.
Og'ir edi bu benihoya,
Bulut soldi qalbimga soya,
Chiqib ketdim shunda bosh olib,
Ko'zlarimga qonli yosh olib.

**VIII**

«Necha kunlar yurib Zarafshon,
 Bo'ylaridan izladim nishon.
 Necha turli ellarni ko'rdim,
 Izgirinlar, yellarni ko'rdim,
 Hamma yoqqa ko'zim nigoron,
 Yosh o'rniغا to'kar edim qon.
 Kirib ko'rdim har bir xonani,
 Har bir kulba, har hamxonani,
 Har bir odam bilan uchrashdim,
 Qirlar oshdim, tog'larni oshdim.
 Dush kelganning, lekin biri ham,
 Otang men, deb urolmadi dam.
 Necha-necha erkak va ayol
 Savolimga bo'lib qoldi lol.
 Zarafshonda yana yugurdim.
 Qirg'oqlarga o'zimni urdim.
 Va izladim yona va yona,
 Topolmayin hech bir nishona.

IX

«Daryo kabi mavj urib toshdim,
 Vodiylarda yolg'iz adashdim,
 Har ko'rgandan ayladim so'roq,
 Achchiq javob eshitdim biroq:
 Hamma menga: izlaganlaring,
 Dedilarkim, o'lganlar sening,
 Yurt boshini zulm bosganda,
 Ofat bilan o'lim bosganda,
 Muhtojlikda o'lgan, dedilar
 Va ochlikda o'lgan dedilar.



Har vodiyni bir-bir izladim,
Yetim qo'zi yanglig' bo'zladim.
Boshim uzra qushlar chirqirab,
Charx urdilar holimni so'rab.
Chirqirashib barcha beqaror,
El javobin qildilar takror.
Gulzorlardan, bog'lardan o'tdim,
Bozorlardan, tog'lardan o'tdim.
Butun yurtni osoyish topdim,
El-u xalqni bekoyish topdim,
Faqt dardga topolmay chora,
Bagrim edi pora va pora.

X

«So'z ayturga tilim bo'ldi lol,
Nega mendan so'rading savol?
Nega eski dog'larni ochding,
Dog' ustiga og'ular sochding.
Nega kelding mening yonimga,
O't tashlading nega jonimga?
Tutashgusi qalbimga otash,
Jang qilgusi otash bilan g'ash.
Shu otashda bo'lurman xazon
Va shu g'amda bo'lurman xazon.
Odam esang yetgil dodimga,
O'tganlarni solma yodimga.
Zarafshonda Omonni bilgan
Qari-qartang odamlardan so'r!
Bahor fasli erta ochilgan,
Oppoq gulli bodomlardan so'r.
Majnuntolning butoqlarida
Qushlar tinmay Omonni kuylar,

Sen suymagan yomonni kuylar.
Zarafshonning qirg'oqlarida
Topganlardan so'rasang, so'ylar
Aytib berar uning otini,
Aytib berar asli, zotini.
Qutilarsan ko'zning yoshidan,
Qutilarsan ta'na toshidan.

XI

«Ne daryolar oqib o'tdilar.
Qancha yillar o'tib ketdilar.
U hovliqma, qadim Zarafshon
Bino etdi ko'p yangi doston.
Vodiylarni, tog'larni oshib,
Daralarda yolg'iz adashib,
Kelib qoldi yurtingga Omon,
Kelib qoldi ranglari somon.
Yurak-bag'ri yonib, tutaqib,
Har ko'rganga suq bilan boqib,
Bunda topdi bir yangi zamon.
Bul zamonda ul bo'ldi Omon!
Shundan beri yurtingda sening
U bo'lgandir odam bilan teng.

XII

«Sen ishlagan fermada ul ham
Topdi hamma dardiga malham.
Esdan chiqib fig'on-u faryod,
Taqdiridan bo'lgandir ul shod.
Omon topdi bunda parcha non,
Non demakim, Omon topdi jon.



Dunyo unga go'zal ko'rindi,
Hayotidan ma'nolar undi.
Yuragida havaslar paydo,
Orzularga ul bo'ldi shaydo.
Bir yuqori olamga boqdi,
Shunday oliy bir damga boqdi.
Hatto, bilsang, Omonning bu bor
Ko'ngli ishqni qildi ixtiyor.

XIII

«Ol, deb, senga qo'lni uzatdim.
Qo'lni emas, qalbimni ottdim.
Ko'z oldimda butun bir jahon,
Sening bilan bo'ldi guliston.
Ishqingda men bahorlar topdim,
Bahor ichra nahorlar topdim.
Nahorlarda ochildi gullar,
Olam-olam gul bo'ldi cho'llar.
Shundan ko'rdim saodatimni,
Ma'qul qildim bu odatimni.
So'zlab bersam o'z sevgimga xos,
Seni jondan sevganligim rost.
Gar ishonsang aytgan so'zimga,
Sen bo'lganda – mening ko'zimga
Hech bir narsa ko'rinas, xolos».

XIV

Omon tindi. Zaynab boshini
Ko'tardi-yu artdi yoshini.
Qalbidagi har qancha gumon,
Tarqalgandi misoli tuman.


Qarashida ishonch bor edi,
 Qismatiga tole yor edi.
 Bir qanoat qilgandi paydo,
 Omoniga bo'lgandi shaydo.
 Ikki ko'zning qorachug'ida,
 Butun olam topmishdi makon.
 Ikki qalbning qizg'm cho'g'ida
 Butun olam edi charog'on...

XV

Daryo tinmay solardi shovqin,
 Qiz ko'ziday qora edi tun.
 Qiz qalbiday pok edi havo,
 Qiz qalbiday sevgiga davo.
 Borliqdagi shu nafis holda
 Yaproqlar ham yengil shamolda
 Shitirlashib o'yin solardi.
 Bir-biridan bo'sa olardi.
 Butun borliq jon qulog'ini
 Qo'yib timglar Omonning sasin
 Ikki do'stning baxtli chog'ini,
 Ikki yorning otash bo'sasin...

XVI

Tun ustiga kun nuri yotdi,
 Bir ajoyib go'zal tong otdi.
 Huri, Zaynab turib ikovlon,
 Sobir tomon bo'ldilar ravon.
 Bukun Zaynab yurishlarida,
 Yurish bilan turishlarida
 Bir ajoyib mardlik bor zdi.



Bir jasurlik unga yor edi.
Choy ustida o'tirar ekan,
Xomush turib o'y surar ekan,
Sobir ko'zi tushdi eshikka,
Qizlar tomon qo'zg'aldi tikka.
Ota-onal qotib qoldilar,
Taajjubga botib qoldilar.
Zaynab sekim so'zga kirishdi,
Hikoyaning boshidan tushdi:

XVII

«Sobir, yolg'iz senga suyandim,
Eshit meni, bir o'tda yondim,
Boshim uzra sindi og'ir tosh,
Seni deya qavm-u qarindosh
Ixtiyorim olgan ekanlar.
Va kishanga solgan ekanlar.
Men Omonga ko'ngil beruvdim.
To o'lguncha o'shani devdim.
Sevganimni bilib Omonni,
Oqizdilar bag'rimdan qonni.
Malomatga tamom ko'mildim.
Haqoratda go'yoki o'ldim.
Yetsang deya dodimga zora,
Izlab keldim o'zingga chora.
Qilg'il, og'a, dardimga darmon.
Qo'yg'il, og'a, bitta bechora
Tilagiga yetsin bearmon;
Bu dunyodan o'tsin bearmon.
Men hech sening tenging emasman,
Omonim bor, seni demasman.
U kam emas hech bir odamdan,

Men u bilan uzoqman g‘amdan.
 Qilmoq kerak va’daga vafo,
 Vafosizlar tortgusi jafo.
 Bahor payti otlar chopilur,
 Sen deganda bir yor topilur.
 Sen deganda har qiz, har juvon
 Ko‘ngil berur, fido qilur jon.
 Qutqar meni, keldim o‘zingga,
 Muhtojdurmen sening so‘zingga».

XVIII

Sobir tamom hayratda qoldi.
 Bir iztirob, bir dardda qoldi
 O‘rtandi-yu achindi joni,
 Joni emas butun jahoni.
 Achlndi-yu to‘lg‘andi bir bor,
 Qizga boqdi takror va takror.
 Onasiga tomon yuzlandi,
 Yuzlandi-yu rangi bo‘zlardi.
 Yuragida boshlandi bir g‘ash.
 G‘ash ichlda qizg‘in bir otash.
 Achchiq-achchiq bir so‘z boshladi.
 Hikmatlarni chizib tashiadi;

XIX

«Qarindoshlar yig‘smlar esiy,
 Shu choqqacha inson sezgisin
 O‘yin, mazah bo‘lgani basdir.
 Endi dunyo bozor emasdир.
 Endi odam quldek sotilmas.
 Endi odam o‘tga otilmas.



Endi unga qafas bo'lmas jon,
Endi dunyo bo'lmagay zindon.
Endi odam istar bo'lsa yor,
O'z sevganin qilsin ixtiyor.

XX

«Mening ham bir suygan gulim bor,
Mening ham bir o'z bulbulim bor.
Kerakdirkim qavm-u qarindosh,
Rozi bo'lib birga qo'shsa bosh.
Endi shunday odat kerakdir
Va saodat shunday kerakdir.
Xohishlarining bo'lmasin uvol,
Ota-onha istagin ado qilib,
Sening erkingni poymol,
Etsam agar bo'layin gado.
Bor, azizim, yosh ko'ngling to'lsin,
Bor, suyganing o'zingga bo'lsin».

XXI


Zaynab unga xomush egildi,
Qaddi uning salomga keldi.
Bo'lib undan jahon-jahon shod,
Huri bilan hurmat qilib yod,
Darhol turib yo'lga qaytdilar,
Va Omonga kelib aytdilar.
Birdan bo'ldi olam guliston,
Zaynab, Omon qalbida bo'ston.

XXII

Shu kuniyoq butun qishloqqa,
 Qishloqdagi el birla xalqqa
 Bu mojaro bo'ldi ovoza.
 Har bir qo'ra, har bir darvoza,
 Bo'lib bundan tamom xabardor.
 So'ylardilar takror va takror.
 So'ylardilar Zaynab holidan,
 So'ylardilar Sobir folidan,
 Kuyganini Anorning halol,
 Boqqanini Omonga iqbol.
 So'ylardilar ertangi to'ydan,
 To'y kechasi aytilur kuydan,
 Qilardilar tinmay hikoya,
 So'ylardilar ko'p, benihoya.

XXIII

Hayrat bilan qavm-u qarindosh,
 Yig'ildilar qo'shmoq uchun bosh.
 Biri xursand, biri alamda,
 Ne qilarin bilmas bu damda.
 Biri to'kar edi ko'zdan yosh,
 Qizlarining bu xil mayliga,
 Zamonaning bunday zayliga,
 Barcha birday hayron edilar,
 Hayron-u sargardon edilar.
 Bu hollarga barcha qolib tang,
 Hayron edi barcha es-u ong.
 Taajjubda tishlab tishlarin,
 Bilmasdilar qilar ishlarin.
 Hammasida bir dard bor edi.



Erklilarda hasad bor edi.
Yoshliklarin hasratda xazon
Qilgan uchun bo'lib pushaymon,
Hur qizlarni oqlar edilar,
Bir ehtirom saqlar edilar.
Adil turib yoqlar edilar.
O'tganlarni barcha qilib yod.
Zamonadan bo'lardilar shod.

XXIV

Fermadagi katta ravotda,
Bir alomat shovqin bor edi,
Kelardilar piyoda, otda,
Shunday katta saroy tor edi.
Bundan xabar topgan barcha el,
Yig'ilardi go'yoki bir sel.
Qutlab Zaynab, Omon to'yini,
Hamma xursand kelar edilar.
Bir alomat to'y bo'larini,
Hamma yaxshi bilar edilar.

XXV


Kirib keldi jimgina Anor,
Qovog'idan yog'ar edi qor.
Ular Sobir onasi bilan,
To'yxonada bo'lishib bir tan,
Bir burchakdan o'rinn oldilar,
Bir noiloj nazar soldilar.
Bu ikovning ko'z qarashida
Ming-ming yashab Huri yurardi.
Javlon urib to'yning boshida,
Yulduz kabi yashnab turardi.

XXVI

To'rga katta gilam soldilar,
 O'yinchilar kelib qoldilar.
 Chalg'uchilar boshladilar soz.
 Qo'shiqchilar soldilar ovoz.
 Halimaxon, Naziraxonlar,
 Nadimaxon, Karimaxonlar,
 Qushday yengil uchar edilar
 Oq bulutday ko'char edilar.
 Oqshomgacha bo'ldi tomosha,
 Butun yurtga to'ldi tomosha.
 Kelin-kuyov – Zaynab va Omon,
 Boqardilar ma'sum har tomon.
 Xursand edi behad ikki yor,
 Xursand edi ikki baxtiyor.

XXVII

Zaynab bilan Omon ikovning –
 Yangi kelin, yangi kuyovning
 Baxti shunday bo'ldi barqaror.
 Sahargacha qiz-u juvonlar,
 Dugonalar va mehribonlar
 Uzatdilar aytib yor-yor.
 Ikki o'rtoq, ikki shirin jon,
 Yangi uuga bo'ldilar mehmon.
 Go'zal edi dunyo chunon ham,
 Go'zal edi bu ajoyib dam.
 Ikki do'stga aytib sharaf, shon,
 Oqar edi toshqin Zarafshon.
 Olam sari sochib yangi ong,
 Sekin-sekin yorishardi tong.



SEMURG‘, PARIZOD VA BUNYOD

I


Sarvqomat Parizod
O‘sdi g‘amlardan ozod.
Bahor yanglig‘ ochildi,
Gullar yanglig‘ sochildi.
Chiroyidan ovoza,
Elga tarqaldi toza.
Har yerga doston bo‘ldi,
Dostonga bo‘ston bo‘ldi.
Ko‘rmaganlar ko‘rishni,
Ko‘rganlar oltirishni
Qilar bo‘ldilar orzu,
Barcha tosh-u tarozu
Shu gapni oлchar bo‘ldi,
So‘zlar oltin-zar bo‘ldi.
Shaydolar ko‘p beqaror,
Yigitlar bo‘ldilar zor.
Tun keldi-yu shom ketdi,
Uyqudan orom ketdi.
Hamma bo‘ldi xaridor,
Qizidi katta bozor.
Elchilar yog‘ildilar,
Katta g‘avg‘o qildilar.
Lekin u odam sevmas,
Doim o‘zi bilan mast.
Eldagi navqironlar,



Navqiron pahlavonlar
 Unga aslo yoqmaydi,
 Oshiqlarga boqmaydi.
 Yuragida sevgi yo‘q,
 Qalbi marmarday sovuq.
 U odamlik qarzini,
 Sevguvchining arzini
 Olib orqaga tashiar,
 Shuncha-shuncha otashiar
 Eshigida so‘nadi,
 Otashdan kul unadi.
 Bahri ochilmaydi hech,
 Chehrasi kulmaydi hech.
 Elchi bo‘lib kelganlar,
 Qizning sirin bilganlar
 Noumid qaytadilar,
 Mardumga aytadilar.
 Xalq ichida Parizod
 Chiqaradi yomon ot.

* * *

O‘z qizidan pushaymon
 Bo‘lib shuning uchun xon
 Kecha-kunduz o‘ylaydi,
 Yoz bilan kuz o‘ylaydi:
 «El rasmini qilmagan,
 Sevgi nima bilmagan,
 Qari qizni netayim?
 Chiqib qayga ketayin?
 Qaylarga urayin bosh?
 Buncha sovuq, bag‘ri tosh
 Qizni qaydan yaratdim?
 O‘zimni o‘tga otdim.



Men nimaga yarayman,
Yurtga qanday qarayman.
Boshimga bu Parizod
Balolar keltirdi bot».

* * *

Qizini chaqirib xon,
Shunday boshladi fig'on:
«Eshit, qizim Parizod,
Chiqaribsan yomon ot.
Sening bag'ring tosh emish,
Ko'zlarining beyosh emish,
Aslo sevmas emishsan,
Erga chiqmam, demishsan.
Men malomatga qoldim,
Zo'r qiyomatga oldim.
Sening yomon dostoning
Meni tuproq bilan teng –
Qilib uyatga qo'ydi,
Meni bepichoq so'ydi.
Qizim men ham qaridim,
Go'rga tomon daridim.
Yoshim yetmishta bordi,
Soch-soqolim oqardi.
Yurak-bag'rimni o'yding,
Meni nomusga qo'yding.
Otangga berma azob,
Azobga qolmagan tob.
Tosh yuraging yumshasin,
Eshitsim qalblar sasin.
Otang hurmati uchun
Ko'rsat mardlikning kuchin.
Kel, blrovga ko'ngil ber,



Bir yigitga deb gul ber.
Biroz andishaga bor,
Meni g‘avg‘odan qutqar!»

II

Parizod o‘ylab qoldi,
Ko‘p uzoq begap qoldi.
«Mayli, – dedi u xonga,
Bir umid solib jonga, –
Yolg‘iz bir shart qo‘yaman,
Bajarganni suyaman.
Hovlida bor zo‘r chinor,
Chinor emas, u bir dor.
Biladi juda ko‘p sir,
Yashar yuz yil – bir asr.
Yoshi ko‘pga ketadi,
Boshi ko‘kka yetadi.
O‘lkaga jar solaman,
Yerlarga zar solaman.
Shartim shuki, ot bilan,
Go‘yoki qanot bilan
Shu chinorga chiqqanga,
Chiqib uni yiqqanga
So‘zsiz xotin bo‘laman,
Go‘zal otin bo‘laman.
Barcha qarshimdan o‘tsin,
Mard o‘zini tanitsin.
Agar shunda ham qalbim
Yumshamasdan qolsa jim
Uzib olib otarman,
Qassoblarga sotarman».
Shunday degach Parizod,



Xon bo'ldi poyonsiz shod.
Jarchilarni chorlatdi,
Har biriga so'z qotdi:
«Yurtga xabar beringiz,
Aytingiz har biringiz,
Xon qiziga xaridor,
Parizod husniga zor
Bo'lganlarga baxt kului,
Birgalashib taxt kului.
Qo'rmasdan kela bersin,
Baxtini bila bersin.
Sharti shulkim, ot bilan,
Go'yoki qanot bilan
Zo'r chinorga chiqqanga,
Chiqib uni yiqqanga,
Parizod xotin bo'lur,
Bir go'zal otin bo'lur.
Ayting, har bir mard kelsin,
Har bir mard bedard kelsin.
Sinasin o'z baxtini,
Baxti qo'llasin uni.
Ko'rganlar olsin darmon,
Ko'rmagan qilsin armon».

III


Har yoqqa xabarchilar –
Tili uzun jarchilar
Chopa-chopa ketdilar,
Bozorlarga yetdilar.
Karnay, surnay chaldirib,
Suyunchilar oldirib,
Qildilar katta e'lon.



Xabarlar ketdi har yon.
 Xonning xabarin olib,
 Hamma birdan qo'zg'alib,
 Zo'r shov-shuv bo'lib qoldi.
 Yurtga gap to'lib qoldi.

IV

Ertasiga barcha el,
 Kela berdi bog'lab bel.
 Chavandoz, pahlavonlar,
 Barcha sohibqironlar.
 Otlarni gijinglatib,
 Qamchilarni o'ynatib,
 Kela berdilar bari,
 Kattakon chinor sari.
 Baxmal jabduqlar urib,
 Suluv qizlarday yurib,
 Arg'umoqlar chopdilar,
 Yer va ko'kni yopdilar.
 So'liqlarni tishiashib,
 Mast bo'lishib kishnashib,
 Dunyo-dunyo chang-to'zon
 Ichida qolib osmon,
 Kela berdilar bari
 Kattakon chinor sari.
 Chumoliday chuvashib,
 Qir va tog'larda oshib,
 Suv bo'yalarida yotib,
 Yurganda o'qlar otib,
 Oshiqlar poda-poda
 Bo'lib cho'l-u sahroda,
 Kela berdilar bari



Kattakon chinor sari.
Xon qizin olmoq uchun,
Elga sinalmoq uchun,
Baxtim bormi ekan, deb,
Menga yormi ekan, deb,
Kela berdilar bari
Kattakon chinor sari.

V

Yetti kecha, yetti kun,
Yetti kunduz, yetti tun.
Zo'r chinorga chiqmoqqa,
Chiqib uni yiqmoqqa
Hamma xezlab ko'rdilar,
O'zni o'qday urdilar.
Necha manman deganlar,
Ilon po'stin yeganlar
Yiqila berdi bir-bir,
Makon bo'lta berdi yer.
Chinor hech silkinmadi,
Bir shoxi ham sinmadi.
Qushday uchib kelganlar,
Shamol kabi yelganlar
Yarim yolda tindilar,
Yana otga mindilar.
Yana xezlab ko'rdilar,
O'zni o'qday urdilar,
Murod hosil bo'lmasdi,
Ko'ngillari to'lmasdi.
Ilonday chirmashganlar,
Chirmashib tirmashganlar
Yana qaytdilar ketga,



Chiqa berdilar chetga.
 Qancha suluв arg'umoq
 Yiqillb bo'ldi cho'loq.
 Qancha-qancha chavandoz
 Bo'ldi tuproq bilan soz.
 Ko'plarning beli sindi,
 Ko'plarning umri tindi.
 Kunlar o'tdi va ammo
 Hal bo'lmasdi muammo.
 Zo'r chinorga chiqmoqqa,
 Chiqib uni yiqmoqqa
 Hech kim erisholmadi,
 Jumboqni yecholmadi.
 Kelganlar bo'lib hayron,
 Ko'plar bo'lib pushaymon,
 Bir-bir tarqab ketdilar
 Manzillarga yetdilar.


VI

Bu hollarni ko'rib xon,
 Yutdi laxta-laxta qon.
 Parizod xunob bo'ldi,
 Xunob-u betob bo'ldi.
 Qiz berganni qarg'ishlab,
 Peshonasiga mushtlab,
 Yana axtarib chora,
 Xon o'rtandi tobora.
 Odamlarni chaqirdi,
 O't ichida baqirdi:
 «Bu maydonga kirmagan,
 Bizning shartni bilmagan
 Ayting, yana kim qoldi?»



Hamma odam jim qoldi.
Og'ir o'yga botdilar,
Oxir shuni aytdilar:
«Yolg'iz bir Bunyod qoldi,
O'sha bir beot qoldi.
U bir cho'pon bechora,
Bu ishga topmas chora.
Parizodga teng bo'lmas,
Kiyimiga yeng bo'lmas.
Chinorga chiqolmas ham,
Chiqolmas, yiqlomas ham».«
Xon hech qulq solmadi,
Pisandiga olmadi:
«Bu gaplar bari bekor,
Bu bilan hech bitmas kor.
Qayda bo'lsa ham Bunyod
Topib keltirilsin bot!
Men otimni beraman,
Qanotimni beraman.
Agar chinorga chiqsa
Va chiqib uni yiqlasa
Ahmoq, bees bo'lsa ham,
Moxov va pes bo'lsa ham,
Mening qizim Parizod
Unga xotin bo'lur bot».«
Bunyodni tog' tagidan,
Daryoning etagidan
Topib keltirdilar bot,
Xon berdi noiloj ot.
Zo'r chinorga qarandi,
Ichida bir g'ash yondi.
Tanini qurshab o'tlar,
Chinor shoxi bulutlar

Oraslda ko'rindi,
Bunyod fikr surindi.
Yonidagi uchqur ot
Chiqarib bir zo'r qanot,
Ko'kka qarab kishnadi,
Yolin tarab kishnadi.
Butun atrof xaloyiq
Bilan to'lib ketdi liq.
Hayot umri qurib, xon
Tikilar edi hayron.
Ne bo'larkin, der edi,
Zahar-zaqqum yer edi.
Talvasada Parizod,
Chekar edi fig'on, dod.
Bunyodga g'ayrat kirdi,
Yuragiga dard kirdi.
Yurib bahodirona,
Otga mindi mardona.
Qattiq bir qamchin soldi,
Yolg'on emas, chin soldi.
Ot yashinday qo'zg'aldi,
O't singari yo'l oldi.
Bulutlar orasida,
Osmonning qorasida,
Yozib borar qulochin,
Go'yo bir buyuk lochin
U chinorga o'tirdi,
Go'yoki o'qday urdi.
Chinor tomiri bilan,
Ko'kargan yeri bilan
Qo'porildi guvillab,
Shamol kabi uvillab.
Zo'r shoxlar yerga ketdi,



Tomir osmonga yetdi.
Yer uzra tushib Bunyod,
Bo'lib dunyo-dunyo shod,
Go'zal duldul otida,
Otining qanotida.
Ko'zlarida zo'r yog'du,
Kulib turar edi u.
Ko'rsatguvchiga zo'r ish,
El so'zlar edi olqish.
Yurak yorilguday xon
Xursand edi bepoyon.
Parizod bo'lib behol,
Turib qolgan edi lol.

VII

To'y bo'ladi deya el,
Bosa berdi go'yo sel.
Barcha shoshiqar edi,
To'y deb oshiqar edi.
Qotib qolgan Parizod
Oldiga keldi Bunyod.
Sekin qo'lin uzatdi,
Qalbiga zo'r tosh otdi.
Parizod bir emrandi,
Qosh-qovog'i chimrandi.
«To'g'ri, – dedi, – sen yutding,
Sovuq qo'limni tutding,
Nima qilay, roziman,
O'zimdan noroziman.
Baxtim ochilmadi hech,
Aytganim bo'ljadi hech.
Faqat, agar unasang,

Unab yo'lga jo'nasang,
 Yana bir shart qo'yardim,
 Yana sinab ko'rardim.
 Shundan so'ngra umrbod
 Senga bo'lar Parizod».
 Bunyod ham rozi bo'ldi,
 «Gapir, – deya bukildi, –
 Gaping bo'lsa ayta ber,
 Ko'ngling to'lsa ayta ber.
 Har bir ishni bilarman,
 Har nimani qillarman.
 Ko'nglingni ololmasam,
 Bir orom solołmasam.
 Yo'ldosh bo'lolmasman hech,
 Sen ham unday yordan kech».
 Tikka turib, Parizod –
 Shartin eshitdi Bunyod.

VIII

«Kun botarda bir yovuz
 Dev bor emish yalmog'iz.
 Odamga dushman emish,
 Qon emish unga yemish.
 Har musibat, har ofat,
 Har bir mudhish kasofat,
 Barcha jabr-u jafolar,
 Hamma dard-u balolar
 O'shandan kelar emish.
 Odamlarni yemirish
 Bilan bo'lar emish shod,
 Ko'ngli g'amlardan ozod.
 O'zi balo tog'ining



Va ofat bulog‘ining
Boshida oltirarmish
Kun-u tun-u, yoz ham qish.
Uni ko‘rgan har chaman
Qo‘yarkan tuproqqa tan.
U tikilgan har bir gul
To‘kilar ekan butkul.
Uni ko‘rgan har bir jon
Tez bo‘lar ekan xazon.
Daryolar qurir ekan,
Baliqlar churir ekan.
Undan har kun tabiat
Olar ekan qora xat.
Ikki oy-u ikki yil
Yursang bog‘lab mahkam bel
Makoniga borarsan,
Andomiga qararsan.
O‘rtangizda jang bo‘lur,
Ikki olam tang bo‘lur.
Shuni jangda o‘ldirsang,
Hayotini so‘ldirsang.
Qo‘ling bilan odamzot
Balodan bo‘lsa ozod,
Devni o‘ldirib agar,
Qaytib kelsang bezarar,
Shu kuni to‘y boshlarmiz,
G‘am-g‘ussani tashlarmiz».

IX

Parizod yerga boqdi,
Bunyodni o‘tlar yoqdi.
Bo‘lib xonning holi tang,

Qotib qoldi hang-u mang.
 Kalavasi chuvaldi,
 Bor umidi yo'qoldi.
 Taajjubda xaloyiq
 Ko'ziga yosh oldi jiq.
 Bunyod uzoqqa boqdi,
 Chorvoqqa, toqqa boqdi.
 Nazari cho'lga tushdi.
 Huv deya yo'lga tushdi.
 Ko'zdan yo'qoldi shu on,
 Tarqaldi hamma hayron.
 Baland tog'lardan oshdi,
 Daralarda adashdi.
 Vodiylarga ko'z yoshi
 To'kib aylandi boshi.
 Daryolardan o'tdi ul,
 Yana uzoq ketdi ul.
 Yurti qoldi uzoqda,
 Tushunchasi tuzoqda.
 Zo'r bir ishga qo'shib bosh,
 O'ziga o'zi yo'ldosh,
 Uzoq cho'llarga yetdi,
 Qaynoq ko'llarga yetdi.
 Poyoni yo'q keng sahro
 O't purkab soldi sado.
 Oyog'i ostida qum
 Yotadi uyum-uyum.
 Biror ko'kat ko'rinas,
 Bir jonivor urinmas.
 Yoniga tushib quyosh,
 Kuyar edi ich-u tash.
 Boshdan ter quyar edi,
 Oyog'i kuyar edi.




Halqumlari bo'lib qoq,
Toqatlari bo'lib toq,
Qimirlar edi sekin,
Zo'rg'a olar edi tin.

X

Bir yildan so'ng banogoh,
Bir sirdan bo'ldi ogoh.
Poyoni yo'q keng cho'lda,
Qaynagan qumlik ko'lda
Bir zo'r daraxt ko'rindi,
O'shangga ko'zi to'ndi.
Ko'p toliqqan bu odam
Shu tomon qo'ydi qadam.
Daraxt qurigan edi,
Qurib churigan edi.
Edi minglar yoshida,
Uning baland boshida –
Qush uyasi bor edi,
Ham zo'r hamda tor edi.
Daraxtga bir zo'r ilon
Chirmashib, u oshiyon.
Sari zahar sochardi
Ham og'zini ochardi.
Chaqalar chlrqirashib,
Faryod qilib tutashib,
Onani kutar edi,
Qon, zardob yutar edi.
Bag'rini o'rtab bu dod
Yaqinroq bordi Bunyod.
Yordamga fahmi keldi,
Qushlarga rahmi keldi.

Qilichini chiqarib,
 Daraxt yoniga borib,
 O'sha yovuz ilonni,
 Xunuk va mudhish jonni
 To'grab tashladi shu on,
 Qumlar bo'ldi qizil qon.
 Chaqalar omon qoldi,
 Ancha omon jon qoldi.
 Chaqalarni qutqarib,
 Ilonni qonga qorib,
 Daraxtning soyasida,
 Uya himoyasida
 Uzoq uyquga ketdi,
 Joniga orom yetdi.
 Kun choshgohdan oqqanda,
 Quyosh tikka boqqanda,
 Qo'zg'algan kabi bo'ron,
 Guvillab qoldi osmon.
 Yashin uchganday bo'ldi,
 Poda ko'chganday bo'ldi.
 Ko'kni tutib qanoti,
 Butun olamning oti –
 Semurg' qush kelib qoldi,
 Bunyodni bilib qoldi.
 Changalida zo'r arslon,
 Tumshug'ida botmon don,
 Ko'zi ichidagi o't
 Olamni qilib nobud,
 Uyasiga qo'nmasdan,
 Bir oz bo'lsin tinmasdan
 Bunyodning boshi uzra
 Chiza berdi doira.
 Jahon buzib o'kirdi,




Qah-qah urib bo'kirdi.
Yemak uchun odammi,
Torta berdi u damni.
Chaqalari chlrqirab,
Ko'z yoshlari tirqirab,
Yalindilar: qizg'an, deb,
U bir gunohsiz jon, deb:
«Qizg'an, ona, o'ksizni,
O'sha qutqazdi bizni.
Bo'lmasa o'lar edik,
Ochilmay so'lar edik.
Bizni yer edi ilon,
Ayrilarding, onajon».

XI

Semurg' o'ylanib qoldi,
Qalbini shafqat oldi.
Qumning bag'riga botgan,
Quyoshda kuyib yotgan
Bunyodga soya soldi,
Qanot ostiga oldi.
Qush nomli bu buyuk zot,
Undagi kumush qanot,
Butun borliqni tutdi,
Bor osmonni berkitdi.
Bunyod salqin soyada,
Bunday zo'r himoyada
Yetti tunni uxladi,
Yetti kunni uxladi.
Uyg'ona bermagach u,
Bosib tobora uyqu,
Semurg' daryoga ketdi,

Hayal o'tmasdan yetdi.
 Suvni shimirdi cho'llab,
 Qanotlarini ho'llab.
 Shu zamon uchib keldi,
 Jaladay ko'chib keldi.
 To'xtab Bunyod qoshida,
 Bir silkindi boshida.
 Bunyod uyg'ondi darhol,
 Uni lol etdi bu hol.
 Birdan turib seskandi,
 Qushni ko'rib seskandi.
 Odamlarga o'xshabroq
 Semurg' boshladi so'roq:
 «Ikki ming yildan beri
 Shu keng sahroning yeri
 Bo'l mishdir menga makon.
 Menden boshqa biror jon
 Kelolmadi bunga hech.
 Qumlar ko'chib erta-kech,
 Vatanidan ajraldi,
 Sahro giyhsiz qoldi.
 Qurtlar sarson bo'ldilar,
 Uchgan qushlar o'ldilar.
 Bunda faqat topdi jon
 Sen halok qilgan ilon.
 Hech yog'madi yomg'ir ham,
 Yer ko'rmdi zarra nam.
 Qadam bosmadi inson,
 Darimadi hech hayvon.
 Shuncha yil yolg'iz turdim,
 Yer va osmonni ko'rdim.
 So'yla menga, ey, odam,
 Boshlingga tushdi ne g'am?



Zo'r bir mardlik qilbsan,
Lekin bekor kelbsan.
Tilagingni ayt menga,
Ne ko'mak beray senga?»

XII


«Meni go'zal Parizod
Jo'natdi, – dedi Bunyod. –
Dunyoni g'amga ko'mgan,
Jafo-alamga ko'mgan
Devni bir ko'rmoqchiman,
Ko'rib o'dirmoqchiman.
Odamlarga baxt bermoq,
Baxtlilarga gul termoq
Eldan shiorim bo'ldi,
Nomus va orim bo'ldi.
Shuni qilsam Parizod,
Yorim bo'lib, qilur shod».
Qush dediki: «Ey, inson,
Bekor bo'libsan sarson.
Parizod xo'p aladapti,
Qo'rqinch yo'llarga sopti.
Xonning qizi dev bilan
Oshna edi burundan.
Yomon ko'rganlarini,
Dushman bilganlarini
Yo'llar edi o'shangi,
Do'st emas ekan senga.
Sen bu yo'lda o'lursan,
Aniq, qurban bo'lursan.
Devga bormay qo'ya qol,
Boshqa qizni deya qol».



Esga kelib Parizod:
 «Qaytmayman», – dedi Bunyod. –
 «Sher izidan qaytmaydi,
 Er so'zidan qaytmaydi.
 Uni ko'mguncha uyat
 O'lgani yaxshiroq bot.
 Shuning uchun boraman,
 Nima bo'lsa ko'raman».

XIII

Qushda mehr uyg'ondi,
 Qizg'anish bilan yondi.
 «Kel, esa ustimga chiq,
 Mening qanotimga chiq.
 Bir nafas oltirgin jim,
 Bir nafas ko'zingni yum.
 Men kuningga yarayin,
 Seni olib borayim.
 Dengizlardan o'tganda,
 Dunyoni suv tutganda,
 Ko'zlarining ochilmasin,
 Xayoling sochilmasin.
 O'zingni yo'qotmagil,
 Yana suvgaga otmagil.
 Seni olib borarman,
 Kurashingga qararman.
 O'sang gunoh o'zingda,
 Qo'rquv bilmas so'zingda.
 Agar devni o'ldirsang,
 Yerni qonga to'ldirsang,
 Yana olib qaytarman,
 Ofarinlar aytarman».



Qanotga chiqdi Bunyod,
Ko'zini chirt yumdi bot
Va Semurg' qildi parvoz,
Dunyoni tutdi ovoz.
Kun botar tomon ketdi,
Kun yotar tomon ketdi.
Semurg' ostida dunyo
Aylangan bo'ldi go'yo.
U o'qday uchib o'tdi,
Yashinday ko'chib o'tdi.
Yer-u ko'kka soldi jar,
Shovqiniga dunyo kar.
Xezlanganda yurt oldi,
O'lkalalar ketda qoldi.
Qolmay o'tmagan yeri,
Ucha-ucha oxiri
O'rmonlikka yetishdi,
Shivillab pastga tushdi.
Yalmog'izning qoshidan,
Daraxtlarning boshidan
Vabo o'tganday bo'ldi,
Balo yetganday bo'ldi.
Semurg' bir silkindi bot,
Ko'zini ochdi Bunyod.
Kun botarda bir o'rmon,
Unga bo'ldi namoyon.
Daraxtlarga ko'z soldi,
Og'ir hayratda qoldi.
Tikildi suq kirgudak.
Bunda o'sgan bir terak
Boshi osmonga yetgan,
Ko'kka chirmashib ketgan.
Atrofga jilva qildi,



Nafaslari tiqildi.
 Semurg' dedi: Ey, botir,
 Kel endi o'rningdan tur!
 Borib dushmaningni top,
 Qilich sol, bo'ynidan chop.
 Jo'na, baxting bor bo'sin,
 O'tkir qilich yor bo'sin.
 Seni shunda kutarman,
 Kelmasang, qon yutarman», –
 Va u ko'zdan yo'qoldi,
 Bir kesak bo'lib qoldi.
 Bunyod o'rmonga kirdi,
 Suv kechib, qonga kirdi.
 O'tkir qilich qo'lida,
 Borar ekan, yo'lida
 Daraxtlar qular edi,
 Yirtqichiar o'lar edi.
 O'rmonda harnaki bor,
 Qurt-u qush-u jonivor
 Qarshi olar edilar
 Nazar solar edilar.
 Bu ham bo'lar, deb, qurbon,
 Edilar ko'p pushaymon.
 Chumchuqlar chirqirardi,
 Bulbul yig'lab turardi.
 Bunyod esa mardona,
 Mard-u bahodirona.
 O'rmonda borar edi,
 Devni axtarar edi.
 Oshiqardi, ko'ray, deb,
 Qarshisida turay, deb.
 Qilar edi ko'p armon,
 Topay deb dardga darmon.



XIV

Bunyod yetti kun kezdi,
Yetti qora tun kezdi.
Eng oxiri tun chog'i
Bir hid sezdi dimog'i.
Tani jimirlab ketdi,
Qalbi qimirlab ketdi.
Bora berdi u hamon,
Guvillab qoldi har yon.
O'rmon shatirlab qoldi,
Qushlar patirlab qoldi.
U yana yurdi bir oz,
Oxir dev chiqdi peshvoz.
Sekin-sekin yurardi,
Qah-qah urib turardi.
Dumidan boshigacha,
Boshdan oyog'igacha
Xursandlik olgan edi,
Shodlikda qolgan edi.
Zahar tomar tishidan,
O'lim yog'ar ishldan.
Shoxi osmonda edi,
Tirnog'i qonda edi.
Bunyodga kulib boqib,
Nafsiga yigit yoqib:
«Salom, o'g'lim kel», – dedi. –
Dushman emas el, – dedi. –
Omon-eson bormisan?
Parizodga yormisan?
Go'zal qizim, omonmi?
Sho'x yulduzim, omonmi?
Tilagingni ayt menga,

Ne murod kerak senga?»
 Yigit so'zga boshladi,
 Gapmi tizib tashladi.
 «Bunyod senga el emas,
 El bo'lganni dev yemas.
 Sen bir ofat emishsan,
 Zo'r qabohat emishsan.
 Odamizotning yovi,
 O'g'lolnarning go'rkovi
 O'zing emishsan yolg'iz.
 Parizod deganing qiz,
 Qancha do'sting bo'lsa ham,
 Alam yutib o'lsa ham,
 Boshingga yetajakman,
 Oldirib ketajakman».
 Bunyod qilich chiqardi,
 O'rmon yaltirab qoldi.
 Bunyodning qahri keldi,
 Devning ham zahri keldi.
 Ko'zlaridan o't sochdi,
 O'rmonlikdan tun qochdi.
 U har og'iz ochganda,
 U har bir o't sochganda,
 Zo'r bir yong'in ketardi,
 Qancha o'rmon bitardi.
 Nafasidan zo'r bo'ron
 Qo'zg'alar edi har yon.
 Tomirlar ko'char edi,
 Daraxtlar uchar edi,
 Osmonni qushlar tutib,
 Hammasi ham qon yutib,
 Chirqirashib turardi,
 Zo'r kurashni ko'rardi.



To'kilar edi qonlar...
Barcha yirtqich hayvonlar
Kezardi besaranjom
Saqlab qolmoq uchun jon.
Bunyodni yutmoq uchun,
Bo'g'zidan tutmoq uchun
Dev hamla qilar edi,
Ba'zida qular edi.
Otashda edi ichi,
Bahodirning qilichi
Yaltirardi boshida,
Kular edi qoshida.
Bunyod qilich solganda,
Har bir sirmab olganda,
Devni uzib o'tardi,
Uzib, buzib o'tardi.
To'xtamadi qonli jang,
Bo'ldi devming holi tang.
Ikki kun-u ikki tun
Solishdi ular butun.
Tinimni bilmadilar,
Yarashga kelmadilar.
Bunyod qilichi bilan,
Zaharli uchi bilan
Devmi burdalay berdi,
Qilich qon yalay berdi.
Dev makon qurgan o'rmon
Boshdan-oyoq bo'ldi qon.
Qilichni har solganda,
Har bir simrab olganda,
Bir joyni olib o'tdi,
Bir rahna solib o'tdi.
Oxiri jon qolmadi,

Jon-u darmon qolmadi.
 Qilich bo'g'zidan tutgach,
 Tog' kabi yorib o'tgach,
 Dev harsillab quladi,
 Bir qarsillab quladi.
 Dev qulab yiqilganda,
 Birdan yakson bo'lganda,
 Yerlar qimirlab ketdi,
 Zilzila gurlab ketdi.
 Cho'zala tushgan chog'i,
 Devning boshi oyog'i
 O'rmonni tutib ketdi,
 Sig'may chetga ham o'tdi.
 U tipirlab berdi jon
 Va jimjit bo'ldi o'rmon.
 Shundan so'ng botir Bunyod
 Bo'lib o'zida yo'q shod,
 Qilichni yuvib oldi,
 Bir o'pib, qinga soldi.
 Parrandalar barchasi,
 Go'zali, oy parchasi
 Botirni uzatdilar,
 Olqishlab kuzatdilar.
 Yigit Bunyod mardona,
 Mard-u bahodirona
 Yurib o'rmondan chiqdi,
 G'avg'o va qondan chlqdi,
 Botir g'oyat beqaror,
 Semurg'iga intizor
 Turar edi ko'z tutib,
 Har ko'zini yuz tutib.
 Kesak bo'lib yotgan qush
 Go'yo ko'rgan kabi tush



Qonlar to'kilganini,
Bunyodning yengganini,
Botirning g'uussadan pok,
Dev bo'lganini halok –
Bilar edi hammasin.
Kesak bo'lib, ko'lkasin
Yerga solib yotardi,
Orom olib yotardi.
Bunyod kelgan zamon ul
Shodlikka to'ldi butkul.
Bir aylanib qush bo'ldi,
Bunyod ko'ngli xush bo'ldi.
Botir izidan o'pdi,
Ikki ko'zidan o'pdi.
Dedi: «Kel, ustimga chiq,
Mening qanotimga chiq!
Endi ortga qaytaylik,
Elga doston aytaylik.
Botir yigit ketdik, bo'l!
Kelgan joyga yetdik, bo'l!»
Botir qanotga chiqdi,
Zo'r «duldul ot»ga chiqdi.
Ko'zim yumgan zamon,
Xayolga cho'mgan zamon
Semurg' ko'kda yo'l oldi,
O'rmonlar ortda qoldi.
Bir yurt ko'chib borganday,
Ko'chib uchib borganday
Shovqin-suron zo'r edi
Va beimkon zo'r edi.

**XV**

Go'zal qush qanotida,
 Ko'knинг chopqир otida
 Uchib borarkan, Bunyod –
 Xayolida Parizod.
 Qush keng sahroga yetdi,
 Iniga qarab ketdi.
 «Ey, Bunyod, ko'zingni och,
 Jahonni ko'r, nazar soch!
 Endi yo'lni toparsan,
 Kerak bo'lsa choparsan.
 Bor, yaxshilar yor bo'ssin,
 Botir, baxting bor bo'ssin».
 Qaytadan qo'l ushiashib,
 Semurg' bilan xushiashib,
 Bir-birini quchoqlab,
 Mehr-u muhabbat bog'lab,
 Ajraldilar ikkovlon.
 Bunyod jahonni javlon
 Urib yana yo'l ketdi,
 Sahro bilan cho'l ketdi.

XVI

Tog'lar oshdi, qir oshdi
 Oylar bo'yи adashdi.
 So'nggi qirdan o'tganda,
 O'z yurtiga yetganda.
 Kunlarini sanadi,
 Tunlarini sanadi.
 Angladi, rosa uch yil
 Kezganini muttasil.



XVII

Rosa uch yil o'tganda,
Olamni gul tutganda.
Yam-yashil erta bahor,
Parizodga intizor.
Bunyod bo'ldi namoyon –
Ham xursand-u ham hayron.
Yuragi urib keldi,
Olamni ko'rib keldi.
Parizodni so'roqlab,
Bag'rini o'tda dog'lاب.
Xonning eshigin qoqdi,
Erib suv bo'lib oqdi.
Parizodni ko'rgali,
Ahvolini so'rgali.
Jahonni urib javlon,
Semurg' bilan ikkovlon.
Osmonda uchganini,
Yovuz devning tanini
Qilichda to'g'raganin,
Olganin uning jonin
So'ylagali shoshardi,
Daryo kabi toshardi.
Qalbini bir og'ir g'ash
O'rtardi misli otash.
Bir shubhasi bor edi,
Shubha do'sti zor edi.
Ne kechdi pari holi,
So'lmadimi niholi?
Uzoq uch yil muttasil
Nelar qildi ekan ul?»-
Deya azob cekardi,
Zo'r iztirob chekardi.



* * *

Bunyod saroya kirdi,
 Taxt turgan joyga kirdi.
 O'zini yo'qotdi xon
 Botirni ko'rgan zamon.
 Xonning yuziga qarab
 Qalbi ichra oralab,
 Bunyod bahodirona,
 So'z boshladi mardona:
 «Olamni ko'rib keldim,
 Devni o'ldirib keldim.
 Daryolarni quritgan,
 Baliqlarni chlritgan.
 Insonni dard-u balo
 Bilan qilgan mubtalo
 Yovuzning oti o'chdi,
 Ot-u hayoti o'chdi.
 Kerakkim, qilmay jafo,
 Va'daga aylab vafo,
 Parizodni bergaysan,
 Ul ozodni bergaysan.
 To'y boshlamoq lozimdir,
 Kuy boshlamoq lozimdir».
 Qovog'ini uyib xon,
 Uyatiga kuyib xon,
 So'zga kirishdi ojiz:
 «Senga va'da qilgan qiz
 So'zingga javob bersin,
 Kerak bo'lsa tob bersin.
 Ixtiyori o'zida,
 Turgan bo'lsa so'zida.
 To'y boshlarmiz shul zamon,
 Bo'lismiz shodmon.



Qani Parizod kelsin,
O'sha hur, ozod kelsin».
Mulozimlar chopdilar,
Parizodni topdilar.
Paydo bo'lgach Parizod,
Hayratda qoldi Bunyod.
Ixtiyori yo'qoldi,
Sovuq bir terda qoldi:
Xonning qizi Parizod
G'amgin emas, juda shod,
O'g'lin oldiga solib,
Qizini qo'lga olib,
Kelar edi ul tomon,
Boqar edi ko'p yomon.
Bunyod hang-u mang qoldi,
Holi zori tang qoldi.
Unga Parizod makkor
Shularni qildi izhor:
«Cho'ponni sevolmadim,
Hech ko'ngll qo'yolmadim.
G'urbatga qolganimning,
Devga yuborganimning
Sababi shunda edi,
Ko'ngllm tugunda edi.
O'lib ketar, deb edim,
Chirib ketar, deb edim.
Qancha botir bo'lsang ham,
Zo'r bahodir bo'lsang ham.
To'shaging xas deb bildim,
Aslingni past deb bildim.
Sevolmadim seni men,
Chunki men xon qizimen.
Men saroyning eriga,



Otamning vaziriga
Allaqachon tekkanman,
Shart qilib safarga san
Chiqib ketgan kuningda,
Yo'lda bo'lgan tuningda
To'y bo'lib o'tgan edi,
Hamma ish bitgan edi».

* * *

Yerga tikilgancha xon
Jim qoldi uzoq zamon.
Parizod yerga boqdi,
Bunyod o'tda tutaqdi.
Ne aytarin bilmasdan,
Tili so'zga kelmasdan.
G'azabda yonar edi.
Yonar, qiynalar edi.
Parizodni, xonni ham,
Ikki nomard jonni ham
Qilichdan o'tkazmoqqa,
O'limga yutqazmoqqa
Hozir edi shul zamon,
O't ichida beomon.
Shu g'azab, shu o'ch bilan,
Shu qasos, shu kuch bilan
Saroyni tashlab chiqdi,
Ko'zini yoshlab chiqdi.
Bavafo xon qizini,
Nomard xonning o'zini,
Unutmadi hech qachon,
Qarg'ab o'tdi beomon.

1939-yil, 3-aprel

MUNDARIJA

SHE'RLAR

O'zbekiston	4
O'zbekiston	7
Eng gullagan yoshlik chog'imda	12
«Sevgi desam, faqat sen desam...»	13
Xayolimda bolding uzun kun.....	14
Hol	15
Ozar qizi	16
O'lka.....	18
Bahorga yetganda	19
O'rik gullaganda	20
Bahor	22
«Timimsizdir yolg'iz shaboda...»	24
Hujum guliga.....	25
O'tarkan	26
Siyob	27
Neva xotiralari	32
Boltiq dengizi bo'ylarida	34
Bolalik	35
Qish	38
Hoy, yaxshi qiz!.....	41
Qish ko'chasidan	44
Nima bizga amerika!	45
Baxtlar vodiysi.....	52
O'zbekiston xotirasi	59
Daryo kechasi.....	62
Qiz.....	64
Bahri	67
Do'stimga	70

Kuychining xayoli	71
Ofeliyaning o'limi	75
Vido.....	78
Pushkindan	81
Chimyon esdaliklari	82
Holbuki, tun.....	84
Janub kechasida	86
«Kecha. Sahro. Uyqu va shovqin...»	87
Qora dengiz bo'yida.....	88
Mizimta daryosi	89
Sog'inganda	90
Har yurakning bir bahori bor	91
Hulkarning she'ri.....	92
Butun olam bir oppoq siyna.....	93
Qozog'iston	94
Baxtimiz tarixiga.....	96
Daryo tiniq, osmon beg'ubor	98
Tunmi izlash.....	99
«Shu kunlarda qutb olindi...»	100
Dunyo go'zal ko'rinxur senga	101
Do'mbiraning maqtovi.....	102
Baxt to'g'risida	104
Savol	105
Xayoling-la o'tadi tunlar.....	106
Samolyot	108
«G'uncha yangllig' burkanib...».....	109
Shodlikni kuylaganimninig sababi	110
Vatan	112
Lola	113
Yangi yil orzulari.....	114
«Kel, ey soqiy! Piyolani to'ldir...».....	115
Chirchiq bo'ylarida.....	116
Qo'lingga qurol ol!.....	118
Moskvami men bllaman!	120

Meni kutgil	122
Nihol.....	124
Yaqinlik	126
Intizorlik.....	127
Sevgi.....	128
G'alaqa qo'shig'i.....	131
Yigit.....	132
Bo'l omon!	133
Shlnel.....	134
Qamal qilingan shahar tepasidagi oy.....	136
Bo'lsam	139
Kuygay	140
Uchrashuv.....	141
Sen tug'ilgan kun.....	142
Ukrainani o'ylaganda	144
Sharqqa ketganda.....	148

BALLADALAR

Jangchi tursun	152
Raksananing ko'z yoshlari	159

DOSTONLAR

Oygul bilan Baxtiyor	172
Zaynab va Omon.....	204
Kirish	204
Semurg', Parizod va Bunyod	249

Adabiy-badiiy nashr

HAMID OLIMJON

XAYOLIMDA BO'LDING UZUN KUN

She'rlar, balladalar va dostonlar

Muharrir
Feruza QUVONOVA

Badiiy muharrir
Dilfuza SALIXODJAYEVA

Kompyuterda sahifalovchi
Nigora UMARQULOVA

Tehnik muharrir
Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 2019-yil 11.04 da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 3,5 Shartli bosma tobog'i 5,88.

Garnitura "Bookman Old Style". Ofset qog'ozni.

Adadi 10 000 (I zavod 3000) nusxa. Buyurtma № 171.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMM da tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» MCHJ da chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'llmi - (78) 147-00-14; (78) 129-09-72;

Marketing bo'limi - (98) 128-78-43; (93) 397-10-87

faks -(71) 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru veb-sayt: www.book.uz

**«Yangi asr avlodi» NMM 2017-yilda
«Kamolot kutubxonasi» ruknida quyidagi
kitoblarni nashrdan chiqardi**

ALISHER NAVOIY

«Xamsa»

Bichimi 84x108^{1/32}, qattiq muqova 496 b.

Mazkur kitobda Alisher Navoiy «Xamsa»sidagi barcha dostonlarning mazmuni bayon qilingan. Ularda shoir tomonidan tasvirlangan turli voqe-a-hodisalar aks ettirilgan, faqat kirish qism-lari, me'yordan cho'zilib ketgan manzaralar, monologlar biroz qisqartirilgan. Navoiy dostonlaring ushbu nasriy talqini alloma shoirimizning turkiy she'riyat gultoji hisoblanmish «Xamsa» dostonlarini anglab olishingizga yordam beradi, deb o'ylaymiz.

ABULQOSIM FIRDAVSIY

«Shohnoma»

Bichimi 70x100^{1/16}, qattiq muqova 704 b.

Firdavsiyning «Shohnoma» asari shohiar tarixidan hikoya qiluvchi doston. U qariyb to'rt ming yillik davr voqyealarini qamrab olgan, dostonda afsonaviy va tarixiy shaxslar «harakat qiladilar». Asar qahramonlari – podsholar, mu'badlar, sipohlar, polvonlar o'zaro qirg'in urushlar, bosqinchilik, talonchilikda kuch va aql, fahm

bobida sinashadilar. Jangu jadallar asnosida ezgulik va yovuzlikni farqlab boradilar. Ulardagi yuksak jangovarlik, qahramonlik ruhi, imson qalbini junbishga keltiradigan kayfiyat o'quvchiga ham o'tadi. Bu kayfiyat Vatanga, onaga, yoruga, farzandlarga, umuman imsonlarga nisbatan mehrni kuchaytiradi, atrofdagilarga yaxshilik qilishga, manmanlikka berilmaslikka, behuda gina, adovat urug'larini sochmaslikka undaydi. Badiiyat jihatidan puxta va yuksak mahorat bilan yozilgan «Shohnoma»ning qudrati mana shunda.

Tinchlik uchun kurash, sosoyishtalikni saqlash dolzarb bo'lib turgan bugungi kunda «Shohnoma» dostoni yovuzlikka barham berish, yorug' kunlarning qadriga yetish, farovonlikda umr kechirishga o'rgatishi bilan qimmatlidir.

ZULFIYA

«Bahor keldi seni so'roqlab»

Bichimi 84x108^{1/32}, yumshoq muqova, 192 b.

XX asr o'zbek she'riyatining zabardast vakillaridan biri, davlat arbobi Zulfiya Isroilova bugungi kun o'quvchilari uchun yaxshi tanish. Maktab darsliklarida shoiraning qator she'rlarini mutolaa qilganimiz. Vatan, muhabbat, vafo, ezgulik tuyg'ulariga yo'g'rilgan she'rlari barchamizning ko'nglimizdan munosib joy olgan.

Mazkur kitob Zulfiya tavalludining 100 yilligiga bag'ishlab nashrga tayyorlandi. Undan shoira ijobidagi eng sara she'rlar o'rinni o'lgan. Aziz o'quvchilarmiz ushbu to'plamni o'qib, mutolaa zavqidan bahramand bo'ladi, degan umiddamiz.

ABDULLA QAHHOR

«O'tmishdan ertaklar»

Bichimi 84x108 1/32, qattiq muqova, 400 b.

«O'tmishdan ertaklar» – o'zbek adabiyotining zabardast vakili bo'lgan Abdulla Qahhor ijodiy merosida muhim o'rinni tutadi. Bu asar nafaqat yo-zuvchining bolaligidan hikoya qilladi, balki o'tgan asr boshlarida millat bolalarining mashaqqatli hayoti xususida so'z yuritadi. Nafaqat bolalar, katta avlodning savodsizligi, davr fojialari jonli va ochiq-oydin tasvirlanadi.

To'plamning ikkinchi qismi bo'lgan hikoyalarni ham o'zbek adabiyotining ma'naviy boyligidir. Yo-zuvchining ilk hikoyalari to'plami 1932-yilda chop etilgan. Bugungacha bo'lgan davr mobaynida o'zbek adabiyotida, jumladan, hikoyanavislikda juda ko'p asarlar yaratildi. Sara hikoyalari, deya e'tirof etilgan bir qancha ijod namunalari o'quv-chilar hukmiga havola etildi. Ammo Abdulla Qahhor hikoyalari yillar chig'irig'ini pisand etmay, hamon sevib o'qiladi.

ERKIN VOHIDOV

«O'zbegim»

Bichimi 84x108 1/32, qattiq muqova 400 b.

«Kamolot kutubxonasi» ruknida nashrga tayyorlangan navbatdagi kitobimiz o'zbek adabiyotining zabardast vakili, O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni Erkin Vohidovning she'r, doston, hajviya, muxammas va tarjimalaridan tarkib topdi. Nashriyotimiz tomonidan shoirning «Zamin sayyorsi» hamda «Sharqiy qirg'oq» nomli she'riy to'plam-

lari o'quvchilar e'tiboriga havola etilgach, ko'p sonli she'riyat ixlosmandlari shoirning yirik hajmli ijodiy merosi jamlangan to'plamni chop etishimizni so'rab murojaat qilishdi.

Aslida Erkin Vohidov she'rlarini saralashga hojat yo'q: qaysi satrini o'qimang, kitobga kiritgingiz, mutolaaga kirishgan o'quvchiga xoh katta yoshli, xoh bugungi davr farzandi bo'lsin, shoir ijodini taqdim etgingiz, she'rlar zamiridagi faqat so'z san'atkorigagima xos bo'lgan haqiqatlardan boxabar etgingiz keladi.

MUSHFIQ KOZIMIY

«Qo'rquinchli Tehron»

Bichimi 84x108 1/32, qattiq muqova, 656 b.

Mazkur asar ikki kitobdan iborat bo'lib, unda o'tgan asr boshiaridagi voqealar qalamga olinadi. Oradan yillar o'tgan bo'lsa-da, undagi g'oyalar, o'lmas tuyg'ular, orzular va armonlar zanjiri o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bosh qahramon Farruhning ezgulik va jaholat, nafs yo'lidagi taloto'plarga qarshi kurashi, qasosga undagan turfa sarguzashtlari va Mahinga bo'lgan sof muhabbatи ikki roman ni bir-biriga uzviy bog'lab turuvchi umumiy syujet chizig'ini tashkill etadi.

«Qo'rquinchli Tehron» dunyo adabiyoti xazimasi dan o'ren olgan asarlar sirasiga kiradi. Mushfiq Kozimiy qalamiga mansub ushbu asar olamiga oshufta bo'ling, aziz kitobxon.



Hamid Olimjon (1909 – 1944)

Iste'dodli shoir, dramaturg, olim va jamoat arbobi.

1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida dunyoga keldi.

Dastlab Samarqand pedagogika bilim yurtida (1923 – 1926), so'ng Pedakademiyada (1926 – 1931) o'qidi. Uning asarları 1926-yildan «Zarafshon» gazetasida chiqa boshiadi.

Adibning ilk she'riy to'plami «Ko'klam» nomi bilan 1929-yilda chop etilgan. Shundan so'ng «Olov sochlar» (1931), «O'llim yovga» (1932), «Poyga» (1932) kabi she'riy to'plamlari o'quvchilar e'tiboriga havola etildi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi (1943) Hamid Olimjon o'zbek adabiyotining dolzarb masalalari bo'yicha qator ilmiy-tanqidiy asariar yaratdi. A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, M.Gorkiy, V.Mayakovskiy, T.Shevchenko, M.Lermontov, N.Ostrovskiy, A.Korneychuk asarlarini tarjima qildi.

O'zbek xalq og'zaki ijodining ajoyib durdonasi «Alpomlsh» dostoni birinchi marta Hamid Olimjon tomonidan nashrga tayyorlanib (1938), chop etildi.

Hamid Olimjon 1939-yildan to umrining oxirigacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qildi.

Adib «Daryo kechasi» (1936), «O'lka» (1939), «Baxt» (1940) to'plamlari, «Ikki qizning hikoyasi» (1935 – 1937), «Oygul va Baxtiyor» (1937), «Semurg» (1939) kahi dostonlari bilan o'zbek she'riyati rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

Iste'dodli shoir 1944-yil 3-iyulda avtomobll halokatiga uchrab, vafot etgan.



ISBN 978-9943-20-280-1



www.book.uz

ONLAYN KITOB DO'KONI